ТУРИЗМ ГЕОАХБОРОТ ТИЗИМИДА ЯНГИ ТУРИСТИК МАРШРУТЛАР ИШЛАБ ЧИҚИШНИНГ ИЛМИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ



O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYoT VA SERVIS INSTITUTI

I.S.Tuxliyev, R.S.Amriddinova, R.Hayitboyev S.A.Abduxamidov, M.X.Xamitov, A.Yu.Talibova, A.P.Maxmudova

TURIZM GEOAXBOROT TIZIMIDA YaNGI TURISTIK MARShRUTLAR IShLAB ChIQIShNING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARI

MONOGRAFIYa

PZ-20170929632 “Turizm geoaxborot tizimida yangi turistik marshrutlarni yaratish” amaliy tadqiqot loyihasi doirasida tayyorlangan

Samarqand-2021
“Turon” nashriyoti

338.48-44(1-22)
T **88**

Turizm geoaxborot tizimida yangi turistik marshrutlar ishlab chiqishning ilmiy-metodologik asoslari. Monografiya. / I.S.Tuxliyev, R.S.Amriddinova, R.Hayitboyev, S.A.Abduxamidov, M.X.Xamitov, A.Yu.Talibova, A.P.Maxmudova. - Samarqand: Turon, 2021. – 126 b.

UO'K 338.48-44(1-22)

Mas'ul muharrir: i.f.d., prof. I.S.Tuxliyev

Taqrizchilar: i.f.d., prof. B.Sh.Safarov
i.f.n., dos. N.E.Ibadullayev

Mazkur monografiya Samarqand iqtisodiyot va servis institutida davlat granti asosida bajarilayotgan PZ-20170929632 "Turizm geoaxborot tizimida yangi turistik marshrutlarni yaratish" mavzusidagi loyiha doirasida tayyorlangan. Unda, turmarshrutlarining mazmuni, mohiyati va ahamiyati, turistik marshrutlar ishlab chiqishning tamoyillari, turistik marshrutlarni ishlab chiqish usullari, turizmning maxsus turlari uchun marshrutlar ishlab chiqish, ekologik turizm marshrutlarini ishlab chiqish, turistik marshrutlar ishlab chiqishda geoaxborot tizimini qo'llashning obyektiv zarurati, Samarqand viloyati bo'ylab "New adventure: Cycle tourism around Samarkand" nomli yangi veloturizm marshrutini ishlab chiqish texnologiyasi, mobil ilova ko'rinishidagi O'zbekiston turistik geopartal tizimini ishlab chiqish texnologiyasi, "New adventure: Cycle tourism around Samarkand" nomli veloturizm marshrutini turizm geoaxborot tizimiga joylashtirish yo'llariga bag'ishlangan.

Monografiya materiallari o'qituvchilar, tadqiqotchilar, turizm va mehmonxona mutaxassislari, shuningdek talabalar va magistrantlar uchun foydali bo'ladi.

Monografiya Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashi Qarori bilan tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan (2021 yil 17 aprel 9-son bayonnoma).

ISBN 978-9943-6699-3-2

© I.S.Tuxliyev, R.S.Amriddinova, R.Hayitboyev,
S.A.Abduxamidov, M.X.Xamitov, A.Yu.Talibova,
A.P.Maxmudova
© «Turon» nashriyoti, 2021.

MUNDARIJA

	KIRISH	2
1-BOB.	**TURIZM MARSHRUTLARI ISHLAB CHIQISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....**	4
1.1	Turizm marshrutlarining mazmuni, mohiyati va ahamiyati.....	4
1.2	Turistik marshrutlar ishlab chiqishning tamoyillari…..	19
1.3	Turistik marshrutlarni ishlab chiqish usullari.....	33
1.4	Turizmning maxsus turlari uchun marshrutlar ishlab chiqish..	39
1.5	Ekologik turizm marshrutlarini ishlab chiqish.....	58
2-BOB	**GEOAXBOROT TIZIMIDA TURISTIK MARSHRUTLARNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARINI ISHLAB CHIQISH YO'LLARI.....**	69
2.1	Turistik marshrutlar ishlab chiqishda geoaxborot tizimini qo'llashning obyektiv zarurati	69
2.3	Samarqand viloyati bo'ylab "New adventure: Cycle tourism around Samarkand" nomli yangi veloturizm marshrutini ishlab chiqish.....	76
3-BOB	**O'ZBEKISTON TURISTIK GEOPORTAL TIZIMINI ISHLAB CHIQISH VA MARSHRUTLARNI TIZIMGA JOYLASHTIRISH TEXNOLOGIYASI.....**	106
3.1	Mobil ilova ko'rinishidagi O'zbekiston turistik geoportal tizimini yaratish texnologiyasi.....	106
3.2	"New adventure: Cycle tourism around Samarkand" nomli veloturizm marshrutini turizm geoaxborot tizimiga joylashtirish.....	32
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	123

KIRISH

Hozirgi paytda turizm sohasi mamlakatlar va mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etishi va XXI asr jahon xo'jaligining ustuvor tarmoqlaridan biri ekanligi ma'lum bo'lmoqda. Shu tufayli turizm faoliyatini ravnaq toptirish masalasi 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasining iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlarida ham o'z aksini topgani bejiz emas. O'zbekiston zamonaviy turizm industriyasini rivojlantirish uchun barcha zaruriy manbalarga ega bo'lib, Buyuk Ipak yo'li ustida joylashgan Vatanimiz qulay tabiiy-iqlim sharoitlariga, boy tarixiy, madaniy merosga va ayni paytda ham ichki, ham xalqaro turizmni rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega.

Mamlakat iktisodiyotini modernizasiyalash sharoitida turizm sohasida yechimini kutib turgan masalalar qatorida yangi yo'nalishlar bo'yicha turistik marshrutlarni ishlab chiqish dolzarb masala bo'lib turibdi.

Bugungi kunda hukumatimiz tomonidan turizmga milliy iqtisodiyotning strategik sektor maqomini berilishi, uning istiqbolda rivojlanishiga katta zamin yaratdi. Shu tufayli yurtimizga sayohat qiladigan mahalliy va xorijiy turistlarga sifatli xizmat ko'rsatish uchun yaratiladigan turistik marshrutlarning jozibadorligini oshirish va bu orqali turistik mahsulotlarga bo'lgan turistlarning qiziqishini oshirish zamon talabi bo'lmoqda.

Xalqaro turizmni shuningdek, milliy turizmni rivojlantirishning asoslaridan biri turistik marshrutlarni ishlab chiqish va bu marshrutlarga turistlarni jalb qilish hisoblanadi. Puxta, qiziqarli ishlangan turistik marshrut ko'plab turistlarni jalb qiladi. Shuning uchun ham, turistik marshrutlarni mukammal ishlab beraoladigan malakali mutaxassislarga talab juda katta bo'lib, O'zbekistonda turizmni rivojlantirishdagi eng dolzarb masalalardan hisoblanadi.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «O’zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo’yicha qo’shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to’g’risida»gi 2018 yil 3 fevraldagi PF-5326-son Farmoni, shuningdek, “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to’g’risidagi”gi 2018 yil 7 fevraldagi PQ-3514-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida ichki turizmni jadal rivojlantirish, fuqarolarni mamlakatimizning madaniy-tarixiy merosi hamda tabiiy boyliklari bilan tanishtirish maqsadida «O’zbekiston bo’ylab sayohat qil!» ichki turizmni rivojlantirish dasturini amalga oshirish bo’yicha amaliy chora-tadbirlar rejasi ijrosini ta’minlash maqsadida PZ-20170929632.– “Turizm geoaxborot tizimida yangi turistik marshrutlarni yaratish” Davlat ilmiy texnik dasturlari asosida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari doirasida mazkur monografiya tayyorlandi.

1-BOB. TURIZM MARSHRUTLARI ISHLAB CHIQISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1. Turizm marshrutlarining mazmuni, mohiyati va ahamiyati

Inson ko’rib, eshitib yurgan har qanday mo’jizaviy, qiziqarli obyekt lar, tabiatning so’lim go’shalari, qadimdan saqlanib kelayotgan obidalar, daryolar, sharsharalar, hayvonot yoki turli–tuman o’simliklar o’sadigan joylar, tomosha bog’larining hammasiga ma’lum bir yo’ldan boriladi. Bu yo’l turizmda «marshrut» deyiladi**.**

Marshrut–fransuzcha marche–yurish, oldinga harakat, route–yo’l, rus tilida ham marsh-oldinga yurishhisoblanadi. O’zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish davlat miqyosida, rahbarligida olib borilayotgan barcha chora-tadbirlarining eng muhim vazifalaridan biri turizm marshrutlarini ishlab chiquvchi mutaxassislar tayyorlashdir. Turizm marshrutlarini ishlab chiqishda gi birinchi talab esa turizm resurslarini mukammal bilishni talab qiladi.

Turistik resurs, obyekt:

A.-tabiiy turistik resurslar: relyef (orografiya), suvlar(gidrografiya) iqlim, flora,fauna va boshqalar.

B.-Ijtimoiy-iqtisodiy turistik resurslar: madaniy-tarixiy, etnografiya, ishlab chiqaruvchi xo’jaliklar, siyosiy va boshqalar bo’lishi mumkin.

Ushbu turistik resurslar bo’lgan tabiat qo’riqxonasi, tarixiy, tabiiy, tabiat va uning boyliklari, madaniy obida, arxeologiya, madaniy me’ros va hokazolarga turist har taraflama qulay boradigan marshrutni talab qiladi.

Respublikamizdagi barcha turistik resursga–obyektga-manzilu-makonga-maskanga yo’l bor. Bu yo’llar asfaltli, toshli, mahalliy tuproq yo’llari, so’qmoqlar va hokazo ko’rinishlaridir. Lekin, bu yo’llarda turistik marshrut xizmatlari tashkil qilingandan keyingina turistik resursda turistlar soni ko’payishi mumkin. Turistik resursga hozirgi yo’llar bilan ham turistlar olib boriladi. Lekin bu yo’ldagi turistik

marshrut turistning erkin harakatlanishi, u hoxlagan vaqtda to’xtashi, qiziqib qolgan yo’l bo’yi «obyektlar»ga ekskursiyaga chiqishni talab qilishi, yoki choy ichib dam olishni va turistning qo’shimcha xizmatlarini, ehtiyojlarini qondirishi kerak.

Turistik marshrut qayd qilingan, kutilmagan «takliflar»ning bajarilishi yoki «xizmatlar» majmuasi a’lo darajada kafolatlanishi uchun ham turistik marshrutlar deyiladi. Turistlarning barcha ehtiyojlarini, talablarini bajarishda foydalanadigan yo’llar -turistik yo’llar deyiladi.

Turistik marshrutda turistlarning transport vositalarida harakatlanishi davrida bu transport vositalari faqat turistlarga xizmat qiladi. Turistik marshrutda transport vositalarining haydovchilari yo’l-yo’lakay odamlarni olishi yoki kira haqqi uchun ishlamaydi va bunga yo’l qo’yilmaydi. Shuningdek, turistik marshrutda turistlarning hohishi yoki iltimoslari bilan marshrut rahbarining ruxsati bilangina marshrutning oldindan belgilangan yo’nalishi o’zgartirilishi mumkin. Yanada aniqroq qilib aytilganda turning marshruti turistlarning talablari bo’yicha ular qiziqgan yoki turistlarni qiziqtirgan turistik obyektga marshrut dasturidagi barcha xizmatlarni ko’rsatish hisoblanadi.

Turizm marshrutlarining davriylik jihatidan nomlanishi nisbiy tushuncha. Chunki, turizm va turist atamasining o’ziga berilayotgan ta’riflar, bahslar hanuzgacha to’xtagani yo’q. Turizmning va turistning hozirgi ta’rifi bo’yicha to Tomas Kukgacha bo’lgan sarguzashtu–sayohatlarning barchasini turizm sayohatlari va ularning sayohat yo’llarini turizm yoki turistik marshrutlar deb bo’lmaydi, sayohat marshrutlari deyish mumkin. Sayohatchi bilan turistning farqi esa juda katta.

Chunki o’tmishdagi sayohatlarning hatto, buyuk georafik kashfiyotlarning ham deyarli aksariyat qismi boylik izlash, davlatlar chegaralarini kengaytirish yoki bosqinchilik maqsadlarida amalga oshirilgan. Bu xil sayohatlarda va ularning marshrutlarida turistik xizmatlarning barchasi turist yoki sayohatchilar uchun

ishlab chiqilmagan. Hozirda o’tmishdagi sayohatlarning marshrutlari, davriyligi jixatidan quyidagi marshrutlarga bo’linadi:

1. Qadimgi marshrutlar.
2. Buyuk geografik kashfiyotlar davridagi sayyohlarning marshrutlari
3. O’zgartirilgan marshrutlar
4. O’zgarmaydigan marshrutlar
5. Tiklanadigan marshrutlar
6. Tiklanmaydigan marshrutlar
7. Yangi, zamonaviy marshrutlar

Qadimgi sayohatlarning marshrutlari insoniyatning to buyuk geografik kashfiyotlargacha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi. Dastlabki marshrutlar oldindan o’rganiladigan joylarga sayohatlar uyushtirish hisoblanadi. Insoniyat taraqqiyotida qadimiy ibtidoiiy odamlarning ovqat izlab ko’chib yurishlarining izlari ham hozir topilgan, isbotlangan. Qadimiy davrlardagi sayohatchilarning marshrutlari asosan eramizdan oldini davrlardagi sayohatchilarning marshrutlari hisoblanadi. XX asrning buyuk sayyohi Tur Xeyerdal Polineziyaliklarning papirus va bals qayiqlarida Tinch okeanini suzib o’tganligini va Amerikaga X.Kolumbdan ham oldin borganligini isbotladi.

Eramizdan 2 ming yil oldin Misrlik Sinuxit Edem mamlakatida sayohatda bo’ldi, bu sayohat tafsilotlari papirusda yozilgan “Sinuxit sayohati” deb nomlangan asarda qayd qilingan. Eng katta va dastlabki sayohatlardan biri eramizdan oldingi VI asrda Misr firav’ni Nexao topshirig’i bo’yicha Afrikaning dengiz qirg’oq chiziqlari bo’ylab amalga oshirilgan 3 yillik sayohat hisoblanadi. Bu sayohatni Finikiyaliklar amalga oshirdi. Ular kemalarda Qizil dengizdan Hind okeaniga chiqishdi, 3 yildan so’ng Gibraltar bo’g’ozidan o’tib O’rta yer dengizi orqali Misrga yetib kelishdi. Bunday sayohatlar tarixda juda ko’plab qayd qilingan. Nexao topshirig’i bo’yicha finikiyaliklarning sayohatini keltirganimizning bosh sababi shundaki, aynan shu sayohatdan keyin 2 ta qit’a nomlandi:

1. «Acy», «Azy» - kun chiqar–keyinchalik Osiyo nomi

2. «Ereb» - kun botar keyinchalik Yevropa nomi.

Qadimiy marshrutlarni harakatlanish jihatidan 2 xil sharoitga bo'lishimiz mumkin:

1. Dengiz–suv yo'li marshrutlari.

2. Quriqlikdagi marshrutlar.

Dengizlar orqali amalga oshirilgan marshrutlar: Fernando Magellanning yer shari bo'ylab sayohati, Robert Skott va R. Amundsenning shimoliy va janubiy qutblarga sayohatlari, Semyon Dejnyov va Vitus Beringning Shimoliy muz okeani bo'ylab sayohatlari, F. Bellinsgauzenning janubiy qutbga sayohati, Mikluxo Maklay sayohati, Xristofor Kolumb va Jeyms Kukning okeanlar bo'ylab sayohatlari marshrutlari, Jak iv Kustoning okean va dengizlardagi tadqiqotlari sayohati marshrutlaridir.

Quruqlikda o'tgan eng katta marshrut–«Buyuk ipak yo'li» marshruti hisoblanadi. Shuningdek, xitoylik sayyoh Chjan Syan yurgan yo'l ham jahondagi eng katta marshrutdir.

Buyuk geografik kashfiyotlar davridagi marshrutlarga 1490-1600 yillardagi Fernando Magellan, Xristofor Kolumb, Amerigo Vespuchchi, Vasko da Gama, Jeyms Kuk, David Livington, Afanasiy Nikitin, A.Tasman, Mikluxo Maklay, D.Dikson, Vitus Bering, Semyon Dejnyov va boshqa sayyohlar ochgan marshrutlar kiradi. Bu marshrutlar qadimgi marshrutlar tizimiga ham kiradi.

Yangi zamonaviy marshrutlar Yevropada va Amerikada dastlabki avtomobillar, poyezdlar va samolyotlar, bug' bilan suzadigan kemalar ixtiro qilingan 17-18 asrlar to'g'ri keladi.

O'zgartirilgan marshrutlarni inson o'zi uchun qulaylik, sharoit yaratadigan geografik relf shakllari o'zgarganidan keyin o'zgartiradi. Albatta, yangi yo'l oldingisiga (eskisiga) qaraganda o'zining xavfsizligi, qulayligi, harakat lar uchun ko'plab sharoitlar, imkoniyatlar mavjudligi bilan ajralib turadi.

O'zgartirilgan marshrutlar ko'pincha davlatlar o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy me'yorlarning buzilishidan kelib chiqadi. Xuddi shuningdek, davlat ichidagi

marshrutlar yangi shaharlar qurilishi, boy tabiiy mineral resurslarning ochilishi bilan bog'liq bo'ladi. Sanoat obyektlarining markazlashuvi, arxeologik topilmalar va tabiat qo'riqxonalarining tashkil qilinishi ham ko'pincha yangi marshrutlarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

O'zgarmaydigan marshrutlar–barcha yo'llar Rimga olib boradi shiorida bo'ladi va asosan dunyoning qadimiy–tarixiy obidalari, diniy rahnomalar dafn etilgan joylar, tabiatning noyob haykallari joylashgan manzillar bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, Misrdagi piramidalar, Xitoydagi «Buyuk ipak yo'li» Hindiston, Tailanddagi qadimiy, toshdan qurilgan ibodatxonalar, Makka, Madina, Quddus, Buxoro, Samarqand, Xiva, Vatikan kabi shaharlarga, tabiat haykallari, Niagara sharsharasiga, g'orlar, buloqlar, tog'larga boriladigan marshrutlar o'zgarmaydi. Shaharlar, davlatlar o'rtasidagi temir yo'l, havo yo'li, avtomobil yo'llari marshrutlari ham deyarli o'zgarmaydi. «Buyuk Xitoy devori» bo'ylab o'tgan marshrut ham bu devor to yo'qolib ketguncha harakatda bo'ladi, o'zgarmaydi.

Tiklanadigan marshrutlar. Bunday marshrutlar asosan qadimiy marshrutlar bo'lib asrlar o'tishi va ilmiy-texnika taraqqiyoti, marshrutda transport turlarining o'zgarishi tufayli dastlabki ahamiyatini yo'qotgan marshrutlar hisoblanadi.

Masalan: Eramizdan oldingi II-III asrlarda mashhur bo'lgan, asosan tuya karvonari bilan harakatlanadigan «Buyuk ipak yo'li» marshrutini tiklash uchun xalqaro harakatlar boshlandi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov 1995 yil 2 iyunda 1162 raqamli «Buyuk ipak yo'li»ni qayta tik lashda O'zbekiston Respublikasi ishtirokini avj oldirish va Respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida» farmonini qabul qildi.

«Buyuk ipak yo'li» marshrutini tiklash mumkin. Bu tiklash qadimiy yo'l marshruti aniqlanib zamonaviy avtomagistral yoki zamonaviy temir yo'l transporti tarmoqlariga aylanishi ham mumkin. Lekin tuya karvonlari marshrutini ekzotik turizmni rivojlantirish uchun qisqa-qisqa masofalarda tashkil qilsa yetarli bo'ladi.

Tiklanmaydigan marshrutlar ham imperiya davlatning yoki alohida davlatning parchalanib ketishi, shaharlar, sanoat markazlarining salohiyati

pasayishi yoki ilmiy-texnika taraqqiyoti rivoji bilan o’z mavqyeini yo’qotadi. Masalan: Xristofor Kolumb, Tur Xeyerdal yoki Fernando Magellanning okeanlararo kemalarda o’tkazgan, oylab muddatlar ketgan dengiz marshrutlarini tiklashga hyech hojat ham, zarurat ham yo’q. Bunday marshrutlarni tiklash va turizmda foydalanish iqtisodiy jihatdan haddan tashqari qimmat bo’lishi tushunarli holatdir. Bu marshrutlarni zamonaviy samolyotlarda 10-12 soatda bosib o’tishi mumkin bo’lmoqda.

Turizmdagi marshrutlar deyarli mavzuli bo’ladi va mavzu nomidagi turistik marshrut deyiladi. Qayd qilganimizdek, marshrut turistning yoki turistlarning talab va ehtiyojlarini to’liq qondirish dasturiga ega bo’lgandagina turistik marshrut deyiladi. Boshqa hollarda marshrut umumiy yo’l bo’lib qolaveradi. Turistik marshrutlar turizmdagi turlarning mavzulari bo’yicha ham bo’lishi mumkin. Ko’p holatlarda aralash yoki majmuali mavzudagi turistik marshrutlar yoki bir mavzuda diniy–ziyoratgoh joylarga ishlab chiqilgan turistik marshrutlar hisoblanadi.

Agarda turistlar talabi bilan ekoturizm marshruti ishlab chiqilganda ekologik turizm resurslari asosan uzoq masofalarda joylashganligidan turistlar zerikmasligi uchun yo’lbo’yi turistik obyektlarni ham turmarshrutga kiritiladi va yo’l-yo’lakay qiziqarli ekskursiyalar uyushtiriladi. Bunday marshrutlar majmuali mavzudagi turistik marshrutlar deyiladi. Demak turistik marshrutlarning mavzulari ko’p hollarda turizmning turlari nomi bilan bog’liq bo’ladi.

Turizmning ma’lum bir davlatda rivojlanishiga juda ko’p omillar ta’sir qiladi. Turizm manzillariga yangi turmarshrutlarning ishlab chiqilishi bevosita turizmni rivojlantirish omillarining harakati bilan bog’liqdir. Turizmni rivojlantirish omillarining biror bir omili yoki shakli alohida yuzaga chiqganda turistik marshrut yoki harakatdan to’xtaydi yoki yangi turmarshrut ishlab chiqishga to’g’ri keladi.



1.1.**–rasm**. **Yevropa - Osiyo transkontinental avtomobil yo'lining O'zbekistondan o'tadigan qismi sxemasi**

Xitoy va Markaziy Osiyo mamlakatlarini Rossiya orqali G'arbiy Yevropa mamlakatlari bilan bog'laydigan avtomagistral Jahondagi eng yirik avtomagistrallardan biri bo'ladi. Bu avtomarshrut Rotterdam (Gollandiya) – Shanxay (Xitoy) portlarini bog'laydi. Umumiy uzunligi 10 ming km. dan ortiq. Avtomagistralning O'zbekiston hududidan o'tadigan qismi–Andijon–*Toshkent–Nukus–Qo'ng'irot* trassasining umumiy uzunligi 1422 km, barcha kirish yo'llarining uzunligi 500 km bo'lib, Farg'ona vodiysi viloyatlaridan boshlanib, so'ngra Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Navoiy, Buxoro viloyatlari, Qizilqum orqali Xorazm viloyati hududidan o'tib Nukusga chiqadi.

Trassa Afg'oniston va Turkmaniston yo'nalishidagi xalqaro trassalarni ham kesib o'tadi. Trassani loyihalash ishlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 18 avgust qarori asosida 1999-2000 yillarda amalga oshirildi. Loyihalash yechimlari jahon standartlari darajasida qabul qilinib, qurilgan yangi trassa avtotransport vositalari ning katta tezlikdagi harakatini ta'minlovchi O'zbekiston Milliy magistraliga aylanadi. Trassa avtotransport vositalarining katta tezligini ta'minlaydi, mamlakat iqtisodiyotida va turizmning

rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Bu imkoniyatlar bilan O’zbekiston g’arbga–Yevropa davlatlari turistik marshrutlari ham ko’payadi.

Toshkent–Andijon–O’sh–Qashqar avtomobil yo’li. Bu yo’l xalqaro ahamiyatdagi yo’l hisoblanadi. Umumiy uzunligi 940 km. O’zbekiston (408 km), Qirg’iziston (272 km), Xitoy (260 km) hududlaridan o’tadi. Yo’lda dengiz sathidan turlicha balandlikda bo’lgan 6 та dovon bor. Shundan O’zbekistonda Qamchiq (dengiz sathidan 2268 m) va Rezak (2254 m) dovonlarida tunellar qurilgan.



1.2– xarita. **Toshkent – Andijon – O’sh – Qashqar avtomobil yo’li sxemasi**

Qirg’iziston hududida Chayirchiq (2406), Toldiq (3645 m) va Taunmurun (3536 m) dovonlari osha o’tiladi. Bu yo’l qadimda Buyuk ipak yo’lining asosiy yo’nalishlaridan biri hisoblangan karvon yo’li bo’lgan. 1960-70 yillar oralig’ida yo’ldagi transport qatnovining ortib borayotganligi hisobga olinib, yo’lning parametrlari (kengligi) III-IV toifaga (10-12 m) keltirilib, tegishli, zaruriy qismlariga asfalt-beton yotqizilib, qayta ta’mirlangan.

XX asr oxiriga kelib yo’lning xalqaro ahamiyati kuchaydi. 1997 yil 24-28 aprelda Toshkentda 18 mamlakat ishtirokida yo’lni ta’mirlash, undan foydalanish va shu yo’nalishda temir yo’l qurish masalalariga bag’ishlangan xalqaro kengash o’tkazildi. 1998 yil 19 fevralda O’zbekiston, Qirg’iziston, Xitoy hukumatlari o’rtasida *Toshkent–Andijon–O’sh–Qashqar* avtomobil yo’lida xalqaro avtomobil transporti qatnovi to’g’risida bitim imzolanib, yo’l qurilishi boshlandi. Bu yo’llar

bilan ham O’zbekistonning-Sharq davlatlariga bo’ladigan turistik marshrutlari ko’payadi. Albatta qayd qilingan qit’alararo bu ikkala marshrut XXI asrning eng zamonaviy marshrutlari bo’lib qoladi.

Dunyoviy ahamiyatga molik turizm resurslarini butun dunyo aholisi biladi, yoki resurslar haqida shov-shuvli axborotlarni eshitishgan. Masalan: dunyoning yetti mo’jizalaridan biri piramidalarni olsak. Bu qadimiy mo’jiza obidani maktabning birinchi sinf o’quvchilari ham bilishadi, ko’rishga qiziqadi. Ana shu qiziqish o’sha maktab o’quvchisini ulg’ayganidan keyin piramidalarni ko’rishga chorlashi aniq.



1.3 rasm. **Qashqadaryodagi Amir Temur g’ori**

Turistik marshrutlar turizmni rivojlantirishning asoslaridan hisoblanishi turistning yoki turistlarning o’z hohishlari bilan ma’lum bir davlatdagi turistik obyektga yoki obyektlarni ko’rishga kelganligi va uni ko’rib ketishda albatta turistik marshrutdan foydalanganligi tushuniladi. Turistlar foydalaniladigan marshrut esa oldindan ishlab chiqilgan, turistik marshrutning xizmatlar ko’rsatish dasturlari ishlab chiqilgan bo’lishi kerak.

Har bir turistik obyektga turistlar kirishi ruxsat berilgandan keyin bu obyekt turizmga xizmat qila boshlaydi. Ba’zida va ko’p hollarda turizmda foydalanishga ruxsat berilgan turistik obyektlarga turistik marshrutning yo’qligi natijasida ushbu obyekt turizmda ishlamaydi. Masalan, vatanimizdagi Amir temir g’ori dunyoga mashhur g’orlardan hisoblanadi. Bu g’ordan ichki turizmda ham tashqi turizmda ham foydalanishga ruxsat berilgan. Lekin g’orga yetib borish va uning ichki

qismini tomosha qilishning turistik marshrutlari ishlab chiqilmaganligidan hozirda bu g’or turizmda ishlamaydi.

Turizmda jahonga tanilgan bu g’orni ko’rishga xalqaro miqyosda tarixchi- lar, geograflar va juda ko’plab ishqibozlar bor. Bu g’orga turistik marshrutning yo’qligining asosiy sababi turizmga befarqligimizdan bu g’orga yetib borish yo’lini tozalaganimiz yo’q. G’orning yaqiniga transport bilan yetib borish mumkin, lekin yaqinlashgandan keyin g’orga boradigan tog’ yo’li ochilmagan.

Xuddi shunday holat mamlakatimizda ekologik turizmni rivojlan- tirishdagi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Aniqrog’i shundan iboratki chet ellik turistlarning talablarini o’rganganimizda har 100 turistdan 60-65 tasi vatanimizdagi tabiat qo’riqxonalarini ko’rish istagini bildirishgan. Lekin,hozirgacha tabiat qo’riqxonalarimizdan turizmda foydalanishning huquqiy me’yorlari ishlab chiqilmagan. Shu sababli chet ellik turistlarning tabiat qo’riqxonalarimizdan foydalanishdagi taklif va talablari rad qilinmoqda. O’z–o’zidan ma’lum bo’ladiki, turistik firmalarimiz tabiat qo’riqxonalariga turistik marshrutlar ishlab chiqmaydi va turizm bozoriga ham chiqarmaydi.

Shu o’rinda yana bir muhim masalani ham afsus bilan ta’kidlash lozimki, mamlakatimizdagi tabiat qo’riqxonalariga va tabiat buyurtmaxonalariga o’zimizning fuqarolar ham qo’yilmaydi. Shuning uchun ham aholining tabiat qo’riqxonalarini bilishi ayniqsa, oliy ta’lim talabalarining qo’riqxonalarimizni bilishi o’ta darajalarda qoniqarsiz hisoblanadi. Bunday noxush holatlar albatta tuzatilishi lozim.

Xulosa qilganimizda, har qanday turistik obyekt turizmda foydalanishga ruxsat berilgan va ushbu turistik obyektga turistik marshrutlar ishlab chiqilgandan keyin ichki va xalqaro turizmda ishlay boshlashi mumkin.

Turistik marshrut birinchi navbatda turistik resurslarni o’rganishni talab qiladi. Endi respublikamizdagi tabiiy resurslar salohiyatiga kelsak turizm resurslari zahirasi va turli–tumanligi bo’yicha O’zbekiston jahondagi eng boy davlatlar qatorida turadi. Mamlakatimizdagi faqatgina tarixiy, madaniy, arxeologik

ahamiyatga ega bo’lgan obyektlar soni 4,0 mingdan oshadi. Ulardan 545 tasi me’moriy, 575 tasi tarixiy, 1457 tasi san’at, 550 tasi arxeologik obidalardir. Turizm obyektlari: Xivada–310 ta obyekt, Buxoroda –221 ta obyekt, Toshkent shahrida 144 ta, Samarqandda 118 ta, Jizzax viloyati da 372 ta obyektlar bor. Shuningdek, 9 ta tabiiy qo’riqxonalar, 10 ta buyurtmaxonalar va 3 ta milliy parklar, betakror tabiatimiz, tabiiy go’shalar, hayvonot va o’simlik olami ekologik turizmni rivojlantirishda juda katta turistik resurslar hisoblanadi. Ushbu turistik obyektlarda turistik oqim faqatgina turistik maarshrutlar yaratilgandan keyingina ko’payadi.

Qayd qilinganlardan xulosa shulkim, turizmni rivojlantirishning muhim asoslaridan biri turistik resurslarga marshrutlar ishlab chiqish hisoblanadi. Turistik marshrutlarni ishlab chiqishning turizm rivojiga ta’sirini nazariy jihatdan olib qaralganda yana bir imkoniyatga to’xtalish juda katta ahamiyat kasb etadi. Bu imkoniyatlar turizm obyektida va turizm marshruti davomida turistlarga xizmat qiladigan infratuzilmalarning hosil bo’lishidir. Turistik resursga–obyektga turistlar kelish boshlangandan mahalliy aholida turistlarga xizmatlar ko’rsatish istagi paydo bo’ladi, turistlarning nimalarga qiziqishini, ularning ehtiyojlarini o’rgana boshlaydi. Shu tariqa turistik obyektda va turistik marshrut bo’ylab o’ziga xos bo’lgan kichik–kichik turistik infratuzilmalar paydo bo’ladi.

Yaqin yillargacha Samarqand viloyatidagi Hazrati Dovud g’ori umuman e’tibordan chetda edi. Sobiq Sovet Ittifoqi vaqtida ziyoratchilar yashirin ziyoratga, sanoqli holda kelib -ketishar edi. Mustaqillik yillaridan boshlab din erkinligidan so’ng hozirda eng gavjum joylar-diniy ziyoratgohlardan biri hisoblanadi. Bunday ziyoratgohlarga sobiq ittifoqning barcha sobiq respublikalaridan ziyoratchilar kelib ketishadi. Hazrati Dovud g’origa kelib ketayotgan turistlarga xizmatlar qilish bilan g’or atrofidagi qishloq ahli to’liq shug’ullanishadi. Tuya, ot, eshakda sayr, oziq-ovqatlar, ichimlik suvi bilan ta’minlash va xizmatlar ko’rsatish orqali mahalliy aholining ko’p qismi yaxshi, yengil daromad topmoqdalar. G’or atrofida o’ziga xos

bo’lgan turizm infratuzilmalari o’zaro raqobat natijasida tobora kengayib, mukammallashib bormoqda.

Turizm marshrutlarini ishlab chiqishning turizm iqtisodiyotidagi o’rnini belgilaganimizda yoki belgilanishida eng muhimi shundan iboratki, birinchi navbatda ish o’rinlari hosil bo’ladi. Ish o’rinlarini tashkil qilish esa jahon mamlakatlaridagi eng og’ir masalalardan hisoblanishi ma’lum muammodir. Turizmdagi tadbirkorlar yoki mutaxassislar ko’p hollarda ichki turizm obyektlariga marshrutlar yo’qligidan ushbu turistik obyektga turistlarni taklif qilmaydilar va bu turistik obyektda turistlarga xizmatlar ko’rsatuvchi infratuzilmalarning yo’qligini sabab qilib ko’rsatadilar.

Yuqorida qayd qilingan payg’ambar Dovud g’oridagi infratuzilmalarni davlat tashkilotlari qurib bergan emas. Bu muqaddas g’orga turistlar qo’yilishi ruxsati berilganidan boshlab atrof mahalliy aholi infratuzilmalarni o’zlari yaratishdi. Ta’kidlanganidek, mahalliy aholining juda ko’pchiligi turistlarga xizmatlar ko’rsatishda kutilmagan, yangi ish o’rinlarini topishdi. Bu g’orga ichki va xalqaro turistlarning ko’payishi natijasida xizmat qiluvchilarning o’zaro raqobati mavjud infratuzilmalarning tobora yaxshilanib borayotganligi kuzatilmoqda. Bundan xulosa shulkim, mamlakatimizdagi barcha turistik resurslarga, turistik obyektlarga turistik marshrut ishlab chiqish va bu turistik marshrutlarni ichki va tashqi turizm bozoriga chiqarish turizmni rivojlantirishning eng muhim masalasi hisoblanadi.

Fikrimizcha mahalliy mehnat resurslarini ish o’rinlari bilan ta’minlashda turistik obyektga turistik marshrutlar ishlab chiqish juda katta ahamiyatga ega. Hozircha diniy ziyoratgoh turistik resurslardan turizm maqsadlarida foydalanish tobora rivojlanib bormoqda. Bu rivojlanish asosan shaharlar va tuman markazlaridagi diniy rahnomalar dafn qilingan joylarga mahalliy va xalqaro turistlarning tashrifi kuchayishi asosida yuz bermoqda.

Navbatdagi vazifa mahalliy tumanlardagi mashhur diniy rahnomalar, avliyolar, xo’jalar va sayidlar daxmalari, maqbaralariga turistik marshrutlar ishlab chiqishni kuchaytirish zarur. Tumanlardagi bunday makonlarda turistik

xizmatlarning yo’qligi yoki qoniqarsiz holatda ekanligidan mahalliy turizmni rivojlantirish dasturlari juda sust bajarilmoqda. Vaholanki,mahalliy aholini ish bilan ta’minlashda turistik marshrutlar yaratish, turizmni rivojlantirishda iqtisodiy jihatdan eng istiqbolli usullardan hisoblanadi.

Turistik marshrutlar yaratishning yana bir muhim tomoni shundaki, turistik marshrutda turistik oqimning kuchayishi ichki turizmda ham xalqaro turizmda ham ellar, xalqlar va millatlar o’rtasida tanishuv, do’stlashuv, o’zaro hamkorlik rishtalari hosil bo’ladi. Hozircha bunday do’stona aloqalar asosan shaharlar aholisi bilan chet elliklar o’rtasida yuz bermoqda. Bu holatning asosiy sabablari chet ellik turistlarni hanuzgacha shaharlarimizdan tashqaridagi tabiat mintaqalariga, landshaftlariga, qo’riqxonalari yoki suv havzalariga jalb qilaolmaganimizdadir.

Hozirgi ma’lumotlardan ma’lumki, O’zbekistonning 70 % hududlarini cho’l va adir mintaqasi egallaydi. Bu mintaqada hozircha 55 ta turistik resurs ro’yxatga olindi. Bu resurslar 14 ta alohida-alohida mavzularda ekanligi, bepoyon cho’l tabiati, cho’l xalqi hayoti, cho’lning o’simliklar olami va hayvonot dunyosidan mahalliy turizm va xalqaro turizmni rivojlantirishda foydalansak ishonch komilki, albatta dastlab turistik marshrutlar ishlab chiqishga to’g’ri keladi.

Yuqorida qayd qilganimizdek, bu turistik marshrutlar bo’ylab albatta xizmatlar ko’rsatish joylari, texnik servis xizmati, palatkali mavsumiy turistik lagerlar, ekzotik ekskursiyalar (tuyalarda, otlarda, eshaklarda, aravalarda) tashkil qilinadi. Milliy ovqatlanish shaxobchalari vujudga keladi. Tabiiyki, bu xizmatlarning barchasini mahalliy aholi bajaradi. Ikkinchidan, cho’l hududlari shaharlar va tumanlar markazidan uzoq bo’lganligi uchun turistlar albatta tunab qoladilar. Tunash uchun cho’l xalqining mashhur “qora uy”lari (kigizdan) taklif qilinsa har qanday turist (hatto mahalliy turistlar ham) o’zining qiziqishi (balkim, birinchi marotaba tunayotgandir) tufayli o’sha joyda kamida 1-2 kun qolib ketadi.

Xalqaro turist ham mahalliy turist ham ana shu 1-2 kunlik muddatda albatta mahalliy aholi vakillari bilan tanishishadi, do’stlashadi. Xalqimizning mehmondo’stligi, qiziqish va hokazo insoniylik xislatlari turistlarni jalb qiladi,

bordi–keldi, mamlakatlar o’rtasida axborotlar almashish va hokazo bog’lanishlar yuz berishi aniq. Bunday do’stona munosabatlarning vujudga kelishi, xalqlar haqidagi bilim, davlatlar haqida ma’lumotlar albatta insonda fikrning kengayishi, olamga boshqacha nazar solish hissiyotlarini hosil qiladi.

Qayd qilinganlardan xulosa qilish mumkinki, mamlakatimizdagi barcha turistik resurslarga turistik marshrutlarni ishlab chiqishni boshlash turizmni rivojlantirishda eng muhim iqtisodiy omil bo’lar ekan. Turistik resurslarga turistik marshrutlar ishlab chiqishning nazariy asoslarini o’rganish turizm resurslaridan foydalanishning davlat dasturini ham yaratishni kun tartibiga qo’yadi.

Turizm marshrutlarini ishlab chiqishning mamlakat hayotidagi o’rni, ahamiyatini belgilashda juda katta imkoniyatlar borligini hisobga olishimizni talab qilmoqda. Hozirgi turizm rivojida turizm xizmatlari infratuzilmalarini yaratish, mukammallashtirish masalalari ham dolzarb muammolar ro’yxatida turibdi.

Ko’p holllarda turizm tashkilotlari, turistik firmalar hattoki turizmni boshqarish tashkilotlari ham turistik resurslar, turistik obyektlarda dastlab turistlarga xizmat ko’rsatuvchi infratuzilmalarni yaratishni birinchi muammolar qatoriga qo’yadilar. Bu holatni ham albatta to’g’ri deb qabul qilish kerak. Lekin moliyaviy muammolarning kelib chiqishi natijasida qurilishga rejalashtirilgan infratuzilmalarni yaratish ancha muddatlarga kechikib ketadi.

Hali turizm maqsadlarida foydalanilmagan, lekin turistik resursdan bu turistik obyektlarga hyech ikkilanmasdan turistik marshrutlarni ishlab chiqish va turizm bozoriga chiqarish zarur. Xalqaro yoki ichki turizm maqsadlarida foydalanishning dolzarbligi yuzaga chiqqan holatlarda bunday turistik obyektlarga turistik marshrutlar orqali turistlarning tashrif buyurishi natijasida turistik obyekt atrofidagi mahalliy aholida kutilmagan holatlarda turizm infratuzilmalarini yaratish tadbirkorligi o’zi-o’zidan boshlanib ketadi. Chunki turistlarga mahalliy ishlab chiqarish mahsulotlarini sotish, mahalliy oziq-ovqatlarni sotish, hattoki, joylash tirish xizmatlarini sotish ehtiyojlari kelib chiqadi.

1.2.Turistik marshrutlar ishlab chiqishning tamoyillari

Ishlab chiqarishda g’oya va nazariyalarning shakllanishida ishlatiladigan prinsip so’zi asos, talab, negiz ma’nolarini anglatgani uchun davlat tilida tamoyil deb tarjima qilingan. Turistik marshrutlar ishlab chiqishning asosiy prinsiplarini (tamoyillarini) ana shu marshrutlar ishlab chiqishdagi birlamchi talablar, mezonlar deb qabul qilsak bo’ladi. Hozirgacha turistik marshrutlar ishlab chiqishning 7 ta tamoyili-talabi bor. Bu tamoyillarni turistik marshrut ishlab chiqishdagi asosiy talablar sifatida biror bir olim yoki turizm mutaxassisi taklif qilmagan. Balki, turistik marshrutlar ishlab chiqishdagi yo’l-yo’lakay kuzatuv, talab, amaliyot, o’y-fikr va takliflarni jamlagan mutaxassislarning umum xulosaviy, ijodiy qarashlaridir.

Turistik marshrutlar ishlab chiquvchi bu tamoyillarni qo’llaganida marshrutga kiritish obyektlari, shart-sharoitlar, turistlar yoki xizmat qiluvchilarning, mahalliy aholining takliflari yoki talablari bilan boyitib, mukammallashtirib borishi mumkin. Eng avvalo yaxshi anglab olish lozimki, turistik marshrut ishlab chiqish ma’lum bir nazariya yoki biror bir standart yoki qolipga bo’ysunmaydi. Turistik marshrutlarga bo’ysunadigan standartlar marshrutlarning texnik jihatlaridir.

Turistik marshrut ishlab chiqish bu-ma’lum turistik obyekt, resursga turistlarni jalb qilishdagi eng birinchi harakatdir. Shuning uchun ham marshrut ishlab chiqish–turni ishlab chiqish, ma’lum turistik obyektdan turizmda foydalanishni turlar ham o’ta darajada mukammal, har tomonlama qulaylik imkoniyatlariga ega bo’lgan marshrutlar asosida amalga oshirilishini talab qiladi.

Turistik marshrutning mukammal ishlab chiqilishi bu–turistning erkin harakat qilishini va turdagi xizmatlarga bo’lgan talablarini o’z vaqtida qondiradi.Hozirda turistik marshrutlar ishlab chiqishning tamoyillari yaratilganki, turizmda har qanday turistik marshrutlar ishlab chiqishda asosan ana shu tamoyillardan foydalaniladi. Bu tamoyillar quyidagicha nomlanadi (1.1-Chizma):

Turistik marshrutlar ishlab chiqishdagi birinchi talab qayd qilingan «tamoyillar»ni puxta bilish va o’z o’rnida, talabiga qarab qo’llash, ishlatish hisoblanadi. Turistik marshrutlar ishlab chiqishdagi tamoyillar alohida-alohida yoki majmuali holda qo’llanilishi mumkin.



1.2.1-rasm. **Turistik marshrutlar ishlab chiqishning asosiy tamoyillari**

Jozibadorlik, betakrorlik tamoyiliga e’tibor berish lozimki, ma’lum bir turistik obyektga, resursga turistik marshrut ishlab chiqishda turoperatorning birinchi navbatdagi asosiy vazifasi aynan ana shu turistik obyektning eng jozibador, betakror joyini, ko’rinishini aniqlashdir.

Turizmdagi barcha turistik obyektlarda jozibadorlik, betakrorlik mavjud. Bu jozibadorliksiz biron-bir turistik obyekt turistlarni o’ziga jalb qilaolmaydi. Jozibadorlik va betakrorlik deganda ma’lum bir xalqaro yoki mahalliy talab va standartlarning o’lchamlariga, darajalariga javob beradigan obyektning tarixiyligi, mo’jizaviy ko’rinishi va hokazolarni tushunishimiz kerak.

Shu nuqtai nazardan turistik obyektdagi jozibadorligi, betakrorlikni 4 darajaga bo’lishimiz mumkin:

- ❖ xalqaro miqyosdagi turistik obyektlardagi jozibadorlik va betakrorlik;
- ❖ davlatlardagi turistik resurslarning jozibadorligi va betakrorligi;
- ❖ tabiatning biologik xilma-xilligidagi jozibadorlik va betakrorlik;
- ❖ turistning hohishi bo’yicha turistik obyektda belgilanadigan jozibadorlik va betakrorlik.

Xalqaro miqyosdagi turistik obyektlardagi jozibadorlik va betakrorlik, mo’jizaviyligini, dunyo aholisi, bu obyektni bilishi tan olinadi. Bunday miqyosdagi jozibadorlik va betakrorlik asosiy hollarda mo’jiza deb nomlanadi. Dunyo miqyosidagi turistik obyektning mo’jiza deyilishi o’tmishdagi insoniyat bunyod etgan ulkan inshootlarning qay tartibda qurilganligi, ularda hozirgacha (koinotni o’zlashtirish davri) ko’plab ochilmagan sir-sinoatlarning mavjudligidir.


Buyuk Xitoy devori

Jahon miqyosidagi mo’jizalardagi jozibadorlik va betakrorlik aksariyat


Piramidalar


Eyfel minorasi

hollarda mo’jiza so’zi bilan ifodalanadi va bu jozibadorlik, betakrorlikni ko’rishga butun dunyo aholisi qiziqadi. Bu turistik obyektda bitta jozibadorlik, betakrorlik mavjud – uning qadimiyligi va ulug’vorligidir.

Masalan: Dunyoning yetti mo’jizasining birinchisi bo’lgan–Misr piramidalarini olsak qayd qilingan ulug’vorlik, qadimiylikni ko’ramiz. Yetti mo’jizadagi asosiy jozibadorlik, betakrorlik ularning o’ta darajada ulkanligi va qurilishi jihatidan hozirgi inson ahlini lol qoldirganidir. Shu o’rinda e’tibor berish kerakki, dunyoda yetti mo’jizadan ham mo’jizaliroq turistik obyektlar juda ko’p. Masalan, Buyuk Xitoy devori, Stounxedj tosh yodgorliklari, Nasxa cho’lidagi ulkan qush rasmlari, Hindiston va Tailanddagi tog’ ibodatxonalari va hakozolar. Mazkur tarixiy yodgorliklardagi jozibadorlik va betakrorlik, qadimiylik va inson ahlini lol qoldirgan qurilish san’atidir.

Davlatlarda joylashgan turistik obyektdagi jozibadorlik va betakrorlik. Jahonning barcha davlatlarida ham o’sha mamlakatda yashayotgan aholi uchun ham va boshqa mamlakatlarda yashayotgan aholilar uchun ham taniqli bo’lgan turistik resurs obyekt mavjud bo’ladi. Ko’p mamlakatlarda esa faqat shu mamlakat aholisiga tanish, e’zozli turistik obyekt bo’lishi mumkin.

Bu e’zozli turistik obyekt jahonshumul ahamiyatga ega bo’lmaganligidan boshqa davlatlardagi odamlar deyarli qiziqishmaydi, ular bu davlatga ushbu obyektni ko’rish uchun kelib-ketuvchi turistlar bo’la olishmaydi. Jahondagi ko’pgina davlatlarda esa sivilizasiya qadimdan rivojlanganligi uchun o’sha davlat aholisi uchun ham, boshqa davlatlardagi aholi uchun ham hatto jahonshumul ahamiyatga, qiziqishga molik turistik obyekt mavjud bo’ladi.

Bunday davlatlarga Yevropadagi ko’plab mamlakatlarni misol qilib keltirish mumkin. Masalan: Fransiya davlatida qadimiy, tarixiy obidalar ham, madaniyat markazlari ham juda ko’p. Lekin, faranglar xalqaro miqyosda o’zlarining Eyfel minorasi bilan faxrlanishadi.

Malayziya davlatida tarixda mashhur kishilar qurdirgan tarixiy obidalar ham juda ko’p. Lekin betakror tabiati (qirg’oqlarini okean suvlari o’rab turishi, jungli

o’rmonlari, rang-barang o’simliklar olami, turli-tuman hayvonot dunyosi va hakozolar) bilan jahon turizmida (rekreasiya turizmi, ekologik turizm) shuningdek, zamonaviy shaharsozlik, dunyoga tanilgan ulkan imoratlari, masjidlari bilan yangi-xalqaro turizm yo’nalishini rivojlantirmoqda.

Demak, Malayziya turizmidagi jozibadorlik, betakrorlik va ulug’vorlik ko’rinishlari, obyektlari, uning tabiatida va zamonaviy shaharsozlikdagi baland, mo’jizalar binolarida mujassamlashgan. Petronasning egizak binolari jahondagi eng baland va jozibador binolar hisoblanadi (balandligi 452 metr).



Toj Mahal. Arjumand bonu (Mumtoz Mahal)

Yana bir davlat Hindistonni olsak tabiati jihatidan ham tarixiy obidalari (ko’hna ibodatxonalar, tog’larni o’yib ishlangan tosh ibodatxonalar va h.k) jihatidan ham turistik resurslarga juda boy bo’lgan, mamlakat. Lekin, bu mamlakatga kelgan xalqaro turistlar deyarli birinchi navbatda sevgi-muhabbatdagi sadoqat timsoliga qurilgan Toj Mahal maqbarasini ko’rish va ziyorat qilish uchun kelishadi. Bu holatdan xulosa shulkim, Toj Mahal maqbarasi Hindistondek katta va qadimiy mamlakatdagi turistik resurslarning jozibadorligi va betakrorligida yorqin toj hisoblanadi.

Dunyoning davlatlarida joylashgan turistik obyektlaridagi jozibadorlik va betakrorlikni O’zbekistondagi turizm resurslarida tahlil qilganimizda ko’z o’ngimizda juda katta va turli-tuman mavzuli turizm resurslari va bu resurslarning har birida o’ziga xos va mos bo’lgan jozibadorlik va betakrorlik borligini ko’ramiz. Qisqa qilib aytganimizda To’maris, Spitamen, Zahiriddin Bobur, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Shayboniyxon, Temur Malik kabi jahonga mashhur

sarkardalar, sohibqironlar bizning vatanimizning farzandlari va ularning faoliyati, hayoti, ular qurdirgan Niliy gumbazli maqabaralar, madrasalar va boshqa tarixiy obidalardagi jozibadorlik, betakrorlik faqatgina O’zbekistonda bor.

Jahon sivilizasiyasining madaniyati, tabobati, astronomiyasi, matematikasi, geografiyasi, she’riyati, geologiyasining tamal toshini qo’ygan, jahonshumul maktablarni, dunyodagi dastlabki akademiyalarini (Ma’mun akademiyasi, Ulug’bek akademiyasi) tashkil qilgan Al-Beruniy, Ibn-Sino, Al-Xorazmiy, Ulug’bek, Al-Farg’oniy, Abu-Nasr Farobiy, Ali Qushchi, Alisher Navoiy, Abduraxmon Jomiy, Lutfiy kabi buyuk siymolar hayoti bilan bog’liq tarixiy obidalardagi jozibadorlik va betakrorlik faqatgina O’zbekistonda bor.

Islom olamining mukammal ta’limotini yaratgan, islom olamining buyuk daholari bo’lgan Ahmad Yassaviy, imom Termiziy, at-Termiziy, Motrudiy, Bahoviddin Naqshband, imom al Buxoriy, Maxdumi A’zam, Qusam ibn Abbos, Buxorolik yetti pirlar, Buxorolik chor Bakrlar, hazrati Doniyor payg’ambar, Dovud payg’ambar, Xo’ja Ahror Vali kabi aziz avliyolar va boshqa ko’plab ulug’ insonlar hayoti-faoliyati bilan bog’liq tarixiy obidalardagi o’ziga xos va o’ziga mos jozibadorlik va betakrorlik faqatgina O’zbekistonda bor.



Imom–al Buxoriy majmuasi

Tabiatimizda biologik xilma xil resurslar, to’rt ekologik tabiiy geografik mintaqaning va yerning tabiati, endemik turlar, iqlim, to’rt iqlimiy faslning ziynatidagi jozibadorlik va betakrorlik faqatgina O’zbekistonda bor.Turizmning rivojlantirishga bel bog’lagan ekanmiz, turizm resurslarimizdagi jozibadorlik va

betakrorlikni jahonga ko’z–ko’z qilishning faqatgina uddasidan chiqishimiz lozim bo’ladi.

Tabiatning biologik xilma–xilligidagi jozibadorlik va betakrorlik. Tabiatning biologik xilma–xilligidagi jozibadorlik va betakrorligi haqida gapirilganda qandaydir tortishuvlar, isbotlashuvlarga o’rin qoldirmaslik zarur. Lekin tabiat go’zalligi, uning betakrorligi haqida tortishuvlar, bu betakrorlikni ba’zi bir olimlar, o’zlarining o’rganish, ilmiy–tadqiqotlari mavzulari bo’yicha tushunadi va tabiatdagi betakrorlikni oldingi o’rinlarga chiqarishga harakat qilishadi. Biologik xilma-xillik deganda o’simliklar olami va hayvonot dunyosining o’zi emas, ular o’sadigan va yashaydigan tabiiy muhit ham tushunilmog’i kerak.

Turistning xohishi bo’yicha turistik obyektda belgilanadigan jozibadorlik va betakrorlik. Jahonshumul ahamiyatga ega bo’lgan turistik obyektlarga turizmdagi oqim ham katta bo’lishi o’z–o’zidan ma’lum. Masalan, Misrdagi piramidalar, Samarqanddagi Temuriylarning tarixiy, madaniy inshootlari, Hindistondagi Toj Mahal maqbarasi, Parijdagi Eyfel minorasi, Xitoydagi «Buyuk Xitoy devori», Rossiyadagi «Kreml» majmuasi, Angliyadagi «Stounxej» qoldiqlari va x.k.

Shu bilan birga halqaro turizmda ham, ichki turizmda ham alohida guruh turistlarning o’z qiziqish obyekti bo’ladi. Ko’p hollarda bunday turistlar yoki kasbiy faoliyati bo’yicha yoki tabiatdagi biron-bir o’simlikning o’sish tarzi yoki bir hayvonning yashash tarzining tabiatiga qiziqishi, aynan o’sha turni yaxshi ko’rishi, unga ana shu turning harakatlari yoki o’sishi, guli, bargi, yoki rangi, kichikligi yoki ulkan, kuchliligi yoki yirtqichligi ma’qul bo’ladi.

Lekin turist yoqtirgan o’simlik yoki hayvon turi o’zi yashayotgan mamlakatda yo’q bo’lganligi uchun u shu tur o’sadigan yoki yashaydigan boshqa mamlakat tabiatiga sayohatlar uyushtiradi. Masalan, cho’lning go’zal hayvonlari jayron va sayg’oqlar Markaziy Osiyo davlatlarining barchasida kamsonli bo’lsada saqlanib qolgan. Ana shu jayron va sayg’oqlarni ko’rish, yashash tarzini o’rganish va

boshqa davlatlar tabiatida yoki hayvonot bog’ida saqlash va ko’paytirishga qiziquvchilar, olimlar, tabiatshunoslar hozirda deyarli O’zbekistonga kelishadi (Buxoro viloyatidagi «Jayron» ekologik markazi). Bu yerda ularning faoliyati uchun barcha shart – sharoitlar yaratilgan.

So’nggi yillardagi kuzatishlardan ma’lum bo’lmoqdaki, yurtimizga keluvchi turistlar ichida qoyatoshlarimizdagi qadimiy tasvirlar, rasmlarga qiziquvchilar, ko’hna arxeologik qoldiqlarga qiziquvchilar soni ko’payib bormoqda. Shuning uchun ham Respublikamiz hududlaridagi tog’larda, daralarda qadimiy rasmlar, tasvirlar va yozuvlar tushirilgan qoyatoshlarni ro’yxatga va davlat nazoratiga olishimiz kechiktirilmay bajariladigan ish hisoblanadi. Yana bir misol keltirganimizda yovvoyi qo’ylar arxarlarni ko’rish uchun ham davlatimizga ko’plab turistlar kelishadi. Chunki, «Nurota» tog’–o’rmon qo’riqxonasining asosiy faoliyati Markaziy Osiyo uchun endemik hisoblangan «arxarlarni» saqlab qolish va ko’paytirishga qaratilgan.

E’tibor qiling, «Yovvoyi Afrika» va «Xalqaro geografiya jamiyat»ining yovvoyi yirtqich hayvonlar (sher, yo’lbars, qoplon, puma, leopard, pantera, giyena va h.k) hayoti haqidagi tabiatda olgan filmlarini hamma zo’r qiziqish bilan tomosha qilishadi. Shu bilan birga tomoshaning eng qiziq joyi yirtqich hayvonlarning ov qilishi va ovqatlanishi usullaridir. Ushbu filmlardagi betakrorlik aynan ana shu ov qilish ko’rinishlarining berilishidir. Agar ushbu filmlarda yirtqich hayvonlarning ov qilish ko’rinishi bo’lmasa film juda zerikarli va bir marotaba (yovvoyi hayvon bo’lganligidan) ko’rishga arziydi.Turizm marshrutlarini ishlab chiqishda shuning uchun ham insonni qiziqtiruvchi birorta obyekt (katta, kichik, mayda, ulkan, xaroba va boshq.) e’tibordan chetda qolmaslik lozim bo’ladi. Shu o’rinda yana takrorlaymizki, bugungi kunda e’tibordan chetdagi obyekt ertaga qiziqarli bo’lishi mumkin degan xulosa bilan turistik resurslarning barchasini ro’yxatga olib, hozirdan turistik resurslar katologini tuzishga kirishimiz lozim bo’ladi.

Turistik marshrut ishlab chiqishda imkoniyatlarning yaratilganligi tamoyili.Bu tamoyilda turistga turistik marshrut davomida turistik xizmatlardan foydalanishning eng qulay imkoniyatlari yaratilgan bo'lishi lozim.Bunday imkoniyatlar quyidagi xizmatlar ko'rsatishdagi imkoniyatlardir.

1.Transport xizmatlaridagi imkoniyatlarning dastlabki sharoiti turistlarga xizmat qiluvchi transport xillarining zamonaviy bo'lishligidadir. Marshrut boshlanganidan turist birinchi navbatda o'z yuklarini joylashtirish tashvishi bilan band bo'lishadi. Turoperator bu tashvishni doim nazarda tutishi lozim.

Transport xizmatlarini taklif qilishda albatta baland o'rindiqlarga ega bo'lgan avtobus yoki mikroavtobuslarni taklif qilish yaxshi natija beradi. Baland o'rindiqli avtobuslarda turist yo'l-yo'lakay ko'p narsani ko'radi. Ularning yuklariga kelganda eng yaxshi variant hozircha turist o'z yukini yonida olib o'tirishidir.Uning xotirjamligi ham shunday ta'minlanadi.

Turistlarga transport xizmatlari ko'rsatishda turist yukining (xaltasining) alohida joyda bo'lishi davri o'tdi deyishadi mutaxassislar. Transport xizmatlaridagi yana bir imkoniyat transport ichida ekologik toza ichimlik suvlarining bo'lishi, transport oynalarining ochilishi yoki yopili shi, radio, TV bo'lishi, turistning avtobus salonida erkin harakatlanishga sharoitning bo'lishidir.

2. Marshrutdagi ekskursiyalar vaqtidagi imkoniyatlar. Turistik marshrutlarning aksariyat qismida (ekologik turizm, arxeologik turizm, rekreasiya turizmi, tarixiy, diniy turizm va h.k turlarda) ekskursiyalar tashkil qilinadi. Ayniqsa, ekologik turizm marshrutlarida, rekreasiya turizmi marshrutlarida va turistik lagerlarda dam oluvchilar uchun turli mavzularda landshaftni ko'rish, tomosha qilish ekskursiyalari uyushtiriladi.

Ekskursiya vaqtidagi imkoniyatlarning birinchisi yurish yo'llari, so'qmoqlar, mahalliy ko'priklar, daralar yoki tog' bag'ridan chiqish, tushish, jarliklar ichidagi yurish yo'llari tekis, xavfsiz bo'lishidir. Tog' so'qmoqlaridan, jarliklar bo'ylab yurganda tovush, shovqin effektining halokatli bo'lishi albatta turistlarga tushuntiriladi.

Ekskursiya vaqtida turistlarga yana bir imkoniyat yaratish lozimki, zamonaviy turizmda zamonaviy xizmat deyiladigan–ya’ni ekskursiya davomida turistlarni dam olish tanaffusiga chorlash. Bu usulni ayniqsa tog’ va cho’llardagi ekologik turizm marshrutlaridagi ekskursiyalar vaqtida qo’llash turistning kayfiyatini ko’taradi. Bu usulda marshrut rahbari mahalliy aholidan ot, eshak yoki mahalliy arava olib turistlarning o’zini ham shu transport turlarida olib yurishi, agar turistlar piyoda yurishni hohlashsa ularning yukini, ichimlik suvini, qisqa muddatli ekzotik ovqatlanish mahsulotlarini va eng muhimi yig’ma stul va yig’ma karavotchalarni albatta birga ortib yurish kerak.

Marshrutdagi ekskursiyalarda bizning iqlimimizda xalqaro turistlar ham mahalliy turistlar ham yoz mavsumida tezda chanqab qolishi yoki tog’lar va xushhavoli tabiat bag’rida tezda och qilishi mumkin. Bunday vaqtlarda marshrutning yoki ekskursiyaning rahbari turistlarga soya-salqin joylarda yig’ma stul va yig’ma karavotlardan iborat dam olish joyini taklif qilishi mumkin. Bunday imkoniyatlardan foydalangan turist albatta yaxshi kayfiyatda bo’ladi. Marshrutdagi boshqa xil xizmatlarda ham imkoniyatlarning yaratilganlik tamoyilini qo’llash marshrutning muvaffaqiyatli o’tishini ta’minlaydi.

Turistik marshrut ishlab chiqishning mazmundorligi tamoyili.Bu tamoyildagi talablar ko’proq birinchi-jozibadorlikni tashkil qilish tamoyiliga o’xshab ketadi. Lekin jozibadorlikdan boshqa taassurotlar mazmundorliklarga e’tibor berilib ishlab chiqilgan turistik marshrut har qanday darajadagi turistlar uchun eng yaxshi turistik marshrut hisoblanadi.

Bu tamoyilda turistik marshrutlar ishlab chiqishda turistning oz vaqt davomida ko’p obyektlarni ko’rishi, bilib olishi yoki eshitish ta’minlangan bo’lishi kerak. Bunday imkoniyatlardan foydalangan turist turistik firmaning boshqa marshrutlariga ham buyurtma berishi mumkin. Masalan: turist Respublikamizning tabiiy hududlari, mintaqalaridagi ekoturizm resurslarini ko’rishni tanlaydi. Bu holatda turoperatorda xuddi ana shu turist tanlangan ekoturizm resursiga olib boradigan 2 ta turistik marshrut bo’lishi lozim.

Birinchi turistik marshrut–Ekoturizm resursiga–obyektiga to’g’ridan –to’g’ri boradi. Bu marshrutdagi jozibadorlik va betakrorlik ekologik turizm obyektining o’zida bo’ladi albatta. Obyektga to’g’ri borilganidan yo’l-yo’lakay turist ko’rgan mazmundorlik ham uzuq-yuluq bo’ladi, axborotlar kam, to’xtash deyarli yo’q va h.k. Albatta, bunday turistik marshrut turistga, ayniqsa xorijiy turistga unchalik ham xush kelmasligi mumkin.

Ikkinchi turistik marshrut–yo’l-yo’lakay, tarixiy madaniy, me’moriy obidalar, tabiatning rang-barangligi, ko’ngilochar o’yinlar, ko’rgazmalar, favvoralar, hayvonot bog’lari, agroturizm obyektlarining o’zgarib turishi, soylar, baland, haybatli qoyatoshlar yoki bepoyon kengliklarning yastanib yotganligi va bu yerda yashayotgan mahalliy xalqning yashash tarzi, urf-odatlari, jarliklar, daryo sohili va hokazolarga turistlar e’tiborini jalb qiladi. Agar turoperator yo’ldagi soylar yoki qandaydir tarixiy joylarning tarixdagi mashhur kishilarning hayoti bilan bog’liq (masalan, Temuriylar, Chingiziylar yoki Shayboniyxon, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik va boshq.) qiziq afsona va rivoyatlarni topib turistlarga qiziqarli usullarda, jonli ravishda aytib bersa marshrutdagi mazmundorlik yanada oshadi.

Agar turistik guruhda diniy yo’nalishlardagilari ko’pchilik bo’lsa albatta marshrut yo’lidagi diniy rahnamolar, shayxlar, avliyolar, sayyidlar va eshonlarning qabrlari, ular yaratgan obidalar, ular yashagan joylardan o’tishi maqsadga muvofiq bo’ladi. Qayd qilinganlardan ma’lum bo’ladiki, ikkinchi turistik marshrutda jozibadorlik, betakrorlik va ayniqsa mazmundorlik manbalari keng qo’llanilgan.

Albatta, birinchi turistik marshrutning bahosiga nisbatan ikkinchi turistik marshrutning bahosi ancha baland bo’ladi. Chet ellik turistlar turistik marshrut davomida mazmundor obyektlarini ko’rish, yaxshi dam olish uchun mablag’ xarajat qilishdan tortinmasliklari xalqaro turizm rivojidagi tahlillardan ma’lum.

Turistik marshrutlar ishlab chiqishdagi faoliyatlilik tamoyili. Bu tamoyilda bir turistik marshrutdan yil davomida foydalanish tushuniladi. Lekin mavsumlar o’zgarishi bilan ushbu turistik marshrutdagi xizmatlarning turlari biroz

murakkablashishi yoki yengillanishi mumkin. Masalan, tog’ daralariga, soylarga, buloq va daryolarga, rekreasiya obyektlariga turistik marshrut yozda uyushtirilsa, xuddi shu marshrutdan qish mavsumida tog’larda chang’i sportini tashkil qilishda, soylar va daryolar bo’yicha ovchilik marshrutlarini tashkil qilishda foydalanish mumkin. Qisqasi turistik marshrut harakatdan to’xtamaydi.

Turistik marshrutlarning faoliyatlilik tamoyilida faqat transport xillari va marshrutdagi xizmatlar biroz o’zgaradi. Masalan, qishning sovuq havo sharoitida ham erkin yuruvchi, saloni isitiladigan maxsus avtomashinalar kuzgi-qishki marshrutlarda xizmatga olinadi. Kuzgi-qishki marshrutlarga turistlarni taklif qilganda turistlarning hayoti xavfsizligi bilan bog’liq masalalarga juda e’tiborli bo’lish talab etiladi.

Turistik marshrutlar ishlab chiqishdagi ko’p qirralik, (variantlilik) tamoyili. Bu tamoyil bo’yicha ma’lum bir tur uchun ishlab chiqilgan marshrutning bir necha variantlari oldindan tayyorlanib qo’yiladi. Masalan, ob-havo o’zgargan hollarda turistik marshrutdagi xizmatlar ham o’zgaradi. Ayniqsa turistik marshrutdagi ekskursiyalarni o’tkazish qiyinlashadi (masalan, yomg’ir yog’ayotgan vaqtda). Bunday vaziyatlarda ekskursiyaga ajratilgan vaqtni samarali o’tkazish tadbirlari ishlab chiqish zarur bo’ladi va marshrut dasturiga kiritiladi. Endi bu marshrut o’zgartirilgan marshrut hisoblanadi.

Ma’lum bir tur uchun marshrutning o’zgartirilgan variantlari turistlar soni o’zgarganda ham ishlab chiqiladi. Chunki, bu holatda ham oldingi marshrutdagi hajm o’zgarib ketadi (masalan transport soniga, ovqatlantirishga, ekskursiyaga buyurtmalar). Shu o’rinda turistlarning (ma’lum bir guruhi) jismoniy tayyorgarligi, yoshi bilan bog’liq holatlarida ham marshrutning yangi variantlari ishlab chiqilgan bo’lishi lozim.

Turistik marshrutlar ishlab chiqishdagi qulaylik tamoyili.Bu tamoyildagi talablar shundan iboratki, marshrutdagi barcha xizmatlarni turistga taklif qilishda birinchi navbatda komfortga, qulaylilikga e’tibor berish kerak bo’ladi. Bu qulayliklar haqida turistik marshrutning oldingi tamoyillarida batafsil to’xtaldi.

Turistik marshrut ishlab chiqishning axborotlanganlik tamoyili. Turistik marshrut haqidagi barcha ma’lumotlar–broshyura, bukletlar, ma’lumotlar, gazeta, radio, TV, aloqa vositalari marshrut ish boshlaganidan oldin tayyor bo’lishi lozim. Turist marshrutda nimani ko’radi, nimalar haqida ma’lumotlar eshitadi, qanday yuradi, transport turlari, dam olish, ovqatlanish tartibi, ko’ngil ochar o’yinlar turi, ekskursiyalar, uchrashuvlar va h.k.larga javob bo’lishi kerak. Axborotlanganlik tamoyili turizmdagi barcha turistik resurslarga ishlab chiqiladigan turistik marshrutlarda qo’llanilishi shart.

Qayd qilingan tamoyillar turistik marshrutlar ishlab chiqishning asoslarini, ko’rsatmalarini, yo’l-yo’riqlarini tashkil qiladi. Ma’lum bo’ladiki, turistik marshrutlar ishlab chiqish ancha murakkab jarayon bo’lib, turistik xizmatlarni amalga oshirishda yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilishni talab qiladi.Shuningdek, turistik marshrutdagi xizmatlarni bajaruvchilar ham tillarni biladigan, zimmalariga olgan vazifalarni sidqidildan bajaruvchilar bo’lishlari kerak.

1.3. Turistik marshrutlarni ishlab chiqish usullari

Turistik marshrutlarni ishlab chiqishda turli uslubiy yondashishlarni hisobga olish talab qilinadi. Turizm sohasi dastlabki rivojlanish davrida turistik marshrutlar ham, turistik ekskursiya marshrutlari ham asosan og’zaki tashkil qilinadi va aniqrog’i og’zaki dasturga asoslanib o’tkazilaveradi. Bunday holatlarda turist o’zi ko’rishni, borishni istagan turistik obyektni tavsiya qiladi va unga ko’rsatiladigan xizmatlarning barchasi rejalashtirilgan og’zaki dasturlar bo’yicha amalga oshiriladi.

Turizm rivojlana borgan sari turistlarga bunday usullarda xizmatlar ko’rsatish samara bermay qoladi. Chunki, birinchidan, turistlar oqimining ko’payishi, ikkinchidan, barcha turistlarga og’zaki xizmatlar ko’rsatishga vaqt yetishmaydi.

Uchinchidan, zamonaviy vaqt talabi bo’yicha hozirda juda ko’plab turistlar o’zi qiziqgan turistik obyektlarga oldindan buyurtmalar berishga odatlangan.

Shuning uchun ham mamlakatimizda turistlarga og’zaki va’dalar berish va og’zaki usullarda turistik marshrutlar xizmatlarini ko’rsatish davri tugadi. Odatlanganimizdek, hozircha ichki turistlarga og’zaki turistik marshrutlar xizmatlarini ko’rsatishimiz mumkin. Chunki, ichki turistlar shu sharoitlarga hozircha o’rganishgan.Hozirgi zamonaviy turizmda, ayniqsa xalqaro turistlarga mukammal rejali, dasturli turistik marshrutlarni ishlab chiqishimiz talab qilinmoqda.

Umumiy qilib olganda turistik marshrutlarni ishlab chiqish 3 usulda amalga oshiriladi. Bu usullarning barchasida turistik marshrutlar ishlab chiqish faqat bir tizim talablari asosida amalga oshiriladi. Aniqrog’i, turistik marshrutlar ishlab chiqish texnologiyasi bir usulda mavzulari turlarning talablariga rioya qiladi (1.3.1-rasm).



1.3.1.-rasm. **Turistik marshrutlar ishlab chiqish usullari**

Mavzuli usul. Turistik marshrutlarni ishlab chiqishda eng ko’p qo’llaniladigan usul mavzuli usul hisoblanadi. Turistik resurslarning barchasi ma’lum bir tizimda (sistemada) turganligidan, aniqrog’i nomlanishi bo’yicha turlarga ajratilgan. Masalan: ekologik turizm, diniy-ziyoratgoh turizm, sport turizmi va h.k. Qayd qilingan nomlanishlardan ma’lum bo’ladiki, ekologik turizm marshrutlari tabiat landshaftlari va uning biologik resurslari bilan bog’liq. Shuning

uchun ham ekologik turizm marshrutlarining barchasi tabiat resurslari va uning turlari nomi bilan ataladi. Masalan, «Tabiat qo'riqxonasining hayvonot olami», «Tabiat qo'riqxonasining o'simliklar dunyosi». Bu mavzulardagi turistik marshrutlarni qo'riqxonadagi ushbu turistik obyektlarga qiziqgan turistlarning o'zlari tanlashadi.

Ekologik turizm marshrutlari alohida tabiiy landshaftlarga ham ishlab chiqilishi mumkin. Shuningdek, ekologik-rekresiya mavzusida ham majmuali holatda ishlab chiqilishi mumkin. Masalan, qo'riqxonalarda ishlab chiqilgan turistik mashrutlarni ekologik turizmning majmuali marshrutlari deb atasa to'g'ri bo'ladi. Chunki, qo'riqxonada turist tabiatni va uning biologik xilma-xilligini majmuali holda (o'simliklar, hayvonlar, qushlar, soylar, daralar, o'rmonlar, suv havzalari va h.k) tomosha qilishadi, dam oladi-rekreasiya. Shuning uchun ham turizm marshrutlar ishlab chiqish asosiy holatlarda turistik resurs nomi bilan nomlanadi.

Majmuali usulda turizm marshrutlar ishlab chiqilganda marshrut nomi bir mavzuda bo'lishi ham yoki ikki, ayrim hollarda uchta mavzuda bo'lishi ham mumkin. Masalan: tarixiy–diniy ziyoratgoh turizmi marshrutlari; tarixiy – rekreasion–sport turizmi marshrutlari. Bunday majmuali turizm marshrutlarni ishlab chiqish ko'pincha xalqaro turistlarning talab va istaklari asosida amalga oshiriladi.

Majmuali turizm marshrutlar aksariyat hollarda uzoq masoflardagi turistik makonga–obyektga turistlar tashrif qilinganda ishlab chiqiladi. Masalan: ekoturizm resurslari shaharlar va tumanlar markazlaridan ancha uzoqda cho'l yoki tog' mintaqalarida joylashgan. Tabiiy holatki, bunday resurslarga birdaniga yetib borish turistni charchatadi va zeriktiradi. Shuning uchun ham majmuali marshrutlarni ishlab chiqilganda turistni qiziqtirgan so'nggi (oxirgi) turistik resursga borishdagi yo'l-yo'lakay barcha turizm resurslariga ekskursiyalar uyushtirish, so'lim joylarda dam olish, tunashni tashkil qilish, eng muhimi, marshrut atrofidagi diqqatga

sazovor joylar, qadimiy maskanlar, tarixiy–madaniy obidalar ham marshrutga kiritiladi.

Bunday majmuali turistik marshrutlar guruhlar uchun ham alohida turist (buyurtma) uchun ham ishlab chiqilishi mumkin. Ba’zi bir hollarda kasbiy faoliyat tufayli kelgan turist turistik resurslarning tarixi bilan qiziqishi mumkin. Masalan, ekologik turizmdagi hayvonot olami bilan qo’riqxonada tanishgan turist uning yashash tarzi, areali, biologiyasi bilan qiziqib qolganda turistik marshrut tuzuvchi mazkur hayvonot turlari bo’yicha ishlaydigan ilmiy markazlar, universitetlar va tajriba markazlari va bu markazlarda ishlaydigan olimlar bilan uchrashuvlarni tashkil qilishni ham marshrut dasturiga kiritadi. Ana shu tariqa bir mavzuli turistik marshrutlar ko’p mavzuli yoki majmuali mavzuli turistik marshrutlarga aylanib boradi.

Kartografik (xaritali) usulda turistik marshrutlar asosan uzoq masofalarga mo’ljallanganligi uchun harakatlanish marshrut o’tadigan joylardan xaritadan foydalanib ishlab chiqiladi. Turistik marshrutni o’tkazish davomida ham xaritadan foydalaniladi. Xarita bilan amalga oshiriladigan turistik marshrutlarda marshrutda dam olinadigan aholi joylari yoki shaharlarda dam olish yoki ovqatlantirish, tunash xizmatlarining darajalari oldindan belgilangan bo’lishi kerak.

Eng muhimi shundan iboratki, turoperator ushbu marshrutning yo’li holatini oldindan yaxshi bilishi, o’rganishi lozim bo’ladi. Chunki, mamlakatimizda qishki va bahorgi mavsumlardagi suv toshqinlari, sel hodisalari ba’zi hollarda ko’priklarni, yo’llarni yuvib ketishi hollari uchraydi. Bu holatlardan xabarsiz bo’lish natijasida uzoq masofali marshrut buzilishi mumkin. Bu usulda sarguzasht turizmi, suv havzalaridagi sayohat, g’orshunoslik turizmi, tabiiy mintaqalarga, tog’larga turistik marshrutlar ishlab chiqiladi. Kartografik usulda turistik marshrut ko’p hollarda arxeologik yoki paleontologik sayohatlarni tashkillashtirishda ham juda qo’l keladi.

Tajribali va bilimli turoperator o’zi ishlab chiqgan barcha(uzoq va yaqin turistik resursga, obyektga) turistik marshrutning xarita-sxemasini qo’yishi

turistlarda qiziqish hosil qiladi. Ayniqsa, xarita-sxemada asosiy turistik obyektga borishdagi yo'l-yo'lakay uchraydigan obyektlar (marshrutdagi ekskursiya obyektlari) shartli belgilar va izohlar bilan qo'yilganda marshrut davomidagi savollar kamayadi.

Turistik marshrutlarni tarixiy va diniy ziyoratgoh turizmi jihatidan ta'riflashda bu ikkala turning biri–biri bilan bog'langanligi hisobga olinadi. Aslini olganda ham bu ikkala turni ajratib bo'lmaydi. Bu holat ko'p hollarda turistning talabi bilan bog'liq bo'ladi. Aniqrog'i xalqaro turistlar biror joydagi diniy ziyoratgohlar, diniy rahnamolar daxmalarini ziyorat qilganda uning faoliyati, tarixi bilan ham qiziqishadi. Ba'zi turistik marshrutlarda nomoz amallarini bajarish sharoitlarini talab qilib qolishi mumkin. Bunday hollarda marshrutda qatnashuvchi gid-tarjimon tarixiy jihatdan kuchli bilimga ega va talab qilingan sharoitlarni tezkor usulda yaratish tajribalariga ega bo'lishi talab etiladi. Mahalliy turizm sayyohlari esa aksariyat hollarda faqat ziyoratni ijro etishib uning tarixi bilan qiziqmaydi.

Tarixiy va diniy turizm marshrutlarini ishlab chiqishdagi tayyorlangan buklet, marshrut dasturida diniy ziyoratgoh maskani va bu maskanning yuzaga kelishidagi tarixiy davrlar haqida juda qiziqarli, qisqa-qisqa ma'lumotlar albatta turistni qiziqtiradi.

E'tibor qilsak, har qanday turistik resursning o'ziga xos tarixi mavjud bo'ladi. Turizmdagi barcha turlarga turistik marshrutlar ishlab chiqqanda turoperator bu savolga albatta marshrutda javob topishi lozim bo'ladi. Shuning uchun ham turistik marshrutlar mavzusini nomlash, belgilash asosan turistik resurs-makon nomi bilan ataladi. Masalan, Registon ansambli, Shohizinda yoki Amir Temur daxmasiga ishlab chiqilgan marshrutlar ana shu tarixiy obidalar nomi bilan atalishi hammaga ayon albatta. Bu marshrutlarda ba'zi turistlar (asosan islom dinidagi) birinchi navbatda ziyorat bilan shug'ullanishadi va qur'on oyatlaridan duolar o'qishadi. Keyinchalik esa bu ziyoratgoh tarixi bilan qiziqishi mumkin. Ikkinchi xil turistlar (islom diniga e'tiqod qilmagan) dastlab ushbu turistik makonni tomosha qilishadi va keyin uning tarixi bilan qiziqishadi.

Qayd qilinganlardan xulosa qilish mumkinki, turistik marshrutlarning deyarli barchasi turning mavzulari bilan nomlanadi tarixiy obidalar, ziyoratgoh joylar hamisha, deyarli bir mavzuli turistik marshrutlarning mazmunini tashkil qiladi.

Turistik marshrutlarni rekreasiya va ekologik turizm talablari asosida ishlab chiqilganda ham bu ikkala turning biri-biri bilan chambarchas bog'liq ekanligini hisobga olishi kerak. Ekologik turizm resurslari bu-tabiatning betakror ko'rinishlari, biologik xilma-xillik, biologik resurslar, tabiiy mintqalarning o'ziga xos iqlim sharoitlariga qiziqish hisoblanishi turizm sohasidagi mutaxassisliklarga ham, ekoturizmga qiziquvchilarga ham ma'lum turistik tur hisoblanadi.

Rekreasiya turizmi (rekreasiya–dam olish,tiklanish) esa tabiatning o'ziga xos mikroiqlimiga ega bo'lgan so'lim go'shalarida (buloqlar, shifobaxsh suvli buloqlar, dorivor xususiyati bo'lgan daraxtzorlar, soylar, daralar va hokazo) turistlarning dam olishi hisoblanadi. Rekreasion turizm va ekologik turizm alohida–alohida turlar hisoblanadi. Lekin e'tibor berish lozimki, rekreasion turizm resurslarining asosiy qismi tabiat landshaftlarida joylashgan (tog'larda, tabiat mintaqalarida, suv havzalarida, daryolarning sohillarida va hakozo.).

Ekskursiya turizmi marshrutlarini ishlab chiqishda albatta ekologik turizm marshrutlaridagi talablar qo'yiladi. Aniqrog'i, rekreasiya turizmi marshrutlarini ekologik turizm marshrutlari deb atash ham to'g'ri bo'ladi. Chunki, dam olish maskaniga turist faqatgina tabiat resurslari orqali yetib boradi va dam olish vaqtida ham albatta atrof tabiiy muhitni ko'rish uchun kunlik ekskursiyalarga chiqadi.

Qayd qilinganlarni hisobga olsak, turistik resursga turizm marshrutlarini ishlab chiqishda turistik resursdan majmuali foydalanish tomonlarini ham hisobga olish to'g'ri yondashish bo'ladi. Eng muhimi shundaki, turistik marshrut dasturi marshrut atrofidagi barcha qiziqtiruvchi obyektlarni qamrab olishi lozim. Turistik marshrutda turistni qiziqtiruvchi, uni to'xtatib tomosha qildiruvchi resurslari qanchalik ko'p bo'lsa ushbu marshrutga talab ham ko'payadi, turistik oqim hajmi oshadi.

1.4.Turizmning maxsus turlari uchun marshrutlar ishlab chiqish

Turizmning turlari haqida mulohazalar, fikrlar bildirilganda ishning kirish qismida qayd qilganimizdek Rossiyalik turizm mutaxassislarining fikrlari to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinib berilayapti. Turizmdagi turlarni tasniflashdagi chalkashliklar ham turizmdagi turlarga, turistlar sonini, harakatlanishini, xizmatlar turini ham aralashtirish, turizmdagi haqiqiy turlar xilini aniqlashni ham qiyinlashtiradi, haqiqiy turlarning qaysilari muhimrog'u, qaysi turlar o'z salohiyati bo'yicha keyinroq turadi, ajratish mushkullashadi.

Talabalardan turizmning turlarini sanab bering degan savolga talaba - ichki turizm, xalqaro turizm, kiruvchi turizm, chiquvchi turizm, avtoturizm deb keyinchalik ziyoratgoh turizmi, ekologik turizm, sport turizmi deb davom etadi. Javobdan malum bo'ladiki, talaba turizmning turlarini statistika uchun kerak bo'ladigan turistlar oqimini hisobga oladigan ichki, xalqaro, kirish va chiqish turistlar harakatiga qo'shib yubormoqda. Ichki, xalqaro, kirish va chiqish turizmi deganda turistlarning sonini hisobga olish va o'sish yoki kamayishga qarab rejalashtirish ishlarini amalga oshirish tushuniladi. Bu ko'rsatkichlar turizmdagi tur emas balki, turizmning alohida-alohida sohalari hisoblanadi. Turizmdagi tur turistning malum bir qiziqish obyekti - turistik resurs–makonni anglatadi.

Turizm rivojlangan mamlakatlarda qaysi turlar asosiy deb ro'yxatga olingan va qaysi belgilar asosida turni darajalarga bo'lganligini bilma ganimiz pand bermoqda. Aleksandrova A.Yu. (2008) ma'lumotlari bo'yicha turizmdagi maxsus (asosiy)turlar qo'yidagilardan iborat:

1. Shahar turizmi.
2. Ishchanlik turizmi.
3. Qishloq turizmi.
4. Ekologik turizm.
5. Sport turizmi.
6. Ziyoratgoh turizmi.

Yuqoridagi turizm turlarida maxsus yoki asosiy deb ajratish xususiyatlarini topish qiyin. Ekologik, ziyoratgoh va sport turizmlari jahondagi barcha mamlakatlarda eng katta turistlar oqimini tashkil qiladigan turlar hisoblanadi. Golf, dayv turizmi va ekstremal turizm turlarini diniy, tarixiy, ekologik va sport turizmi turlariga tenglashtirib bo'lmaydi. Chunki bu turizm turlari dunyoda unchalik ham ommaviylashmagan va juda ko'plab mamlakatlarda deyarli tashkil ham qilinmagan. Demak, Rossiya davlati turizmida turizmdagi turlar asosiy yoki maxsus degan darajalarga ajratilgan emas.



1.4.1.-rasm. **Turning sxemasi**

Yangi ma'ruza matnlarida, uslubiy qo'llanmalarda mualliflar rossiyalik turizm mutaxassislari, professor-o'qituvchilari nashr qilgan darslik, qo'llanma lardagi turizm atamalarini keltirishi to'g'ri albatta. Lekin, O'zbekiston turizmi uchun o'ziga xos bo'lgan, qulay, milliy turizm atamalari haqida ayniqsa turizmning turlari va resurslari haqida yagona fikrlarni, atamalar ni talabalarga yetkazish va tushuntirishga kelishib olish juda zarur.

Turizmning haqiqiy mohiyati, bu sohaning rivojlanish manbai, o'zagi, yadrosi turistik resurslar va bu turistik resurslardan foydalanishda aniq mavzuli, resurs mazmunini, mohiyatini anglatadigan turni ishlab chiqish hisoblanadi. Tur nomi esa birinchidan, turistik resursning, (obyektning) mohiyati mazmunidan (masalan, diniy ziyoratgoh turizmi va h.k) ikkinchidan, turistning hohishi, qiziqishidan

(masalan, sport turizmi, sog'lomlashtirish turizmi, dam olish turizmi, kasbiy faoliyat turizmi va h.k) kelib chiqadi.

Shuningdek, turizmning shakllarini ham, sohalarini ham turizmdagi turlarga aralashtirish, qo'shish butunlay noto'g'ri xulosalarni keltirib chiqaradiki, bunday holatga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi.

Tur–turist uchun ma'lum marshrutda, ma'lum turistik obyektga, ma'lum muddatda taqdim etiladigan, turli xizmatlar (joylashtirish, ovqatlantirish, transport xizmati, maishiy, turistik ekskursiya va boshqa) to'plamidir (BTT-Butunjahon turizm tashkiloti).

Butunjahon turizm tashkiloti (BTT)–turizmning beshta turini istiqbolli yo'nalish deb e'lon qilgan.

1. Sarguzasht turizmi.
2. Dengiz va suv havzalari bo'ylab sayohat turizmi.
3. Madaniyatni o'rganish turizmi.
   a) diniy ziyoratgoh turizmi.
   b) Madaniy-tarixiy turizm.
4. Ekoturizm.
5. Mavzuli turizm.
   a) iqlimni o'rganish.
   b) hayvonot olamini o'rganish.
   v) o'simlik dunyosini o'rganish.
   g) paleontologiyani o'rganish.



1.4.2.-rasm. **Turizmning sohalari**

Turizmning sohalari deyilganda xalqaro statistikada sayohatlarning yo'nalishlari bo'yicha qo'yidagi sohalarni ajratish mumkin (1.4.2-Chizma).

1. **Ichki turizm**– o'z davlati chegarasida sayohat. Ekspertlar xulosasiga ko'ra sayyoh 80-100 km dan oshgan masofaga sayohat qilsa, turizm sayyohi deyiladi.

2. **Kirish turizmi** - O'zbekistonga boshqa davlatlardan turistlarning kelishi.

3. **Chiqish turizmi**–agar o'zbekistonlik Malayziyaga sayohat qilsa, chiqish turizmi (turist) bo'ladi. Malayziyaga borgandan keyin, u turist Malayziya uchun kirish turizmiga kiradi.

4. **Milliy turizm**–ichki va chiqish turizm shakllarini birlashtiradi.

5. **Xalqaro turizm** – kirish va chiqish turizmlaridan tashkil topadi.

Hozirga kelib Butunjahon turizm tashkilotining yuqorida qayd qilingan shakllarini turizmni rivojlantirayotgan davlatlar o'z davlatlarida *turizmni rivojlantirish sohalari* deb qabul qilishgan. Shuning uchun ham rossiyalik mutaxassislar adabiyotidagi tasniflardan foydalanib O'zbekistonda turizmning qaysi turlarini asosiy deb va bu turlarning qanday rivojlantirish istiqbollari borligiga to'xtalish fikrimizcha to'g'ri bo'ladi.

Umuman olganda turizmning turlarini belgilashda O'zbekiston uchun qulay bo'lgan usulni qo'llashimizni hyech kim taqiqlamaydi. Respublikamizda turizmni rivojlantirishga jadal kirishilayotgan ekan, turizmdagi turlarni salohiyatiga qarab, ularga keladigan turistik oqimlarga qarab ma'lum bir guruhlarga ajratishimiz mumkin.

Turistik resurslar salohiyatiga qarab Respublikamizda turizmdagi quyidagi asosiy turlarni rivojlantirish(dastlabki davrda) mumkin va bu turlarni **asosiy turlar** deb qabul qilish lozim (1.4.3-Chizma).

Diniy turizm–Islom dini olamidagi mashhur kishilarning qabrlarini ziyorat qilish, Makka va Madinaga haj va umra safarlari, Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent shaharlariga kelib masjidlarda «juma» namozlarini o'qish. Shuningdek,

ushbu shaharlardagi muqaddas qadamjolar bo'lgan-Imom-al-Buxoriy, Buxorolik pirlar, Xo'ja Ahror Vali, Ruxobod majmualarida nomoz amallarini bajarish.



1.4.3-rasm. **O'zbekiston Respublikasidagi turizmning asosiy turlari**

Tarixiy obidalar turizmi-Buxoro, Xiva, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent shaharlaridagi va Respublikamiz tumanlaridagi tarixiy obidalarni ko'rishga qiziqish.

Ekologik turizm **-** Vatanimizning go'zal tabiat mintaqalariga, betakror tabiat go'shalariga, noyob o'simliklar olami va hayvonot dunyosiga, 4 faslning iqlimiy xususiyatlarini ko'rishga qiziqish.

Arxeologik turizm-Samarqand, Buxoro, Xorazm, Termiz, Toshkent shaharlarining qoldiqlari, qadimiy qalalar xarobalari, ko'hna qadimiy Markaziy Osiyo xalqlari hayoti haqidagi arxeologik topilmalariga qiziqish.

Sport turizmi-Xalqimizning hozirda jahon bo'yicha ommaviylashib borayotgan milliy kurash, tennis, futbol, chang'i sporti, boks, olimpiada, milliy va xalqaro sport va boshqa spot-bellashuv musobaqalariga qiziqish.

Sog'lomlashtirish turizmi-Vatanimizning sog'lomlashtirish markazlarida, kurort va sanatoriyalarida, mineral, shifobaxsh suvlari maskanlarida, shifobaxsh qum-balchiqlarida, ma'danli suvlari manzillarida davolanishga qiziqish.

Rekreasion turizm-Tabiat bag'ridagi mo'jizakor go'shalarda, tog' o'rmonlaridagi shifobaxsh daraxtlar ichida,tabiiy sharsharalar,zilol buloqlar yonida vaqtinchalik dam olishga qiziqish.

Ovchilik turizmi-Respublikamizda ov qilishning huquqiy-qonuniy me'yorlari yaratilganligi, ovchilik maydonlarining katta hududlarni egallashi, ovchilik obyektlarining aniqligi, ovda harakatlanishning erkinligidan qurol va qurolsiz ovchilikka qiziqish.

Kasbiy faoliyat turizmi-kasbiy faoliyat yuzasidan chet davlatlarga borishga, chet elliklarning respublikamizga kelishiga, tijoratchilar, tadbirkorlar, savdogarlar, qo'shma korxonalar tuzuvchilarning mamlakatlardagi o'z kasbi faoliyati doirasida malakalar oshirish, mahsulotlar, asbob-uskunalar va zamonaviy texnologiyalarni sotib olishga yoki tanishishga qiziqish.

Ilmiy turizm-Vatanimizda va xorijda talim olish, xalqaro ilmiy markazlarda o'qish, xalqaro yirik Universitetlarda ilmiy-amaliy malakalarini oshirish, xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar, simpoziumlarga qatnashish, xalqaro ilmiy grant loyihalarni bajarishga, magistratura, aspirantura va doktoranturani xorij mamlakatlarda, vatanimizda o'tkazishga qiziqish.

Savdo turizmi **-** Vatanimizda va xorijda faqat savdogarchilik masalalariga, mol olib kelish va olib ketish, ayriboshlash, savdo markazlari ochish, narx-navo o'zgarishiga, valyutalar bahosiga, yangi bozorlarga, xaridor talab mollar savdosiga qiziqish.

Ijtimoiy turizm–Davlat tomonidan yoki shaxs ishlab turgan korxona hisobidan sayohatga chiqish, sog'lomlashtirish, dam olish maskanlariga, kurort va

sanatoriyalarga borishga qiziqish. O’zbekistonda bunday imtiyozlarni O’zbekiston kasabachilar uyushmasi federasiyasi ishlab chiqadi.

Ekskursiya (tanishuv, ko’rish) turizmi- bu tur asosan mamlakat ichkarisida ko’proq rivojlanadi. Yakka shaxs yoki guruh bo’lib tashabbuskor (o’qituvchi, ekolog, injener, mutaxassis) boshliq rahbarligida qisqa muddatlarda o’lkashunoslik, tarixiy, madaniyat muzeylarini, botanika bog’larini, zavod, fabrikalarning ish faoliyatlarini, yaqin masofalardagi oromgohlar, tabiiy landshaftlarni, hayvonot bog’lari, suv va daryo havzalarini ko’rishga qiziqish.

Shaharsozlik turizmi-O’z vatanida va xorij davlatlaridagi zamonaviy shaharlarni ko’rishga qiziqish. Toshkent, Samarkand, Buxoro, Xiva, Shaxrisabz shaharlaridagi yangi obidalar va yangi tipda kengaytirilgan shaharlar, ayniqsa cho’llarimizda bunyod etilgan Navoiy, Zarafshon, Uchquduq, Zafarobod kabi shaharlariga qiziqish ichki turizmda ham xalqaro turizmda ham o’zining turistik bozorini topishni taminlashimiz lozim.

Qayd qilingan 14 ta turizm turi Respublikamizda talablar darajasida rivojlanishi mumkin. Chunki bu turizm turlariga (ichki va tashqi turizmda) turistlarning qiziqishlari haqida batafsil malumotlar bor. *Ikkinchidan,* qayd qilingan turlarning turistik resurslari-obyektlari xilma-xilligi, jozibadorligi, mazmundorligi, diqqatga sazovorligi, ulug’vorligi, muqaddasligi, noyobligi, betakrorligi jihatlari, ko’rinishlari tariflari televideniye, internet axborotlar tizimida reklama qilinmoqda. Shuningdek, turizm rivojlangan davlatlardagi tajribalardan malumki, bu turlarga turistlarning oqimi juda katta masshtablarda bo’ladi. Shuning uchun ham qayd qilingan turlarni turizmdagi ***asosiy turlar*** deb nomlash ham to’g’ri bo’ladi.

Turizmning maxsus turlari haqida Respublikamizda birinchi so’zni aytgan va bu turlarning dastlabki ro’yxatini tuzgan M.T.Aliyeva hisoblanadi. M.T.Aliyeva turizmdagi maxsus turlarni quyidagicha qayd qilgan:

1. Madaniyatga qiziqish turizmi.
2. Tabiatga qiziqish turizmi.
3. Qishloq turizmi.

4. Fermerlar hayoti turizmi.
5. Piyoda va velosipedda harakatlanish turizmi.
6. Ixtisoslashgan motivlardagi turizm.
7. Etnik turizm.
8. Diniy ziyoratgoh turizmi
9. Kasbiy faoliyat turizmi.
10. Sog'inish turizmi.
11. Sarguzasht turizmi.
12. Ekologik turizm.

M.T.Aliyeva o'zining malumotlarida turizmning maxsus turlarini quyidagi tarif bo'yicha ajratadi-«Turizmning ushbu turlariga biror rayonning o'ziga xos, farq qiluvchi xususiyatlari bilan tanishish maqsadidagi sayohati kiradi. Bu sayohatlar turistlarda shakllangan (havaskorlik va professional) qiziqishlardan kelib chiqadi. Maxsus turlarga turizmning *kichik ko'lamli noananaviy turlari* ham kiradi.»

Mazkur tarif bo'yicha ekologik turizm, diniy ziyoratgoh turizm va tabiatga qiziqish turizmlari kichik ko'lamli emas balki, eng ommaviy turistik oqimni tashkil qiladigan turizm turlari hisoblanadi. Shuning uchun ham turizmdagi bu uchala tur turizmning asosiy turlari ro'yxatiga turishi bizningcha to'g'ri bo'ladi.

Shuningdek, piyoda va velosipedda harakatlanish turizmning turi emas balki, turistning xohish-istagi bilan o'zi tanlagan harakatlanish vositasidir. Ya'ni turdagi transport xizmatlaridan iste'molchining-turistning o'z tashabbusi bilan foydalanishini tushunish kerak. Agar turistning bu kabi harakatlarini tur deb qabul qilsak avtoturizm, samolyot turizmi, temir yo'l turizmi yoki tuya va eshak turizmi degan mazmunsiz turistik atamalar paydo bo'ladiki, bu atamalarni yaratish aslo mumkin emas. Turistning transport turlaridan foydalanishi turizmda transport xizmatlariga kirishini bilish unchalik murakkab tushuncha emas.

Ro'yxatdagi ixtisoslashgan motivlardagi turizm turi turizmdagi aniq turni anglatmaydi. Chunki turizmdagi hozirgi turlarning barchasi malum bir turistik

resursga-obyektga qiziqish natijasida xuddi, aynan shu turistik resursning–obyektning yoki resurslarning–obyektlarning nomiga ixtisoslashgan, nomlangan. Masalan: arxeologik turizmi-qadimiy shaharlar, obidalar, sivilizasiya qoldiqlarining ochilib hozirgi ko'rinishini olishi; ekologik turizmi–betakror tabiat va uning resurslari, biologik xilma-xillik, tabiiy mintaqalar landshafti; ovchilik turizmi-ovchilik obyektlari-qushlar, hayvonlar, baliqlar.

Ro'yxatdagi etnik turizmi va sog'inish turizmlarini kichik ko'lamli turizm turlari, fermerlar hayoti turizmlarini mazmuni va mohiyati jihatidan agroturizm deb atasak to'g'ri bo'ladi. Qishloq turizmi Yevropa davlatlarining barchasida, AQSh, Kanada va Avstraliyada eng katta turistik (ichki turizm) oqimlarni tashkil qilgan asosiy turni tashkil qilmoqda.

Turizmdagi maxsus turlarni aniqlashda M.T.Aliyevaning–«kichik ko'lamli, noananaviy turlar» tarifi asosiy mezon qilib olindi. Shuningdek, turizmdagi barcha asosiy (katta ko'lamli, ananaviy) turlar insonning ishlab chiqarish, bunyodkorlik, izlanuvchanlik, tarixga, tabiatga, o'tmishga qiziqishidan kelib chiqganligini hisobga olsak, kichik ko'lamli noananaviy turizm turlarini ham ushbu ishning o'rganish obyektlari–xalqimizning qadimdan hayot kechirishi davomida hozirgacha saqlab kelgan va yanada rivojlanib borayotgan ijodkorlik, yaratuvchanlik mehnati, kasbkorlik yo'nalishlari sohalari, milliy urf-odatlari, milliy o'yinlari, milliy madaniyati va sanati, shuningdek, betakror tabiatimizning tarixiy-ekologik iqlim jarayonlari tasirida hosil bo'lgan mo'jizakor, hayratomuz ko'rinishlaridir. Shu jumladan, muzeylarimizni zooparklarni va xotira bog'larini, maydonlarini ham maxsus turlarga kiritishimiz mumkin.

Maxsus turlarni turizmda shakllantirish. Turizm resurslarini ro'yxatga olishda va malum bir obyektning turizm resursi bo'la olishligi o'rganilgandan keyin bu obyektga yoki tabiiy makonga yoki ishlab chiqarish sohasiga «turizmi» so'zini qo'shish bilan hal qilinmaydi. Masalan: hunarmandchilik sohasini «hunarmandchilik turizmi» kabilar.

Ishlab chiqarish resurslarini turizm resurslariga aylantirishdagi dastlabki talab mamlakatda ichki va tashqi turistlarni birinchi navbatda qiziqtira oladigan soha yoki obyektni o’rganish to’g’ri bo’ladi deb hisoblaymiz. O’rganiladigan obyekt oddiy istemolda emasligi xalqimizning o’ziga xos bo’lgan bejirim buyumlarining boshqa davlatlarda ishlab chiqarmasligi, urf-odatlarning milliyligi yoki milliy o’yinlarning boshqa davlatlardagi xalqlar hayotida umuman yo’qligi, milliy sanatkorlik ijodlari mujassam bo’lishi birinchi navbatda chet ellik turistlarni jalb qiladi.

Bunday obyektlarga masalan hunurmandchilik, yoki ustachilikni olganimizda dastlab dunyoning barcha davlatlarida yashayotgan xalqlarning ham o’ziga xos milliy hunarmandchilik va milliy ustachilik sohalari albatta bor. Biz ishlab chiqarishdagi milliy hunarmandchilik yoki ustachilikda o’zimizning hunarmandchilik yoki ustachilik sohalari buyumlarining noyobligi, go’zal-bejirimligi, mustahkamligi, bu buyumlarda sanatkorlikning, kishilarni hayratga soladigan ijod namunalarining ko’pligidan, boshqa davlatlardagi xuddi shunday buyumlar, mahsulotlardan ancha ustunligiga e’tibor berishimiz lozim bo’ladi.

Masalan, kashtachilikdagi ikki yo’nalish: oddiy kashtachilik va zardo’zli kashtachilikning boshqa davlatlarda yashayotgan xalqlarning kashtachiligidan ustunligi shundan iboratki so’nggi vaqtlarda O’zbekistonga kelib ketayotgan davlat rahbarlari, Bosh vazirlar, mashhur adiblarga, xalqaro miqyosdagi taniqli rahbarlar, sport va san’at yulduzlariga maxsus marosimlarda zardo’zli to’n va do’ppi kiydirilmoqda. Ikkala buyum ham faqat o’zbekistonliklar uchun milliy buyum xillari hisoblanadi. E’tibor qilsak qozoq, qirg’iz, turkmanlarning ham to’nlari, do’ppilari, o’zlarining milliyligini ko’rsatib turadi.

Binobarin, Markaziy Osiyo xalqlarining kelib chiqishlari deyarli bir, yashash manzillarining yaqin-qo’shni ekanligidan bizdagi do’ppi va zardo’zi to’n tikish ularda ham bo’lishi mumkin edi. Lekin qadimiy tub joy aholining buyumlar yaratishdagi milliy urf-odatlari va iqlim xususiyatlari, bayram tantanalarda kiyish

odatlari va xush ko’rishlari nuqtai– nazaridan Markaziy Osiyo xalqlarida qayd qilingan ikkala buyumni tikishda turli uslub, tanlash va yo’nalish hosil bo’lgan.

Demak, bizdagi milliy do’ppichilik va zardo’zi to’n tikish qo’shni davlatlarda rivojlanmagan ekan dunyoning boshqa bironta davlatlarida bizdagidek usullari umuman yo’q hisoblanadi (Xitoy xalq respublikasidagi uyg’ur xalqida ham zardo’zi kashtachilik rivojlangan). Bu xulosalardan milliy qo’l hunarmandchiligidagi do’ppichilik va zardo’zi to’n tikishni xalqaro turizm obyekt–resursi sifatida maxsus turlar ro’yxatiga qo’shsa to’g’ri bo’ladi.

Xalqimizning milliy o’yinlaridan turizm sohasida foydalanishning juda katta imkoniyatlari borligini ilg’ash qiyin emas. Masalan, qushlarni urishtirish o’yini yoki musobaqasi dunyoning juda ko’p mamlakatlarida bor. Bizda qushlarning xo’roz urishtirish va bedana urishtirish o’yinlari bor. Bu qushlarni urishtirish musobaqalari O’zbekiston Respublikasida juda ommalashagan. Xo’roz urishtirishning jahon birinchiligi ham o’tkaziladi.

Endi, ichki turizmda bu o’yinlar hozir ham shaharlar, tumanlarning bozor maydonlarida o’tkaziladi. Xalqaro turizmda albatta bu «urishtirish» o’yinlari ommaviylashmaydi. Chet ellarda juda kam sonli ishqibozlar bu o’yinlarga qiziqib kelishi mumkin. Bozorlarda esa asosan vaqti bor va to’satdan nigohi tushgan, bozorga kelgan kishilar bu o’yinlarni tomosha qilishadi. Bu o’yindan turizm maqsadlarida foydalanilsa ham «kichik ko’lamli, noananaviy tur» bo’lib qolaveradi. Bu o’yinlarni turizmga jalb qilishning eng zarur tomoni shundan iboratki, ichki turizmda ham tashqi-xalqaro turizmda ham qayd qilingan «yangi turdan» yo’l-yo’lakay, turistlarning ko’ngil ochar o’yinlarni, dam olishni xoxlagan vaqtlarida foydalanish, turistlarga taklif qilish mumkin. Albatta bunday taklif xizmatlar pullik bo’ladi.

Turizmdagi maxsus turlarni aniqlish va ro’yxatga olish, kuzatish, ustaxonalardagi hunarmandlar va ustalarning faoliyat va ishlab chiqargan buyumlarini tomosha qilib shunday xulosaga kelish mumkinki, turizmda foydalanish uchun ro’yxatga olinayotgan aksariyat turlardan ichki turizmda

ekskursiya-tanishuv turizmida xalqaro turizmda esa qo’shimcha tur manbalari sifatida (turistga taklif qilish, bo’sh vaqtini mazmunli o’tkazish, suratga yoki videoga olish va h.k) foydalanish mumkin.

Turizmdagi maxsus turlarning geografiyasi. Turizmdagi maxsus turlarning geografiyasi aniq manzillar bo’yicha aniqlanmagan. Maxsus turlarni hosil qiluvchi ishlab chiqarish sohalari, xalq hunarmandchiligi markazlari, milliy o’yinlar tumanlari va hokazolar hozirgacha aniq manzillar bo’yicha ro’yxatga olinmagan. Endi, turizmdagi maxsus turlar haqida so’z yuritganimizda birinchi navbatda e’tiborlisi shundaki, nima uchun turizmdagi turlar asosiy va maxsus turlarga ajratildi.

Ma’lumki, turning o’tkazilish vaqti aynan turning ahamiyatini va uning salmog’ini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan asosiy turlar ko’p vaqtlarni sarflaydi. Bu turlar ko’p hollarda turizmning barcha xizmatlarini so’raydi. Turizmdagi maxsus turlar esa asosan turistlarning bo’sh vaqtlarini, ko’p hollarda turistning qiziqishi natijasida yuzaga keladi. Shuning uchun ham har bir davlat va elatlardagi saqlanib qolgan madaniy me’ros ko’rinishlari va ishlab chiqarish sohalarini turizmga jalb qilishda ushbu sohalarning nomi bilan turizmning maxsus turlari deb atasak bizningcha to’g’ri bo’ladi.

Samarqand shahridagi o’lkashunoslik va O’zbekiston xalqlari tarixiy muzeyidan ham O’zbekistonda hunarmandchilik rivojlangan tumanlar, yoki milliy folklor guruhlari, zardo’zlik yoki milliy o’yinlarning aniq geografik manzillari topilmadi. Shuning uchun ham turizmdagi maxsus turlarning geografiyasi asosan so’rov, savdo-tijoratdagi axborotlar, og’zaki hikoyalar, ko’p yillik ekspedisiyalarda yuruvchilarning axborotlari va hayotiy kuzatuvlar asosida tuzildi (1.4.1-jadval).

1.4.1– jadval

Turizmdagi maxsus turlarning geografiyasi

	Turizmdagi maxsus turlar	Turizmda qiziqish, foydalanish obyekti	Ommaviy rivojlangan tumanlar
	Milliy madaniyatga qiziqish turizmi	Urf-odatlar,oila hayoti, milliy etiket, kattalar va yoshlar munosabati, uy tutish, kelin to'y, sunnat to'y, mehmon kutish va mehmondorchilik marosimlari	O'zbekiston Respublikasi ning barcha viloyatlari, shaharlari, tumanlari, qishloqlari
	Qishloq va fermer hayoti turizmi	Qishloqlarning turli – tuman ligi va tabiiy –tarixiy davrda yuzaga kelishi, qishloq aholisi hayoti, fermerlar hayoti va faoliyatiga qiziqish.	Respublikamiz hududlaridagi qishloqlar, tog'dagi qishloqlar, suv havzalaridagi qishloqlar
	Etnik va sog'inish turizmi	Xalqlar,ellar,urug'lar, ularning yashash tarzi, millatlarning urf-odatlari, kelib chiqishi tarixi, joylashishi,o'zaro aloqalari. Xalqlarning, millatlarning har xil sabablar bilan dunyo bo'ylab tarqalib ketishi, ularning bir-birlariga intilishi, sog'inishi	-O'zbekiston va dunyo mamlakatlari doirasida - O'zbekiston Respublikasi va qo'shni Markaziy Osiyo davlatlari
	Sarguzasht turizmi	Tabiat mintaqalariga,uzoq yurtlarga,ellarga,tog'larga tavakkaliga yoki reja asosida piyoda yoki transportda yo'lga chiqish	O'zbekistonda rivojlantirishga qiziqish juda kam
	Milliy san'at turizmi	Milliy san'at,qo'shiqchilik, raqs,rassomchilik,baxshilar hayoti, askiyalar,laparlar,milliy folklor	O'zbekiston Respublikasining hududlarida
	5.1 Qo'shiqchilik	5.1 Xorazm usuli	Xorazm, Buxoro, Qoraqalpog'iston viloyatlari
		5.1.2. Samarkand usuli	Zarafshon vodiysi
		5.1.3. Farg'ona usuli	Farg'ona vodiysi
	5.2. Qo'shiqchilikda baxshilar faoliyati	5.2.1Qashqadaryo-Surxondaryo usuli	Qashqadaryo viloyati, Surxondaryo viloyati,
		5.2.2.Zarafshon –Nurota usuli	Samarkand viloyati, Navoyi viloyati
		5.2.3. Xorazm usuli	Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston
	5.3.Raqs san'ati	5.3.1. Xorazm usuli	Xorazm, Buxoro viloyatlari
		5.3.2. Qoraqalpoqcha usuli	Qoraqalpog'iston

		5.3.3. Buxorocha usul	Buxoro viloyati, Tojikiston Respublikasi
		5.3.4. Farg’onacha usul	Farg’ona viloyati, Toshkent viloyati,
	5.4 Askiyalar, aytishuvlar	5.4.1. Askiyalar	Farg’ona vodiysi
		5.4.2. Aytishuvlar	Qoraqalpog’iston, Xorazm
	5.5 Milliy rassomchilik va haykal-taroshlik	5.5.1. Rassomchilik	Samarkand, Buxoro, Xiva, Toshkent
		5.5.2 Haykaltaroshlik	Samarkand shaxri, Toshkent shaxri
	5.6. Milliy folklor san’ati	5.6.1. «Boysun» folklori	Surxondaryo viloyati, Boysun tumani
		5.6.2 «Lazgi» folklori	Xorazm viloyati
		5.6.3 «Besh qarsak» folklori	Samarkand viloyati Urgut tumani
		5.6.4 «Oyguloyim»folklori	Qoraqalpog’iston
	Tabiiy-tarixiy tasvirlar turizmi. 6.1. Tabiat muzeylari	6.1.1.Sharsharalar	Arslonbobo-Farg’ona
		6.1.2. Qadimiy buloqlar	Jizzax viloyati Baxmal, Forish, G’allaorol tumanlari, Navoiy viloyati Nurota tumani va hok.
	6.2.Qoyatoshlar dagi qadimiy rasmlar	6.2.1.Tabiat haykallari	Urgut tumani, Nurobod tumani Samarkand viloyati, G’allaorol tumani Jizzax viloyati, Nurota tumani Navoiy viloyati
	6.3. Hayvonot bog’lari	6.3.1.Noyob hayvonlar yashash tarzi	Toshkent shahri, Termez shahri
	6.4.O’lkashunoslik muzeylari	6.4.1.Dunyo tabiatidagi hayvon va parrandalar kolleksiyasi	Viloyatlar markazi bo’lgan shaharlar
	Milliy hunarmandchilik turizmi. 7.1.Duradgorlik va uning maktablari	7.1.1.Yog’ochga o’yma shakl solish	Xorazm usuli, Urgut usuli, Samarkand usuli, Buxoro usuli, Farg’ona usuli
		7.1.2.Sovg’alar, sandiqchalar	Buxoro usuli, Samarkand usuli
	7.2.Kulolchilik va uning maktablari	7.2.1. Sopol buyumlar yasash	Xorazm usuli, Buxoro usuli, Samarkand usuli, Farg’ona usuli
	7.3.Kashtachilik	7.3.1.Matoga rangli gul solish	Buxoro usuli, Samarkand usuli, Jizzax usuli, Cho’lliklar usuli
		7.3.2.Zardo’zi kashtachilik	Urgut usuli,Buxoro usuli, Samarkand usuli, Farg’ona usuli
	7.4. Milliy	7.4.1. Milliy do’ppi	Farg’ona viloyati, Namangan viloyati,

	liboslar		Buxoro viloyati, Xorazm viloyati
		7.4.2. Milliy to’n	Xorazm viloyati, Surxondaryo viloyati, Toshkent viloyati, Farg’ona viloyati, Jizzax viloyati
		7.4.3.Atlas va beqasam buyumlar	Marg’ilon shaxri
		7.4.4. Baxmal buyumlar	Samarkand shaxri
	7.5 Milliy ustachilik	7.5.1.Temirchilik, qadimiy asboblar	Respublikadagi tumanlar
		7.5.2.Misgarlik	Samarkand, Buxoro, Farg’ona, Xiva shaharlari
		7.5.3. Musiqasozlik	Samarkand, Xorazm, Farg’ona vodiysi
		7.5.4.Beshiksozlik	Samarkand, Buxoro, Farg’ona vodiysi,
		7.5.5. Aravasozlik	Qo’qon shahri
		7.5.6. Sandiqsozlik	Urgut, Samarqand, Buxoro, Farg’ona vodiysi
		7.5.7.Egarsozlik	Baxmal Tumani, Jizzax viloyati, Qashqadaryo viloyati
		7.5.8. Mahsido’zlik	Namangan viloyati
		7.5.9. Gilamchilik	Xorazm viloyati, Jizzax viloyati, Nurota tumani Navoiy viloyati,
		7.5.10.Palos to’qish	Cho’l xalqi, Jizzax va Navoiy viloyati
	Milliy o’yinlar 8.1.Ko’pkari – uloq	8.1. Chavandoz ot ustidagi tortishuvda marraga uloq olib borishi- ko’pkari	Qashqadaryo, Jizzax, Navoiy viloyatlari
	8.2. Milliy kurash	8.2.Polvonlar kurashi musobaqasi	Buxoro viloyati, Qashqadaryo viloyati, Surxondaryo viloyati
0	8.3. Qo’chqor urishtirish	8.3. Qo’chqor urishtirish musobaqasi tomoshasi	Xorazm, Qoraqalpog’iston, Buxoro viloyatlari
1	8.4. Xo’roz jangi	8.4. Xo’rozlar jangi tomoshasi	Samarkand shahri, Buxoro shahri,Farg’ona
2	8.5. Bedana jangi	8.5. Bedanalar jangi tomoshasi	Samarkand, Buxoro, Farg’ona vodiysidagi shaharlar
2	8.6.Dorbozlik	8.6 Baland tortilgan arqonda yurish, o’yin ko’rsatish	Toshkent viloyati, Farg’ona viloyati
	G’orshunoslik	9.Tabiatdagi yer osti qasrlariga	O’zbekiston hududidagi g’orlar

4		sayohat. 9.1 Amir Temur g’origa qiziqish	(400 makonda), Qashqadaryo viloyati
5	Agroturizm	10.Xalqimizning dehqonchilik usullariga qiziqish(xalqaro turizm uchun)	O’zbekistonning sug’oriladigan yerlar hududlari
6	Xalqaro polvonlar bellashuvi	Xorij mamlakatlarida	Xorij mamlakatlarida
7	Hayot uchun xavfli sport o’yinlari	Xorij mamlakatlarida	Xorij mamlakatlarida

Maxsus turlarning geografiyasini o’rganishdan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1. Turizdagi maxsus turlarning Respublikamizning deyarli barcha hududlarida manzillari bor. Jadvaldagi malumotlar dastlabki kuzatuvlar natijasi bo’lib turizmdagi maxsus turlarning biz bilmagan manzillari ham juda ko’plab tumanlar, shaharlar va qishloqlarda faoliyat ko’rsatib kelayotganligini anglash, tushunish qiyin emas.

2. Respublikamizdagi maxsus turlarning aksariyat turlari shaharlarimizda va tumanlarda joylashgan. Ayniqsa, Buxoro, Samarkand, Toshkent, Xiva, Shahrisabz shaharlarida boshqa xalqlarda, mamlakatlarda uchramaydigan mo’jizaviy, insonni hayratga soladigan, sovg’abop va umumiy foydalanishga juda zarur bo’lgan osori-atiqa buyumlar,qadimiy asbob-uskunalar ishlab chiqarilmoqdaki, ichki va xalqaro turizmda bunday imkoniyatlardan hanuzgacha foydalanilmay kelinayotganligining o’zi afsuslanarli holdir.

3. Turizmdagi maxsus turlardan Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva, Farg’ona vodiysi va Shahrisabz shaharlarida majmuali foydalanishning tashkiliy jihatlari tezkor usullarda ishlab chiqilishi kerak.

Malumki, xalqaro turistlar oqimi qayd qilingan shaharlarda kuzatilmoqda. Bu turistlar asosan tarixiy va madaniy obidalarga va ziyoratgoh joylarga tashrif qilmoqdalar. Ana shu turistlarni ushbu shaharlardagi maxsus turizm turlariga takliflar qilish, qiziqtirish usullarini qo’llash vaqti keldi.

Turizmdagi maxsus turlarning hunarmandchilik, ustachilik markazlari shaharlarda joylashganligi uchun shahardagi talabalar, kollej va akademik liseylar o’quvchilarini shuningdek, atrof tumanlardagi maktablar o’quvchilarini imtiyozli ekskursiya usulida bu hunarmandchilik va ustachilik markazlarini ko’rishlarini taminlash ichki turizmning rivojiga ijobiy tasir ko’rsatishini yaxshi anglashimiz kerak.

Turizmdagi maxsus turlardagi milliy o’yinlarimizni turistik firmalar yoki turistik tashkilotlar tashkil qilishiga aslo hojat yo’q. Bu o’yinlarni xalqimiz yilning mavsumlarida o’zlari doimo tashkil qilmoqdalar. Turizm sohasidagi mutaxassislarning vazifasi turistlarni bu milliy o’yinlarga taklif qilish hisoblanadi. Taklifgacha esa o’yinlarga yetib borish marshrutlari aniqlangan va turistlarga ko’rsatiladigan barcha xizmatlar ko’rsatish majmualari, sharoitlari yaratilishi talab qilinadi.

Turizmdagi maxsus turlarning tavsifi, tasnifi va geografiyasi bilan tanishganimizdan so’ng turizmda foydalanishda bu turlar deyarli tayyor holatdaligini ko’ramiz. Bu holatda maxsus turlardan foydalanishda birinchi navbatdagi vazifa maxsus turlardan foydalanishda xizmatlar ko’rsatishni tashkil qilish va ishlab chiqishi hisoblanadi.

Respublikamizda turizmning maxsus turlarini rivojlantirish uchun jahon talablariga mos keladigan, ilmiy va iqtisodiy jihatdan asoslangan, kutiladigan natijalarni rejalashtirish bo’yicha turli muddatlarga mo’ljallangan grant loyihalar va biznes rejalar ishlab chiqishini amalga oshirishni boshlash lozim bo’ladi. Bu loyihalar, biznes rejalardan istiqbolli, barcha sarf-xarajatlarni qisqa muddatlarda qoplaydigan, ilmiy va iqtisodiy jihatdan asoslangan grant–loyihalar va biznes rejalarni amalga oshirish uchun davlatimiz tomonidan imtiyozli kreditlar ajratilishi maxsus turlarni turizmda rivojlantirishda tubdan burilish bo’ladi.

Turizmdagi maxsus turlarni reklama qilish yo’nalishida jahonning turli tillarida O’zbekiston xalqining ijodkorligi, yaratuvchanligi, milliy madaniyati va sanati, hunarmandchiligi, betakror-mo’jizali buyumlar yaratishdagi qo’li gul

ustachiligi va boshqa davlatlarda uchramaydigan turli tuman, qiziqarli milliy o’yinlari borligi haqida internetda saytlar ochish maxsus turizm turlarini rivojlantirish yo’lidagi faol mehnatlardan bo’ladi.

Turizmdagi maxsus turlarni rivojlantirishda tadbirkorlik faoliyatlariga keng yo’l, imkoniyatlar ochib berish vaqti keldi. Shu jumladan reklama maqsadida turizmning muxsus turlari haqida broshyura, plakat–reklamalar, rangli malumotlarni katta tirajlarda chop etish, tarqatish maqsadli bo’ladi.

Turizmni ommaviy rivojlantirish uchun katta imkoniyat va salohiyatga ega bo’lgan turizmning maxsus turlarining istiqboldagi o’rnini belgilash uchun albatta tashkiliy-harakat Dasturini tuzish soha uchun zaruriy, majburiy talab ekanligini hozirdanoq anglamog’imiz lozim.

1.5. Ekologik turizm marshrutlarini ishlab chiqish

Ekologik turizm o’tgan asrning oxirlaridan boshlab jahon turizmi industriyasiga asta-sekin kira boshladi. Butun jahon turizm tashkilotining ma’lumotlari bo’yicha keyingi besh yilda ekologik turizmda turistlar oqimi tobora ko’payib borayotganligi haqida hisob–kitob natijalari keltirilgan. Bu turizm yo’nalishida Janubiy Yevropa, Janubiy–sharqiy Osiyo, kichik Osiyo, Xitoy va Afrika qit’asidagi davlatlar oldingi o’rinlarga chiqmoqda.

Albatta, qayd qilingan geografik tabiiy manzillar betakror tabiat mintaqalaridir. Doimiy bahor va yoz iqlimiga ega bo’lgan davlatlarning tabiatidagi biologik xilma-xillik sharoitlari bu mintaqalarda yil davomida turistlar oqimining ko’payishini ta’minlaydi, imkoniyatlar yaratadi. Hozirgi kunga kelib jahonda ekologik turizm jadal sur’atlar bilan rivojlanib borayotgan iqtisodiyot sohalaridan biriga aylandi. Ekologik turizmning rivojlanib borishining yana bir sababi, turist o’zi qiziqqan tabiat va uning tabiiy sharoiti, biologik resurslari bilan tanishibgina qolmasdan, bu tabiat bag’rida dam ham oladi, tabiat go’zalligini chuqur his qiladi, uning resurslarini avaylash, hoxish-istagi paydo bo’ladi.

O’zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishning hozirgi kunda ancha muammolari to’planib qolgan. Lekin respublikamizning ekologik turizm salohiyatini hisobga olganimizda ekologik turizmni rivojlantirishning asosiy resurslari-4 faslli tabiat mavsumlari, o’zining ekologik tizimlariga ega bo’lgan 5 ta tabiiy landshaft bio-xilma-xilliklarida endemik (faqat O’zbekiston tabiatida) turlarning ko’pligidir. O’zbekistonning ekologik turizmdagi resurslar salohiyatiga alohida to’xtalganimizda quyidagi ekoturizm manbalarini keltirish, tavsiflash masalaga aniqlik kiritadi.

O’zbekiston 38 mln. gektarga ega bo’lgan ovchilik–baliqchilik yer maydonlariga ega, ulardan 1 mln. gektarini suv fondi tashkil etadi. Respublikamiz faunasi 97 turdagi o’txo’r hayvonlar, 424 turdagi qushlar, 58 turdagi sudralib yuruvchilar va 83 tur baliqlarga ega. Bulardan O’zbekiston Respublikasi «Qizil kitobiga» o’txo’r hayvonlarning 48 turi, sudralib yuruvchilarning 10 turi, baliqlarning 18 turi va 78 turdagi umurtqasizlar kiritilgan.

O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Botanika instituti ma’lumotlariga qaraganda, O’zbekistonda hozirgi kunda 4148 dan ortiq o’simlik turlari mavjud. Shulardan 3000 turlari oliy yovvoyi o’suvchi o’simliklar, ulardan 9 % endemiklardir.

O’zbekiston hududining muhofaza etilayotgan tabiiy hududlari tarkibida 2164 km^2 ni tashkil qilgan, 10 ta davlat qo’riqxonasi, 6061 km^2 ni tashkil etgan 3 ta milliy bog’ va noyob turlarga kiruvchi hayvonlarni ko’paytirish Xalqaro–«Jayron» Ekomarkazi, 12186 km^2 maydonni tashkil etgan 16 ta davlat buyurtmaxonalari mavjud. Keltirilgan ma’lumotlarga qo’shimcha qilib qayd qilish mumkinki, O’zbeksiton Markaziy Osiyoning o’rtasida, ekologik turizmning rivojlanishi uchun qulay transport geografik arealda joylashgan.

1.Ekologik turizm marshrutlaridagi jozibadorligi, betakrorlik tamoyili talablari haqida ta’riflashni batafsil keltirishga izoh bu yerda ortiqchalik qilsa kerak. Ekoturizmning kelib chiqishi ham insonning tabiatni sog’inishi, hozirgi sivilizasiya bo’hronlaridan (atmosferaning ifloslanishi, yerlarning ishdan chiqib

borayotganligi, noyob o’simlik va hayvonotning insondan uzoqlashib borayotganligi, toza havoning yetishmayotganligi va h.k.) charchaganligidan, insonning tabiatdagi toza havoli tabiiy mintaqalariga sayohatni hoxlaganligidan kelib chiqdi. Bu soha marshrutlarini tuzganda tabiatdagi jozibadorlik–betakrorlikning o’zi ham tabiiy mintaqalarning o’ziga xos bo’lgan landshaftlari, shu mintaqada o’suvchi o’simliklar va shu mintaqa tabiatiga intilish jihatlarini hisobga olish to’g’ri bo’ladi.

Ekologik marshrutlar tuzishda ishlatiladigan jozibadorlik va betakrorlik ko’rinishlari O’zbekistondagi 5 ta tabiiy ekologik mintaqada mavjud. Shuning uchun ham ekologik maskanlarga–resurslarga marshrut tuzishda bu tamoyilni qo’llashning kutilgandan ziyoda bo’lgan imkoniyatlari bor. Eng muhimi marshrut tavsifida ekologik resursdagi jozibador va betakror tabiiy ko’rinishlar birinchi navbatda rasmlar tasvirida berilishi kerak. Bu tipdagi marshrutlarni ishlab chiqishda albatta noyob hayvonot olamidagi qushlar, hayvonlar, «Qizil kitob» dagi hayvonot turlarining rasmlari, ta’riflari marshrut ma’lumotlarida berilishi maqsadli bo’ladi.

2.Imkoniyatning yaratilganligi tamoyilida ekoturizm resursiga marshrutlar ishlab chiqish juda jiddiy masala. Bu tamoyilga amal qilib ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqishda quyidagi imkoniyatlar bo’lishi talab qilinadi.

1. Ekoturizm maskanlariga kirishning huquqiy-qonuniy tartiblari yaratilganligi.

2. Ekoturizm maskanida turistlar uchun maxsus marshrutlarning (so’qmoqlar, yo’llar, dam olish joylari) ishlab chiqilganligi va faoliyat ko’rsatishi.

3. Ekoturizm maskanlarida turistlarga xizmatlar ko’rsatish tizimlarining tashkil qilinganligi (dam olish, tunash, ovqatlanish, ko’ngil ochar o’yinlar, qisqa muddatli ekskursiyalar va h.k).

Hozirgi vaqtda O’zbekistonda Davlat muhofazasidagi tabiat landshaftlari, qo’riqxonalar, tog’ tizmalariga turistlar kiritilishining huquqiy -qonuniy me’yorlari ishlab chiqilmagan. Bu me’yorlar endi yaratilmoqda. Demak, bu ekoturizm

maskanlaridan ekoturizmda foydalanishning eng muhim imkoniyatlari hozircha yo’q. Shuning uchun ham bu tamoyilning talablari amalda bajarilgandagina ekoturizm resurslariga, obyektlariga turistik marshrutlar ishlab chiqish zarur bo’ladi.

3.Mazmundorlik tamoyili o’z talablari jihatidan jozibadorlik va betakrorlik tamoyiliga qo’shilib ketadi. Tabiatdagi betakrorlikni ko’rgan, uning go’zal bag’rida dam olgan, rang-barang o’simliklar olami va hayvonot dunyosini ko’rgan turist ruhiy jihatdan ham jismoniy jihatdan ham turistik marshrutning mazmunli o’tganligini his qiladi. Uning kayfiyati yaxshilanib o’zida boy taassurotlar paydo bo’lganligini sezadi.

Shuning uchun ham ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqishda marshrut bo’ylab o’zgarayotgan tabiat elementlarigacha marshrut tuzuvchi e’tibor berishi lozim bo’ladi. Shuningdek, marshrut yo’nalishida turizmning boshqa resurs manzillari (ziyoratgoh joylar, taniqli insonlar qabri, mashhur kishilar nomi bilan bog’liq obidalar, tarixiy–madaniy, ma’muriy obidalar va b.) bo’lsa albatta marshrutning ma’lumotlariga qisqacha ta’rif bilan kiritish foydali bo’ladi.

Masalan, turist yoki turistik guruh Omonqo’ton vohasi marshrutni tanladi. Albatta turist yoki turistik guruh tezroq Omonqo’ton vohasiga shoshiladi. Endi agar marshrut ma’lumotlarida jozibadorlik-betakrorlik, imkoniyatlarning yaratilganligi tamoyili resurslari mavjud bo’lsa turist va turistik guruh marshrut yo’lidagi bu resurslarni ko’rishga qiziqqanligidan yoki ko’p hollarda ko’rish uchun to’xtaydi. Bu holatda mazmundorlik tamoyili ham ishga tushib marshrutdan ko’ngil to’lish qoniqish hislarini keltirib chiqaradi. Bu natija esa marshrutni tashkil qilgan turistik firma obro’sini oshiradi.

4.Faoliyatlilik tamoyilida ekoturizm marshrutlarining harakatlanish vaqtlari, muddatlari tushuniladi. Fasllarimiz almashib turganligidan ekoturizm marshrutlarini tuzishda bu tamoyilga jiddiy e’tibor berish talab qilinadi. Chunki, ekoturizmning muhim resurslari bo’lgan tog’ hududlaridagi ekoturizm resurslariga

qishki marshrutlar ishlab chiqishda turistlarning hayoti xavsizliklarini ta’minlash masalasi birinchi navbatdagi o’ta jiddiy masaladir.

Tog’lardagi ekoturizm resurslariga yetib borishda avtoyo’llarda qorning erimasligi, baland dovonlardan har qanday transport vositalarining chiqaolmasligi, tog’dagi marshrut so’qmoqlarining qor bilan ko’milib qolishi, qor ko’chkilari turistlar hayotiga jiddiy xavf soladi. Shuning uchun ham tog’ hududlariga qish mavsumida ekoturizm marshrutlarini tashkil qilishda chegaralanish muddatlarini va bu marshrutlarning harakatlanish vaqtlarini aniq belgilash ekoturizmda jiddiy ahamiyatga egadir.

Tog’ hududlariga kech bahor faslidan to kech kuz mavsumlarigacha ekoturizm marshrutlarini tashkil qilish maqsadli bo’ladi. Ekoturizm marshrutlarini O’zbekistondagi boshqa tabiiy mintaqalardagi ekologik maskanlarga ishlab chiqilganda ham bu ekoturizm maskanlarida yil fasllaridagi iqlimiy xususiyatlarni hisobga olish, tur marshrutning harakatlanish holatlarini aniq bilish talab qilinadi.

5. Ko’pqirralik, ko’p variantlilik tamoyili bo’yicha ekoturizm marshrutlari quyidagi variantlarga bo’linadi.

1. Faqat quruqlik bo’ylab ekoturizm maskaniga borish.
2. Havo transporti yordamida ekoturizm maskaniga borish.
3. Suv marshruti orqali ekoturizm maskaniga borish.
4. Aralash transport vositalaridan foydalanib ekoturizm maskaniga borish.

Qayd qilingan yo’nalishlar bo’yicha ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqish tushunarli. Bu ishlab chiqarish tamoyilining ko’p variantliligiga kirib turist yoki turistik guruhning talabi, hoxish-istaklari bo’yicha ular hoxlagan ekoturizm marshrutlari bo’lishi mumkin. Bu marshrutlar tabiiy muhit-sharoit, yo’l-yo’lakay turli–tuman obyektlarini ko’rish imkoniyatlari bo’lganligidan ko’pqirralilikka ham kiradi. Shu bilan birga ekoturizmning ko’p qirralilik tamoyili ekoturizmning asosiy obyektiga borguncha turizmning boshqa resurslariga ham marshrutning kirib-o’tishni ta’minlaydi. Bu haqda ekoturizm marshrutlarini tuzishda mazmundorlik tamoyilini qo’llash qismida zarur talablar haqida izoh berildi.

6.Ekoturizm marshrutlarida qulaylik tamoyilini qo’llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tamoyilda ekoturizm marshrutlarida quyidagi qulaylik manbalari yaratish lozim bo’ladi:

1. Transport va transport xillaridan foydalanishdagi qulaylilik.

2. Marshrut davomida xizmatlarni qabul qilish qulayligi.

3. Marshrut davomida dam olish, ko’ngil ochar o’yinlarga qatnashish, ekskursiyalarga chiqish, ovqatlanish yoki tunab qolishdagi qulayliklar.

4. Marshrut davomida tibbiy yordamni olish qulayligi.

5. Marshrut davomida turist uchun minimum (termosda choy, palatka, yotib dam olish uchun yig’ma karavot, biroz qattiq ovqat, qatiq, sharbatlar, tuxum) va maksimum (mehmonxonada tunash, restoranda ovqatlanish, sport zalida mashq qilish, basseynda cho’milish) qulayligi puxta ishlab chiqilishi lozim.

7. Ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqishda axborotlanganlik tamoyilini qo’llash marshrutni o’ziga xos ravishda reklama qilish, turizm bozoriga kiritish ham hisoblanadi. Bu tamoyilda marshrut haqidagi barcha ma’lumotlar turist uchun muhayyo qilinishi kerak–broshyura, jurnal, buklet, gazeta, radio, televediniya. Turist marshrutda nimalarni ko’radi, nimalar haqida ma’lumotlar eshitadi, qanday yuradi, qaysi kiyimlar kerak bo’ladi, qanday transport vositalari taklif qilingan, qaysi xil ovqatlar ichimliklar tayyorlanadi, qanday dam oladi, ovqatlanish tartibi qanday tashkil qilinadi va hokazolarga – hammasiga javob bo’lishi shart bo’ladi.

Ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqish tamoyillaridagi talablarni o’rganib tahlil qilganimizda har bir tamoyilning marshrutda muhim o’rni borligini anglaymiz. Bu tamoyillarni asos qilib olib ishlab chiqilgan marshrut o’zida marshrutning barcha talablarini majmuali ravishda mujassamlashtirgan bo’ladi, ekomarshrutning reklamaligi ahamiyatini oshiradi.

Ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqishning tamoyillari o’z mohiyati jihatidan turistik marshrutlardagi xizmatlarni ham o’z ichiga oladi. Ayniqsa, imkoniyatning yaratilganligi, ko’p variantlilik, qulaylilik va axborotlanganlik

tamoyillarida marshrutlarda turistlar uchun qanday xizmatlar tashkil qilinishi va ko’rsatilishining ayrim, umumiy nomlanishlariga to’xtaldik. Ekologik turizm marshrutlaridagi xizmatlar quyidagi, alohida-alohida sohadagi xizmatlarni o’z ichiga oladi:

1. Transport xizmatlaridan marshrutda bo’lish davomida quyidagi holatlardan foydalanish mumkin:

a) Turistik firmaning xususiy transportlaridan foydalanish mumkin.

b) Boshqa tashkilotlardan maxsus jihozlangan transport xillarini ijaraga olish mumkin.

v) Turist mahalliy aholidan ot, eshak, tuya va aravalarni ijaraga olishi mumkin.

g) Turist o’zining shaxsiy transportidan foydalanish mumkin.

Ekoturizmning katta masofali marshrutlaridan foydalanilganda albatta hozirda mavjud bo’lgan quyidagi transport turlari turmarshrutning o’ziga tegishli xizmatini bajarib beradi:

1. Aviasiya transportlari (samolyot, vertolyot).
2. Avtobus transportlari (kichik va katta hajmdagi avtobuslar, mikro avtobuslar).
3. Avtomobillar transporti (yengil, jiplar, arzon, qimmat, maxsus).
4. Temir yo’l transportlari.
5. Mahalliy aholi transportlari (ot,eshak,tuya,arava, bug’u, it chanalari).
6. Kombinasiyalashgan transport xillari.
7. Suv havzalari transportlari (kater, qayiq, kemalar, maxsus sollar).

Ekomarshrut davomida turistlarga xizmatlar ko’rsatish xillari quyidagilardan iborat bo’lishi mumkin:

1. Dam olishni tashkil qilish xizmatlari (marshrut davomida qisqa muddatli dam olishda yig’ma stol-stullarning bo’lishi, kofe yoki choy tayyorlash, tunash-palatkalarda, yig’ma karavotlar, ko’chma tele-radio vositalari, mehmonxonada).

2. Marshrut davomida va marshrut oxirida–ekologik resurs maskanidagi xizmatlar (qisqa muddatli va 1-2 kunlik ekskursiyalarda).

3. Turistlarga ko'ngil ochar xizmatlarni (o'yinlar, musobaqalar, ekzotik harakatlar) ko'rsatish.

Qayd qilingan xizmat xillari ekoturizm marshrutlarini ishlab chiqishdagi axborotlanganlik tamoyili bo'yicha ham talab qilinadi. Ekoturizm marshrutlarida xizmatlarni sifatli qilib bajarish, turistga taklif qilishning mukammal ishlab chiqilgani va a'lo darajada bajarilgani turistik firmada turistlar oqimini ko'paytirib olinadigan daromadning oshishini ta'minlaydi, turizm bozorida turfirmaning mavqyeini ko'taradi.

Ekologik turizm marshrutlarida hayot xavfsizligini ta'minlash. Turizmdagi boshqa turistik marshrutlarga taqqoslaganda ekoturizm marshrutlarida turistlarning hayotiga xavf soluvchi manbalar anchagina. Chunki ekoturizm marshrutlari tabiatimizdagi barcha ekologik iqlim mintaqalarini o'z ichiga oladi. Bu ekologik iqlim mintaqalarining barchasida tabiatdagi zaharli hasharotlar, sudralib yuruvchilar yashashadi. Ekoturizm marshrutlarida turistlarning hayotiga xavf soluvchi vaziyatlar va manbalarni quyidagi tartibda guruhlash mumkin:

1. Zaharli sudralib yuruvchilar (ilonlar) va hasharotlar (qoraqurt, falanga, pashshalar) chaqishi xavfi.

2. Iqlimning ta'siri xavfi (issiq urishi, tog'larda qon bosimi oshishi, o'simliklarning allergiya chiqarishi, shamollash).

3. Ichki kasalliklarning kelib chiqishi xavfi (meva –sabzavotlardan, mahalliy suvlardan, mahalliy-milliy ovqatlardan).

4. Transport vositalarining cho'lda va tog'liklarda, notekis yo'llarda yurishdan kelib chiqadigan xavf.

Ekoturizm marshrutlarida tabiatdagi zaharli ilonlar, hasharotlar haqida marshrutning «axborotlanganlik» tamoyili bo'yicha zaharlanish haqida marshrut ma'lumotlarida ogohlantirish xabarlari yozilishi, zaharli ilonlar, chayon va qora-

qurtlarning qayerlarda ko’proq uchrashi yoki bo’lishi albatta yozilishi shart bo’ladi.

Mahalliy iqlim sharoitlari, manbalari asosida turistlarda ichki kasalliklar kelib chiqishining oldini olish uchun mahalliy suvdan foydalanmaslik, mahalliy aholi ovqatlarini bilgan holda ovqatlanish, mevalarning xususiyatlari haqida og’zaki ogohlantirishlar, axborotlar, suhbatlar o’tkazish albatta kutilmagan xavfning oldini oladi. Ekoturizm marshrutlarida turistlarning hayotida xavf paydo bo’lganda quyidagi xavf oldi va xavf so’ngidagi tadbirlar marshrut hujjatlarida aks ettirilishi albatta zarur:

1. Ekoturizm marshrutlarida ilonlar, chayon, qoraqurtdan zaharlanishiga qarshi va boshqa ichki kasalliklarning oldini oluvchi dorilar, zardoblar vositalari bo’lgan «ekoturizm aptechkasi - dorixonacha» si bo’lishi.

2. Turistlarning ekoturizm resurslari makonlarida yakka holda yurmasligi.

3. Zaharlangan holatda birinchi tibbiy yordam ko’rsatadigan tibbiyot mutaxassisining marshrut davomida turistlar bilan birga bo’lishi.

4. Ekoturizm marshrutlari o’tadigan joylardagi yaqin kasalxonalar, vrachlik-feldsherlik makonlarining adreslari, telefonlari marshrut hujjatlarida bo’lishi, doimiy mobil aloqalarining ishlab turishini ta’minlash.

5. Transport vositalarining texnik sozligini doimo nazoratga olish va marshrutga chiqish oldidan yo’llarning holatini kuzatib chiqish.

Qayd qilingan tadbirlar ekoturizm marshrutlariga chiqishdan oldin qanchalik mukammal o’tkazilsa marshrutning–turning xavf-xatarsiz, kutilmagan noxush janjallarsiz muvaffaqiyatli o’tkazilishini ta’minlaydi. Ekoturizm marshrutlarini ishlab chiquvchilar va marshrutlarni o’tkazuvchilar marshrutlarda turistlar va xizmat qiluvchilar hayotiga xavf soluvchi manbalarni oldin bashoratlab bu xavfni o’z vaqtida bartaraf qilish ishlariga o’ta ma’sul va javobgardir.

2-BOB. TURISTIK MARSHRUTLARNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARINI ISHLAB CHIQISH YO'LLARI

2.1. Turistik marshrutlar ishlab chiqishda geoaxborot tizimini qo'llashning obyektiv zarurati

Respublikamizda turistik faoliyatni rivojlantirish borasida ma'lum darajada tajriba to'plandi va endilikda ushbu tajribani tahlil qilish hamda umumlashtirish ehtiyoji tug'ilmoqda. Jahon turizm industriyasi faoliyati tajribasining ilg'or jihatlarini, iste'molchilar xohishining marketing tadqiqotini, turistik mahsulotlarini shakllantirish va ularni taqdimot etish borasidagi amaliy tadbirlar natijalarini batafsil o'rganish lozim bo'lmoqda. Turizmni boshqarish tashkilotlari va turistik firmalar o'z ishida doimo axborot texnologiyalarini o'zlashtirish muammosiga duch kelmoqda.

Hozirgi kunda zamonaviy texnologiyalar har qanday sohada asosiy ishchi qurollardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, barcha ma'lumotlarni o'zida birlashtiruvchi, keng formatga ega, voqyea – hodisalarni tahlil jarayonida to'liq yoritib bera olish xususiyatiga ega bo'lgan tizim va tehnologiyalardan davlat miqyosida keng foydalaniladi. Ana shunday tizimlardan biri geoaxborot tizimlari (GAT) hisoblanadi.

Turizm - geoaxborot texnologiyalarni qo'llashning an'anaviy sohalaridan biri. Biroq bizning mamlakatimizda GAT hali ham asosan sayyohlik xaritalarini, bukletlarni, xaritalarni va jadvallarni o'z ichiga olgan boshqa bosma mahsulotlar tayyorlash uchun ishlatiladi.

Shu bilan birga, noyob tabiiy salohiyatga ega yoki tarixiy va madaniy ahamiyatga ega bo'lgan hududlar uchun keng ko'lamli profilning amaliy geoinformasion tizimlarini yaratish zarur, bu quyidagi muammolarni hal etishga yordam beradi:

• hududning tabiiy va tarixiy va madaniy yodgorliklarini hisobga olishda;

• turizm xizmatlari korxonalarining hisobotlarini tayyorlashda;

• turistik marshrutlarini hisobga olishda;

• turistlar oqimini tahlil qilishda;

• hududning rivojlanishini rejalashtirishda.

Bunday turizm GAT foydalanuvchilari doirasi juda keng qo'llaniladi: madaniyat va turizm bo'yicha mintaqaviy ma'muriyat idoralari, turistik va rekreasion xizmatlarni rivojlantirishni rejalashtirish, sayyohlar uchun qulay joylarni tanlash va yoki turistik yo'nalishlarini ko'rishni xohlaydigan oddiy fuqarolarga. Shunday qilib, turistik GATdan foydalanishning bir necha darajasini ta'minlashi va tarqatilgan tizimlar sifatida qurilishi kerak. To'g'ri, bunday tizimlarni yaratish hali ham tashkiliy va texnik muammolarni hal qilish zarurati bilan cheklangan.

Axborotlarni tezlik bilan olishni, ularning dolzarbligini saqlashni bugungi kunda faqatgina avtomatlashtirilgan tizim kafolatlashi mumkin. Zamonaviy GAT – bu ko'p miqdordagi grafik va mavzuli ma'lumotlar bazasiga ega bo'lgan, baza asosida ish bajarish imkoniyatiga ega modelli va hisobli funksiyalar bilan birlashgan, fazoviy ma'lumotlarni kartografik shaklga aylantirish, turli qarorlarni qabul qilish va monitoring ishlarini amalga oshiradigan avtomatlashgan tizim, deb qaraladi. Bugungi kunda kompyuter savodxonligi omma orasida ancha oshgan. GATda tuzilgan xarita oddiy qog'ozli xaritadan yaxshi bezalgani, kompyuterli shakldaligi va boshqa bir qator afzalliklari bilan farq qiladi: xaritaga istagancha o'zgartirish kiritish, yangi mazmun va rang berish, diagramma va boshqa suratlarni kiritish, o'chirish va h.k. ishlarni bajarsa bo'ladi. Buning uchun xarita tuzishning kompyuterli texnologiyalari bilan mukammalroq tanishish va ular asosida shaxsan muallifning o'zi xarita tuzib ko'rishi kerak.

Xarita yaratishning bu texnologiyasi bugungi kunda, birinchidan - sezilarli darajada universallashgan, ikkinchida - juda tez rivojlanayotgan, inson faoliyatining hamma sohalarini qamrab olayotgan jarayondir. Geografik axborot tizimlari sohasida asosiy bilimlarni beruvchi rus va chet mamlakatlar halqlari

tillaridagi kitoblarda va GATning turli sohalariga oid bo'lgan monografiyalar va konferensiya materiallarida tadqiqotchilar GAT tizimiga kundan-kun yangiliklar kiritmoqdalar. Hozirgi paytga kelib GAT ning 20 dan ortiq ta'rifi mavjud, ularning har biri o'ziga xos e'tiborga loyiq. Internet va davriy ravishda chop etilayotgan ilmiy jurnal va adabiyotlarda GAT ta'riflari keltirilgan:

1. ***Alber R.*** GAT - bu geografik ma'lumotlarini saqlash, ularga ishlov berish va natijalarni tasvirlay oladigan apparat-dasturli vosita va inson faoliyatidan iborat bo'lgan majmuadir.

2. ***Berri J.*** GAT - bu ―ichki pozisionirlangan avtomatik fazoviy axborot tizimi bo'lib, ma'lumotlarni kartografik tasvirlash, taxrir qilish va boshqarish uchun yaratiladi.

3. ***Klarke K.K.*** GAT - bu ―fazoviy taqsimlangan hodisalar, jarayonlar va voqyealarni kuzatishda nuqtalar, chiziqlar va maydonlar ko'rinishida bo'lgan manbalarning ma'lumotlar bazasidan iborat bo'lgan axborot tizimining maxsus holatidir.

4. ***Degani A.*** GAT - bu foydalanuvchilarning maxsus talablarini aniq konsepsiya va texnologiyalar tarkibi doirasida qoniqtirish maqsadida EHMlarda ma'lumotlarni fazoviy qayta hisoblash, grafik va kartografik o'zgartirish uchun qo'llaniladigan ko'pgina modellar birlashmasini o'zida mujassamlagan dinamik uyushgan ma'lumotlar tizimidir.

5. ***Konekni M.*** GAT - bu geografik tadqiqotlar va ularning natijalaridan amaliyotda foydalanish uchun qulay bo'lgan ma'lumotlarni to'plashni, EHM xotirasiga kiritishni, ishlov berishni va uzatishni amalga oshiruvchi shaxslar, texnik va tashkillashtirish vositalaridan iborat bo'lgan tizimdir.

6. ***Koshkarev A V.*** GAT – bu fazoviy ma'lumotlarni yig'ish, ularga ishlov berish, tasvirlash, tarqatish, atrof muhit obyektlarini inventarizasiya qilish, natijani tahlil qilish, modellashtirish, bashoratlash va boshqarish bilan bog'liq ilmiy va amaliy geografik masalalarni yechishda samarali foydalanish uchun joy haqidagi

ma’lumotlar va bilimlarni birlashtirishni ta’minlaydigan apparat-dasturli insonmashina majmuasidir.

7. ***Langeforke B.*** GAT - bu tarkibida xudud haqidagi komponentlar ma’lumotlariga ega bo’lgan, yig’ish, uzatish, saqlash, ishlov berish va axborot berishdan iborat tizimdir.

8. ***Lillekand P.*** GAT – bu ma’lumotlar bazasini kengaytirishga, ma’lumotga ishlov berishga, ularni xarita va jadval ko’rinishida tasvirlashga, xo’jalik faoliyatining u yoki bu masalasi yechimi to’g’risida qaror qabul qilishga moslashgan ma’lumotlar bazasi, apparatura, ixtisoslashgan matematik ta’minot va dasturlar to’plamidan iborat bo’lgan tizimdir.

9. ***Mas.Donald K.L., Grain I.K.*** GAT – bu geografik aniq ma’lumotlarni yig’ish, saqlash, murakkablashtirish, qidirish va tasvirlash uchun loyihalashtirilayotgan tizim. Kartografik asosga nisbatan geografik aniqlangan, mavzuli qatlamlar ko’rinishida saqlanayotgan ma’lumotlar ustida ishlashga va ularni boshqarishga moslashgan tizimdir.

10. ***Simonov.A V.*** GAT - bu geografik koordinatali ma’lumotlarni raqamli tasvirlash, to’ldirish, boshqarish, ko’paytirish, tahlil qilish, matematik-kartografik modellashtirish va obrazli tasvirlash uchun yaratilgan apparat-dasturli vositalar va algoritmik muolajalar tizimdir.

11. ***Star J.I., Kosentino M.J., Foresman T.V.*** GAT - bu ma’lumotlarni yig’ish, saqlash, izlash va ular ustida ishlash uchun yaratilgan aniq fazoviy tizimdir. GAT – bu aniq fazoviy ma’lumotlarni boshqarish va taxrir qilish vositasidir.

12. ***Tikunov V.S.*** GAT - bu ma’lumotlarni yig’ish, tizimlash (tartibga solish), saqlash, ishlov berish, baholash, tasvirlash va tarqatishni amalga oshiradigan va ular asosida yangi axborot va bilimlarni olish vositasi sifatida qaraladigan interaktiv tizimlardir.

13. ***Trofimov A.M., Panasyuk M.V.*** GAT - bu avtomatik vositalar yordamida amalga oshirilgan tabiat va jamiyat orasidagi tasvirning territorial

sohalari, ularni izlash, ma’lumotlarini kiritish, modellashtirish va boshqa dasturiy ta’minot haqidagi bilimlar tizimlari omboridir.

14. ***Vitek J.D., Valsh St. J., Gregory M.S.*** GAT - bu qaror qabul qilishni quvvatlash uchun geografik jihatdan aniq ma’lumotlarni kiritish, umumlashtirish va taxlilni ta’minlashga qaratilgan axborot tizimidir.

15. Asosiy iboralarning ma’noli lug’ati: Geoinformatika. GAT - bu fazoviy ma’lumotlarni yig’ish, saqlash, ishlov berish, kiritish, tasvirlash va tarqatishni ta’minlovchi axborot tizimidir.

16. ***Raklov V.P.*** GAT - bu fazoviy obyektlar haqidagi ma’lumotlarni yig’ish, to’plash, saqlash, ishlov berish, tasvirlash, tahlil qilish va tarqatish uchun mo’ljallangan texnik va dasturiy vositalar, texnologik, tashkiliy-metodik va axborotli ta’minot tizimidir.

Bu ta’riflarning ko’pchiligida o’xshash so’z va gaplar mavjud bo’lsada, umuman ishlatilmagan iboralar ham bor. Bu esa GATni kundan-kunga murakkablashayotganini bildiradi, uni chuqurroq o’zlashtirmasdan tushunish va tassavur qilish qiyinligini anglatadi. Ma’lumki, xarita - yer yuzasining, boshqa osmon jismlarining yoki kosmik fazoning kichiklashtirilgan, umumlashgan, matematik jihatdan aniqlangan tasviri bo’lib, ma’lum tizimli shartli belgilar asosida ularda joylashgan yoki proyeksiyalangan obyektlarini ko’rsatadi. Obyekt sifatida xaritada tasvirlangan ixtiyoriy voqyea va hodisalar tushuniladi.

Bizning mavzuga yaqin bo’lgan quyidagi GATning ta’rifini keltirishimiz mumkin: GAT – bu tabiat va jamiyat to’g’risidagi topogrofo-geodezik, yer resurslari va boshqa kartografik ma’lumotlarni to’plash, qayta ishlash, saqlash, yangilash, tahlil qilish va tasvirlashni ta’minlaydigan apparat-dasturli avtomatlashgan kompleksdir. Insoniyat hayotida kompyuterlarning o’rni o’sib borib, birinchi darajaga raqamli axborot texnologiyalari chiqdi. Axborot iborasi GATda harf, raqam (son) yoki tasvir shakli tushuniladi. Barcha uslublar, texnikalar, amallar, vositalar, tizimlar, nazariyalar, yo’nalishlar va h.k. axborotni

yig’ish, qayta ishlash va foydalanishga qaratilgan bo’lib, ular birgalikda axborot texnologiyalari deyiladi, GAT esa shularning biri bo’lib hisoblanadi.

Ma`lumotlarning ko`plab turlari vaqt o`tishi bilan tez-tez o`zgarib turishi, oddiy usulda tuzilgan qog’ozli xaritadan foydalanishni ancha qiyinlashtirib yubormoqda. Axborotlarni tezlik bilan olishni, ularning dolzarbligini saqlashni bugungi kunda faqatgina avtomatlashtirilgan tizim kafolatlashi mumkin. Zamonaviy GAT – bu ko`p miqdordagi grafik va mavzuli ma`lumotlar bazasiga yega bo`lgan, baza asosida ish bajarish imkoniyatiga yega modelli va hisobli funksiyalar bilan birlashgan, fazoviy ma`lumotlarni kartografik shaklga aylantirish, turli qarorlarni qabul qilish va monitoring ishlarini amalga oshiradigan avtomatlashgan tizim, deb qaraladi.

GAT bilan ishlayotganda kompyuter yekranida bir yoki bir nechta xaritani (yoki plan-sxemani) ko’rish mumkin. Ish jarayonida tasvirning detallashganlik darajasini oson o’zgartirish, ayrim yelementlarini kichiklashtirish yoki kattalashtirish mumkin. Masalan, shaharda biror bir uyni, uning atrofidagi obyektlarni ko’rishimiz mumkin.

Bundan tashqari, Siz ma’lumotlarning mavzuli tarkibi bo’yicha boshqarish ishlarini ham olib borishingiz mumkin, masalan, foydali qazilmalar xaritasida ish paytida kerakli bo’lmagan ba’zi foydali qazilmalar tasvirlangan xaritalarni yopib qo’yish; zarur bo’lgan qatlamlarni yesa ko’rsatish mumkin.

Biror obyektni belgilab u haqida ma’lumot olish mumkin: masalan, binoning narxini, kimga qarashli yekanini, holatini, obyektning o’lchamini, uning shahar asosiy muhandislik tarmoqlariga ulanganligini va h.k. Bu ko’rsatkichlarni kompyuter monitorida bevosita o’lchash ham mumkin.

GATda maxsus qidiruv tizimi ham mavjud. Talabga binoan qiziqtirgan obyektlar ko’rsatkichlari haqida talab shartlari tuziladi va avtomatik ravishda talabingizga javob qaytariladi. Masalan, maydonning 0,1 ga dan kam bo’lmagan va temir yo’l bekatidan 3 km uzoqda joylashgan barcha suv havzalari, 1 km dan oshmagan masofada joylashgan yer uchastkalari yekranda ko’rsatilishi va h.k.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, bugungi kunda ilmiy tadqiqotlar va amaliy faoliyatda ko’plab GATlar ishlatiladi, lekin ular orasida shaxsiy GATlar keng tarqalgan. Jumladan, ularga GeoDraw, GeoGraph (Rossiya Geografiya instituti), AtlasGAT, WinGAT, ArcInfo, MapInfo (AQS’H) va boshqa dasturlarni misol keltirish mumkin.

Umuman olganda xaritalar yaratishning GAT-texnologiyasini quyidagicha tasavvur qilsa bo’ladi:

Tayyorgarlik ishlari. Yelektron taxeometrlar va GRS asboblaridan, tasvirlarni qayta ishlash vositalaridan, izlanishlar raqamli ma’lumotlaridan, mualliflik originallardan, mavjud fond xaritalari va boshqalardan dastlabki ma’lumotlarni to’plash. Kartografik va fond materiallarini, rangli tasvirlarni bir xil masshtabga keltirish, so’ngra ularni kompyuter xotirasiga joylash.

Yaratilayotgan xaritaning mavzuli qatlamlarini, ularga tegishli jadvallarni ishlab chiqish va ularni tahlil qilish. Ma’lumotlar bazasini yaratish. Obyektlar tasnifi mavjud jadvallar (atributlar) va matn ma’lumotlarni YeHM xotirasiga kiritish. Shartli belgilar tizimini ishlab chiqish.

Xaritaning mavzuli qatlamlarini muvofiqlash, kartografik tasvirni hosil qilish va ularni tahrir qilish. Xaritaning komponovkasini ishlab chiqish va uni nashrga tayyorlash. Xaritani nashr qilish.

2.2. Samarqand viloyati bo’ylab “New adventure: Cycle tourism around Samarkand” nomli yangi veloturizm marshrutini ishlab chiqish

Samarqand viloyati – mamlakatimizning boy turistik salohiyatiga ega bo’lgan hududlaridan biri bo’lib, nafaqat uzoq o’tmishi balki, betakror buguni bilan ham butun dunyoni hayratga solmoqda.

Samarqand viloyati O’zbekiston Respublikasining markazida, Zarafshon vodiysida joylashgan. Shimoliy-sharqda Jizzax viloyati, sharqda Tojikiston

Respublikasi, janubda Qashqadaryo viloyati, g’arbda va shimoliy-g’arbda Navoiy viloyati bilan chegaradosh.

Viloyat 1938 yil 15 yanvarda tashkil topgan.

Umumiy maydoni 16,77 ming kv.km.

Aholi soni – 3777,8 ming kishi (2018 y).

Shaharlar soni 2 ta (Samarqand va Kattaqo’rg’on).

Samarqand viloyati 14 ta tumandan iborat. Bular: Bulung’ur, Ishtixon, Jomboy, Kattaqo’rg’on, Narpay, Nurobod, Oqdaryo, Payariq, Pastdarg’om, Paxtachi, Samarqand, Toyloq, Urgut va Qo’shrobot. Samarqand viloyati tumanlari soni bo’yicha Qoraqalpog’iston Respublikasi va viloyatlar orasida birinchi o’rinni egallaydi.

Viloyat tarkibiga kiruvchi 14 ta tumanning har biri o’zining uzoq o’tmishi, betakror tabiati, xilma-xilligi, tarixiy-madaniy obidalari va diqqatga sazovor joylari bilan mahalliy va xorijiy turistlarni o’ziga jalb qilib kelmoqda.



2.2.1-rasm. O’zbekiston xaritasida Samarqand viloyatining joylashuvi

Samarqand viloyati tumanlarining barchasini va ulardagi eng diqqatga sazovor turistik obyektlarni o’zida mujassamlashtirgan “New adventure: Cycle tourism around Samarkand” nomli veloturizm marshruti o’zining jozibadorligi, yangi turistik marshrut ekanligi va turizm sohasi uchun innovasion loyiha ekanligi bilan ajralib turadi (2.2-rasm).

“New adventure: Cycle tourism around Samarkand” nomli veloturizm marshrutining boshlang’ich nuqtasi Samarqand shahri hamda oxirgi nuqtasi

Bulung’ur tumani hisoblanadi. Samarqand viloyatidagi tumanlar orasidagi masofalar yig’indisi 562 km.ni tashkil etishini hisobga olgan holda, marshrut davomida veloturistlar jami 800 km.dan ko’p masofani bosib o’tadilar hamda Samarqand shahri, Kattaqo’rg’on shahri, viloyatning 14 ta tumani va ulardagi 27 ta diqqatga sazovor joylar bilan tanishib o’tish imkoniyati mavjud (2.2.1-jadval).



2.2.2-rasm. “New adventure: Cycle tourism around Samarkand” nomli veloturizm marshrutining xaritasi

Veloturistlarning yoshi, harakatlanish tezligi, dam olish va hordiq chiqarishi, yo’l infratuzilmasini inobatga olgan holda 1 km masofani o’rtacha 12 daqiqada bosib o’tishini hisobga oladigan bo’lsak, 800 km masofani bosib o’tish uchun 9600 daqiqa yoki 160 soat vaqt talab etiladi. Buning ustiga veloturistlarning turistik resurslarni tomosha qilishga sarflagan vaqtini (har bitta turistik resursga o’rtacha 15 daqiqa (27*15=405 daqiqa=7 soat)) qo’shadigan bo’lsak, uning jami sarflagan vaqti 167 soatni tashkil etadi. Qo’shimcha tarzda 24 soat ichida veloturistning

kamida 8 soat uxlashi va ovqatlanishga o’rtacha 3 soat sarflashini hisobga olsak, 167 soatga yana 66 soatni qo’shish kerak bo’ladi (167+66=233 soat). Demak, Samarqand viloyatidagi 14 ta tuman va 2 ta shaharni velosipedda aylanib chiqish hamda ulardagi ma’lum turistik resurslarni tomosha qilish uchun o’rta hisobda 10 kun sarflanadi.

2.2.1-jadval

Marshrutda tumanlar va turistik resurslar bo’yicha harakatlanish ketma-ketligi

№	Marshrutda tumanlar bo’yicha harakatlanish ketma-ketligi	Marshrut tarkibiga kiritilgan turistik resurslar	Keyingi tumangacha bo’lgan masofa
1	Samarqand shahri	“Meros” qog’oz fabrikasi va Xo’ja Abdudarun ziyoratgohi	15 km
2	Tayloq tumani	Talli ota va Bandi Kushod ziyoratgohlari	27 km
3	Urgut tumani	Chor-chinor ziyoratgohi, Omonqo’ton g’ori va Teshiktosh	52 km
4	Samarqand tumani	Samarqand hukmdorlarining yozgi saroyi xarobalari, Nodir Devonbegi madrasasi, Xo’ja Ahrori Valiy ziyoratgohi	32 km
5	Pastdarg’om tumani	Qadimiy Darg’om kanali dam olish maskanlari	55 km
6	Nurobod tumani	Qadimiy Tim qishlog’idagi 1000 yoshli archa, Arab ota maqbarasi, Oq masjid	107 km
7	Paxtachi tumani	“Dobusiya” qal’asi xarobalari, Paxtachi tuman tarixi muzeyi	27 km
8	Narpay tumani	Xo’ja Karzon ota va Ko’k ota ziyoratgohlari	34 km
9	Kattaqo’rg’on tumani	Kattaqo’rg’on suv ombori	23 km
	Kattaqo’rg’on shahri	Kattaqo’rg’on shahar tarixi o’lkashunoslik muzeyi	
10	Ishtixon tumani	Ishtixon tuman tarixi muzeyi	40 km

11	Qo’shrobot tumani	Qo’chqorli ota ziyoratgohi va bulog’i	38 km
12	Payariq tumani	Imom al-Buxoriy majmuasi	40 km
13	Oqdaryo tumani	Maxdumi A’zam ziyoratgohi	49 km
14	Jomboy tumani	Zarafshon qo’riqxonasi	23 km
15	Bulung’ur tumani	“Sheroz” qal’a xarobalari	-*

*Izoh: Bulung’ur tumani marshrutning oxirgi nuqtasi hisoblanadi. Veloturist o’z xohishiga ko’ra Toshkent viloyatiga qarab yo’l olishi mumkin.

Туристик маршрутнинг технологик харитаси

1. **Маршрутнинг номи:** “New adventure: Cycle tourism around Samarkand” – Самарқанд вилояти бўйлаб велотуризм
2. **Маршрутнинг муддати (бошланиши ва тугаши):** 17.02.2019 йил Самарқанд шаҳри (бошланиши), 26.02.2019 йил Булунғур шаҳри (охири)
3. **Маршрут тури:** велотуризм маршрути (велосипедда саёҳат)
4. **Маршрут масофаси:** 800 км
5. **Маршрутда ҳаракатланиш:**
   - Велосипедда – 700 км
   - Пиёда – 100 км
6. **Маршрутдаги туристлар сони:** 3 киши
7. **Маршрутдаги экскурсия мавзуси:** “Cycling in Samarkand region”
8. **Маршрут эгаси бўлган корхона ва манзили:** СамИСИ

М.Ў. **Раҳбарнинг исм-фамилияси ва имзоси**

Samarqand shahridagi turistik resurslardan marshrut tarkibiga “Meros” qog’oz fabrikasi va Xoja Abdudarun ziyoratgohi kiritilgan.

“Meros” qog’oz fabrikasi Konigil mahallasida joylashgan. Bu yerda qadimiy Samarqand qog’ozi eski texnologiyalar asosida ishlab chiqariladi. Shunisi qiziqki, ishlab chiqarish butunlay qo’lda bajarilib, fabrikada tashrif buyuruvchi har bir mehmon ushbu jarayonni kuzata oladi. Aytish joizki, Samarqand qog’oz sarg’ish tusga ega. Zero, ataylab kimyoviy tozalashlar yordamida oqartirilmaydi. Shu sababli boshqa oq qog’ozlardan farqli ravishda bu qog’oz o’nlab marotaba uzoqroq muddat saqlanadi. Masalan, yaxshi sifatli oq qog’oz 40-50 yil saqlansa, Samarqand qog’ozi 300-400 yilgacha saqlanadi.

Xo’ja Abdudarun ziyoratgohi Samarqandning janubida joylashgan. XVI asr tarixiy yodgorligi. Ko’hna qabr yoniga toqu ravoqli xonaqoh-masjid, o’rtasiga jamoatxona, atrof burchaklariga hujra va zinalar qurilgan. Qo’shqavat sirkor gumbaz, poygumbaz va devorlar sirkor g’ishtlar va koshinkor naqshlar bilan bezatilgan. IX asrda yashagan alloma Abd Ma’ziddin qabri atrofida turli binolar paydo bo’lib, me’moriy ziyoratgohga aylangan. Markazida eng yirik bino – xonaqoh (XV asr) bor. Uning peshtoqi, gumbazi va devori bezaklari Ulug’bek davri me’morchiligi mahsuli ekanligidan darak beradi. Ziyoratxona – jamoatxona masjid vazifasini o’tagan. Xonaqohning ichida avliyoning maqbarasi bor. Ta’mirlash natijasida maqbara binosining dastlabki qiyofasi o’zgarib ketgan. Hovli o’rtasidagi sarhovuz chashma ustida bo’lgani uchun ham uning suvi qishin-yozin bir xilda saqlangan, aholi orasida shifobaxsh hisoblangan. Hovli atrofidagi hujralar va g’arb tomondagi jome’ masjid XIX asrga oid. Masjid bezaklari orasida ustalar nomi bitilgan.

Tayloq tumanining turistik resurslari va diqqatga sazovor joylari: Ad-Doramiy, Bandi Kushod, Talli ota va Toyloq ota ziyoratgohlari.

Hududdan marshrut tarkibiga kiritilgan turistik resurslar: Talli ota va Bandi Kushod ziyoratgohlari.



2.2.3-rasm. Talli ota ziyoratgohi

Urgut tumanining turistik resurslari va diqqatga sazovor joylari: “Chor chinor” chinorlari va buloqlari, G’ovsul A’zam ziyoratgohi, Xo’jabtol ota, Miqqilloq tosh, Teshiktosh, Qaynar, Xo’ja Omon (Xo’ja Muhammad Abdullo Al-Jivloniy) ziyoratgohi, Shirvog’ota ziyoratgoh va dam olish maskanlari, «Toshqo’y» tabiiy haykali, Bug’jamatosh, Toshkelinchak, Go’rimor tabiiy tosh shakllari, Qaynarbuloq, Rohatbuloq buloqlari, Omonqo’ton dam olish maskanlari, Eski davon yo’llari, taxti Qorachabegim saroyi xarobolari va boshqalar.

Hududdan marshrut tarkibiga kiritilgan turistik resurslar: **“**Chor chinor” chinorlari va buloqlari, Omonqo’ton g’ori va Teshiktosh.

“Chor-chinor” ziyoratgohi Urgut tumanida joylashgan eng mashhur turistik resurslardan sanaladi. Ziyoratgohdagi chinorlarning yoshi 1000 yildan oshgan. Kirish darvozasidan boshlangan markaziy yo’lakning ikki tomonidan yuqoriga qarab chinorlar tizmasi qad rostlagan. Rivoyatlarga ko’ra, arab sarkardalaridan biri Xo’ja Abu Tolib Urgutda hukmron bo’lgan paytda, buloq atrofiga to’rt dona chinor ektiradi. U vafot etgach (866-867 yillar), shu chinorlar yaqinida dafn etiladi. Bu yerning yana bir nomi “Xo’ja Chor-chinor” deb atalishining tarixi shu voqyea bilan bog’liq. Chor-chinor majmuasi ichida 1914 yilda Shayx Muhiddinxon tomonidan qurilgan masjid bor. Masjiddan dastlab madrasa sifatida foydalanilgan. Bino Abduqodir (1868-1934 yillar) ismli usta tomonidan qurilgan. 1927 yilgacha mazkur madrasada nafaqat Urgut, balki yaqin qo’shni hududlardan kelgan tolibi ilmlarga saboq berilgan. Chor-chinor ziyoratgohida bir necha yillik tarixga ega ulkan chinor daraxti mavjud. Daraxtning katta kovagi bo’lib, bugungi kunda u yerda muzey tashkil qilingan. Qachonlardir chinor darveshlarning yashirin jamiyatiga tegishli qarorgoh bo’lgan, uning ichida qirqtagacha darvesh yig’ilishi mumkin bo’lgan. Shunday vaqtlar bo’lganki, kovak ichiga so’fiylarning butun boshli maktabi ham faoliyat ko’rsatgan.

Omonqo’ton g’ori Urgut tumanida, Zarafshon tog’ tizmasining g’arbiy yonbag’rida joylashgan. G’orning kengligi 1,5 metr, chuqurligi 25 metr. Omonqo’ton g’ori O’zbekistondagi eng qadimgi manzilgohlardan biri hisoblanadi.

1947 yilda arxeologlar Mixail Mixaylovich Dyakonov g’ordan sinantrop insonning son suyagini topgan. G’orning madaniy qatlamlaridan qirg’ich, paykon, plastinkalar, nukleuslar, qo’l chopqilari, Osiyo mufloni (arxar), qo’ng’ir ayiq, tog’ echkisi suyaklari va gulxan qoldiqlari topilgan. Bu yerda yashagan qadimgi odamlar asosan ovchilik va termachilik bilan shug’ullangan.



2.2.4-rasm. Omonqo’ton g’orining kirish qismi

Teshiktosh. Urgut tumanining Qoratepa qishlog’i, Zarafshon va Turkiston tog’lari oralig’ida joylashgan bu sirli maskan odamlarni qadimdan o’ziga maftun etadi. Eroziya va shamollar ta’sirida toshdan go’zal va maftunkor san’at asari bunyod bo’lgan. Teshiktoshga diqqat bilan razm solganda, ikki dinozavrning boshi to’qnashgan holatini ko’rish mumkin. 1973 yilda Germaniyaning DEFA kinostudiyasi tomonidan suratga olingan va bosh rolni Goyko Mitich ijro etgan “Apachilar” filmining bir qismi Qoratepada, Teshiktosh joylashgan hududda tasvirga olingan. Hindular hayotidan hikoya qiluvchi mazkur kinoasarda dunyo tan olgan aktyorlar bilan birga, shu yerlik aholi vakillari ham ishtirok etgan. Bu esa filmning haqqoniy chiqishiga xizmat qilgan. Olimlarning e’tirof etishicha, bu singari toshlarni jahonning sanoqligina davlatlarida uchratish mumkin ekan.

Toshning noyobligi shundaki, u o’zining tuzilishi, hajmi, og’irligi hamda antiqaligi bilan ajralib turadi.



2.2.5-rasm. Teshiktosh

Samarqand tumanining turistik resurslari va diqqatga sazovor joylari: Samarqand hukmdorlarining yozgi saroyi yodgorligi, Xo’ja Abdu Berun ziyoratgohi, Nodir Devonbegi madrasasi, Xo’ja Ahrori Valiy majmuasi, Mironqul, Sazag’on, Ohalik dam olish maskanlari, Ohalik tog’i soyliklaridagi xushmanzara dam olish maskanlari va boshqalar.

Hududdan marshrut tarkibiga kiritilgan turistik resurslar: Samarqand hukmdorlarining yozgi saroyi yodgorligi, Nodir Devonbegi madrasasi, Xo’ja Ahrori Valiy majmuasi.

Samarqand hukmdorlarining yozgi saroyi yodgorligi. Samarqand tumani hududida Darg’om kanalining chap qirg’og’ida ilk o’rta asrlar davriga tegishli Samarqand hukmdorlarining yozgi saroyi topilgan bo’lib, ushbu shohona saroy Kofirqal’a nomli arxeologik yodgorlikda joylashgan. Turli yillarda yodgorlikning turli uchastkalarida stratigrafik xarakterdagi kichik qazishma ishlari amalga oshirilgan, 2001 yildan boshlab esa 16 gektarli qadimgi shaharning 76x76 metrli Arki a’losi maydonida O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Arxeologiya institutining arxeologlari keng qamrovli arxeologik qazishma ishlarini olib

borishmoqda. Natijada qadimgi shaharning qal’a qismida 2017 yilda monumental me’moriy majmua ochildi.

Milodiy V-VI asrlarga oid majmuada Samarqand hukmdorlarining davlat arxivi va yozgi saroyi joylashgan bo’lib, yong’in tufayli vayronaga aylangan arxivdan noyob davlat hujjatlari (davlat boshqaruviga oid hujjatlar, elchilik xatlari, davlatlararo shartnomalar va boshqalar) bulla deb atalgan taxtakachlarda sug’diy yozuv namunalari topilgan.

Saroyning yog’och ustunli ko’rkam xonalaridan birida uch yarusli sufa, sufa ustida esa shersifat ko’rinishdagi taxtiravonda hukmdor o’tiribdi. Xonaning devorlari o’yma yog’och panno shaklidagi rasmlar galereyasi bilan bezatilgan. Uning o’lchamlari 124x141sm, pannoning o’zi ikkita keng doskadan iborat bo’lib, ular temir tutqich bilan biriktirilgan. Old tomondan taxtalarda zardushtiy insonlar suratlari to’rt qavatga joylashtirilgan.

Kompozisiyada jami 46 ta odam shakli tasvirlangan (ularning uchtasi shartli ko’rinishda, yuqoridan chap qismdagi ikkita shakl arang ko’rinadi, o’ng tomondagi shaklning faqat qo’li ko’rinadi). Kompozisiyaning asosiy mavzusi – sher shaklida taxtga o’tirgan bosh Ilohga sajda qilishdir. Bu zardushtiylikning bosh ma’budasi buyuk xudo Nana bo’lishi ehtimoldan xoli emas. Odamlar uning huzuriga turli xil sovg’alar bilan kelganlar. Pastki qavatda musiqachilar galereyasi tasvirlangan. Undan keyingi pastki qavatda yana qo’llari turli xil sovg’a-salomlar bilan kelgan ziyoratchilar suratlari tiz cho’kkan holda aks ettirilgan. Pastki qavat suratlar galereyasi markazida muqaddas olov ramzi – Altar joylashgan bo’lib, muqaddas altarga bir tomondan og’zi latta bilan bog’langan erkak topinmoqda, ikkinchi tomondan esa ayolsifat figura altar oloviga xushbo’y aramat o’simlik kukunini sepmoqda. Ushbu muqaddas shohona zal va zardushtiylik ma’budalarining eng ulug’laridan biri, buyuk Nana surati yog’ochga o’yib ishlangan devoriy panno VIII asr boshlarida arablarning Qutaybo binni Muslim boshchiligidagi harbiy qo’shini tomonidan yoqib yuborilgan.



2.2.6-rasm. Buyuk Nana surati yog’ochga o’yib ishlangan devoriy panno

Bunday ko’p qirrali aniq suratlar kompozisiyasi O’rta Osiyo arxeologiya tarixida barinchi marta uchradi, bu dunyo ahamiyatiga molik noyob kashfiyotlar sirasiga kiradi. Hozirda hududda qazish ishlari davom etmoqda.

Nodir Devonbegi madrasasi. Nodir Devonbegi madrasasi naqshbandiya tariqatining yirik vakillaridan biri, buyuk nazariyotchi va nufuzli shayx Xoja Ubaydulloh Ahror ziyoratgohiga yaqin joylashgan bo’lib, hijriy 1040 (melodiy 1631) yil ashtarxoniylar sulolasining namoyandasi Subhonqulixon saltanati davrida, Nadirbiy Tog’ay nomi bilan tanilgan Nodir Mirzo Tog’ay ibn Sulton Arlot tomonidan qurilgan. Bu madrasa Hoja Ahror xonaqosi yonida joylashganligi bois, xalq orasida «Hoja Ahror madrasasi» deb ham yuritiladi. Mazkur madrasaning Xoja Ahrori Valiy xonaqosining yonida barpo qilinishini Nodir Mirzo Tog’ay ibn Sultonning Hojaga bo’lgan cheksiz hurmati belgisi, deb tushunish mumkin. Nodir Devonbegi madrasasi loyihasini ishlashda Registonning Sherdor madrasasi binosi ko’rinishidan ijodiy foydalanilgan. «Ikkinchi Sherdor» madrasasi (xalq orasida shunday deb yuritiladi). 1978 yilda O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan madaniyat xodimi Abdug’affor Haqqulov tashabbusi hamda rahbarligi ostida qayta ta’mirlangan. Madrasa peshtoqidagi sher suratining aks ettirilishi, katta hovli

chetlaridagi hujralarning joylashishi Registondagi Sherdor madrasasining nusxasini takrorlaydi va undan farqli o'laroq, bu yerda minoralar yo'q. Madrasa bir qavatli qurilgan bo'lib, XVI-XVII asrlarda keng tarqalgan hashamatli va sharqona to'rt ayvonlilik usulida bunyod etilgan. Madrasaning peshtoqida qurilishning boshlanish vaqtini ko'rsatuvchi yozuvlar bitilgan. Ular naqsh bezaklari bilan uyg'unlashib ketgan. Bu yozuvlarni naqshlar bilan hashamatlashtirish Xoja Hoshim va muhandis-quruvchi Do'stmuhammadlar ijodi va bezak san'atining namunasidir. Madrasa katta masjid, darsxona vazifasini o'tagan zal, to'rtta darsxona va 28 ta hujralardan iborat. Katta zal ustida hashamatli gumbaz mavjud.



2.2.7-rasm. Nodir Devonbegi madrasasi

Xo'ja Ahrori Valiy majmuasi – Samarqand tumanidagi Ulug'bek qishlog'i hududida joylashgan, XV-XX asrlarga tegishli memoriy yodgorlik. Xo'ja Ahrori Valiy qabri yaqinida turli davrlarda bunyod etilgan Nodir Devonbegi madrasasi, ikki ayvon, masjid, minora hamda hovuz mavjud. Majmuaning markazi 8 yoqli hovuz, uning janubida Xo'ja Axrori Valiyning oq marmarli qabrtoshi bor, qabrtoshiga arab yozuvida husnixat bilan marsiya yozilgan. Shimolida Nodir

Devonbegi madrasasi, to’rtburchak hovlining atrofida hujralar joylashgan; hovlining g’arbida ayvon bor, bezaklari XVII asrga tegishli, marmar kursili ustunlarning tepa qismi muqarnasli, shifti 3 qismga bo’linib, yulduzsimon shakldagi hovuzaklar ishlangan. Ikkinchi murabba tarxli ayvonning sharqiy tomoni ochiq, qolgan uch tomoni qalin devor bilan o’ralgan, devorlariga chuqur ravoqlar ishlangan; yon tomonidan masjidga kiriladi. Masjid sinchli bino bo’lib, to’g’ri to’rtburchak tarxli, yog’och ustun to’sinli, shifti vassali, nafis naqshlar bilan serhasham bezatilgan. Masjid izorasiga koshinkori naqshlar ishlangan, mehrob va ravoqlari muqarnaslar bilan to’ldirilgan, yuqoridagi hoshiya qatorlar qirma usulida bajarilgan.



2.2.8-rasm. Xo’ja Ahrori Valiy majmuasi

Hujralar hovlining shimolida joylashgan, sodda, bezaksiz. Hovuz yonida tagi 6 qirrali minora qad ko’targan. Tamirlash vaqtida tomi tunuka bilan yopilgan. Tamirlashda usta Sadulla (1909 yil), ganchkor usta T.Ismoilov (1921 yil), duradgor usta Hafiz va boshqalar qatnashgan.

Pastdarg’om tumanining turistik resurslari va diqqatga sazovor joylari: Qadimiy Darg’om kanali dam olish maskanlari, milliy kurash, ko’pkari o’yinlari va boshqalar.

Pastdarg’omda veloturistga ko’pkari o’yinlarini tomosha qilish va qadimiy Darg’om kanali hududida baliq ovlash taklif etiladi.

Nurobod tumanining turistik resurslari va diqqatga sazovor joylari: Ostona bobo, Arabota, Ko’chqorliota, Salovat ota ziyoratgohlari, Tim qishlog’idagi ming yoshli archa, Qarnobcho’l ekolandshafti va boshqalar.

Hududdan marshrut tarkibiga kiritilgan turistik resurslar: qadimiy Tim qishlog’idagi ming yoshli archa, Arab ota maqbarasi, Oq masjid.

Arab ota maqbarasi. Nurobod tumanining aholi nisbatan zich yashaydigan joylardan 60 chaqirimcha narida –Tim (“Tim” so’zi – karvonsaroy, usti yopiq bozor, savdo rastasi degan ma’noni anglatadi) qishlog’ida bir go’zal maqbara bor. Bino peshtoqiga kufiy yozuvda uning hijriy 367 yilning rabi ul-soniy oyida, ya’ni milodiy 977 yilning oktyabrida qurib bitkazilgani qayd etilgan. Demak, imorat tugatilgan paytda Buxoro davlatida Somoniy hukmdor Nuh ibn Mansur taxtda bo’lgan. Buxorodagi olamga mashhur Ismoil Somoniy maqbarasidan qolishmaydigan Arab Ota yodgorligi yurtimizda ana shunday yuksak madaniyat gullab-yashnagan X asrda yaratilgan. Maqbara tarixini o’rgangan Po’lat Zohidov shunday deb yozadi: “Me’mor tarixiy nomini ganchga bitgan yili Abu Rayhon (ya’ni Beruniy) besh yashar bola edi. Ibn Sino esa ikki yil keyin tug’ildi”.



2.2.9-rasm. Arab ota maqbarasi

Arab Ota maqbarasi undan sal oldinroq Buxoro shahrida qad rostlagan Ismoil Somoniy maqbarasiga aynan o’xshaydi. Bu maqbara ham – tuzilishi jihatidan kub shaklidagi va gumbazli bir xonadan iborat. Ma’lumot o’rnida shuni

ta’kidlash kerakki, AQSh elchisi R.Norland va uning rafiqasi Meri Hartnett 2010 yilning iyun oyida Tim qishlog’iga tashrif buyurib, Arab ota maqbarasi, Oq masjid va ming yoshli archa bilan tanishib chiqqanlar.

Oq masjid. Arab Ota maqbarasidan sal pastroqda XV asrga taalluqli yana bir tarixiy obida mavjud. Me’moriy san’ati jihatidan ana shu maqbaradan qolishmaydigan bu yodgorlikni mahalliy aholi Oqmachit (Oq masjid) deb atar ekan. U Arab ota maqbarasidan 20 yil keyin qurilgan. Ushbu obida haliham timliklarning ibodat qiladigan masjidi hisoblanadi.



2.2.10-rasm. Oq masjid

Ming yoshli archa. Timdagi mo’jizalardan biri maktab hovlisida qad rostlagan, asrlar bag’ridan sado berib turuvchi ming yillik archa sanaladi.



2.2.11-rasm. Elchi Norland Tim qishlog’idagi 1000 yoshli archa daraxt oldida (AQSh elchixonasi olgan surat)

Paxtachi tumanining turistik resurslari va diqqatga sazovor joylari: Dobusiya qal’asi yodgorligi, Zarafshon daryosi sohillari dam olish maskanlari, qadimiy sardobalar, Imom Bahri Ota maqbarasi, Paxtachi tuman tarixi muzeyi va boshqalar.

Hududdan marshrut tarkibiga kiritilgan turistik resurslar: Dobusiya qal’asi yodgorligi, Paxtachi tuman tarixi muzeyi.

Dobusiya qal’asi yodgorligi. Zarafshon daryosining o’ng sohilida, Oqdaryo va Qoradaryoning tutashgan joyida bundan 3 000 yil oldin mavjud bo’lgan Dobusiya qal’asi yodgorligi mavjud. Qal’a o’z tarkibiga keng xandaq, shahriston va robotni olgan. Shahar qal’a Sug’d ishxidiga bo’ysunuvchi mustaqil davlat bo’lgan. 713 yilda Arablar bosqini natijasida shahar vayronaga aylantiriladi. Arxeologik qazishmalar natijasida qal’adan antik davrga oid qadahlar, ilk o’rta asrlarga (6-7 asrlar) mansub tosh va sopoldan ishlangan buyumlar (9-12 asrlar), tangalar va shisha idishlar topilgan. Shahar 6-7 asrlarda Buyuk Ipak yo’lida joylashgan Fay davlatining markazi bo’lgan. Shayboniyxonning Dobusiyada istehkom qurganligi to’g’risidagi ma’lumotlar “Shayboniynoma” asarida uchraydi.

Paxtachi tuman tarixi muzeyi 1970 yilda tashkil topgan. Muzey 7 ta zalda faoliyat ko’rsatayotgan ekspozisiyalardan iborat. Arxeologiya zali – bu yerda XVI-XVII asrlarga oid eksponatlar mavjud. Eksponatlar qadimiy Dobusiya qal’asidan arxeologik qazilmalar chog’ida topilgan, Oqtepa va Qoratepadan keltirilgan. Aholining turmush va xo’jalik hayotini aks ettiruvchi zalda oshxona va oshxona jihozlari, hunarmandchilik buyumlari mato to’qish dastgohi, dexqon uylari, temirchilik ustaxonasi, ularning asboblari hamda dehqonchilik asboblari qo’yilgan. Amir Temur va temuriylar ekspozisiyasida Soxibqiron Amir Temur va temuriylar davlatchiligi, ilm-fan, madaniyat, bunyodkorlik va boshqa sohalardagi boy merosi, shuningdek, Alisher Navoiy, Abu Ali ibn Sino kabi buyuk allomalar hayoti, ilmiy, adabiy, madaniy va ma’naviy meroslarini aks ettiruvchi eksponatlardan iborat. Xalq amaliy san’ati – XVII-XVIII asrga oid erkaklar va ayollar kiyimlari, taqinchoqlari, paranji va so’zanalar namoyishga qo’yilgan.



2.2.12-rasm. Paxtachi tuman tarixi muzeyining tashqi ko’rinishi

O’zbekiston Respublikasi mustaqilligining 25 yilligi munosabati bilan «Mustaqillik ekspozisiyasi»da Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning fotosurati, davlat ramzlari – gerb, bayroq, madhiya haqidagi ma’lumotlar bilan boshlangan.

Shuningdek, ushbu bo’limda namunaviy uy-joylar, kasb-hunar kollejlari, sumalak va Navro’z bayramlari, qo’li gul hunarmandlarning fotosuratlari tasvirlangan. «Samarqand: kecha va bugun» deb nomlangan ekspozisiyada Samarqand shahrining mustaqillikdan oldin va keyingi davrlardagi ko’rinishlari fotosuratlarda aks ettirilgan.

Narpay tumanining turistik resurslari va diqqatga sazovor joylari: Qo’tirbuloq dam olish maskani va shifobaxsh bulog’i, Xo’ja Karzon ota, Ko’k ota ziyoratgohlari, Islom Shoir Nazar o’g’li maqbarasi, So’fizirak masjid-maqbarasi, Qo’shtepa ikkita tabiiy tosh tepaligi, va boshqalar.

Hududdan marshrut tarkibiga kiritilgan turistik resurslar: Ko’k ota va Xo’ja Karzon ota ziyoratgohlari.

Ko’k ota ziyoratgohi. Ko’k ota ziyoratgohi kosonlik avliyolardan biri bo’lgan Hazrat Abu Qusam shayx ibn Said Ahmad an-Nasafiyning mangu qo’nim topgan makonlari hisoblanadi. Avliyoni narpayliklar hurmat va ehtirom ila “Ko’k ota” yoki “Avliyo ota” deyishadi. Bu ulug’ zot taxminan 1419-1420 yillar oralig’ida Koson tumanida Hazrat Abu Said Ahmad Nasafiyning padaribuzrukvori Abu Qusam shayx obro’-e’tibori baland, eng zukko va bilimdon shayxlardan sanalgan. Ayrim diniy ulamolar Abu Qusam shayxni Said Muhammad ibn Jaloliddin Bahovuddin Naqshbandiyning piri deb bilishadi. Avliyo otaning maqbarasi qo’shkulohlik gumazsimon shaklda bunyod etilgan. Avliyo otaning ravzaiy munavvara dahmasining kirish qismida, ya’ni eshikning peshtoqida avliyo otaning o’limiga oid devoriy bitiklar mavjud. Devorlardagi yozuvlar turli davrlarda yozilgan bo’lib, hadislardan, Ahmad Yassaviyning hikmatlaridan va Hazrat said Ahmad otaning o’limi tarixiga oid bo’lgan forsiy namunalardan tashkil topgan. Biroq, hozir yozuvlarning ayrimlari o’qib bo’lmas holatga kelib qolgan.



2.2.13-rasm. Ko’k ota ziyoratgohi

Said Ahmad an-Nasafiy 1491 yilda vafot etgan. Dastlab Ko’k-ota dafn etilgan joyda, aniqrog’i qabr atrofi toshdan to’rtburchak shaklda dahma qilingan. Uning balandligi bir metrga yaqin bo’lgan. Dahmaning har to’rt tomonida 90x90 o’lchamdagi toshlar bo’lib, toshlarning chetlari o’yib naqshlangan. Naqshinkor toshlar esa qabrning ustidan ensiz, ya’ni, bir ko’rpachadek uzunlikdagi to’rtburchak toshni ko’tarib turgan. Afsuski, ushbu tosh qabrlar davrlar o’tishi bilan buzilib ketgan. Sobiq tuzum davrida xarobaga aylangan Ko’k ota ziyoratgohi mustaqillik sharofati bilan obod va ko’rkam maskanga aylandi.

Kattaqo’rg’on tumanining turistik resurslari va diqqatga sazovor joylari: Kattaqo’rg’on suv ombori, Andoqiy ziyoratgohi va bulog’i, «cho’kkan tuya» shaklidagi tabiiy yodgorliklar.

Hududdan marshrut tarkibiga kiritilgan turistik resurslar: Kattaqo’rg’on suv ombori va Kattaqo’rg’on shahar tarixi o’lkashunoslik muzeyi.

Kattaqo’rg’on suv ombori. Kattaqo’rg’on suv ombori Kattaqo’rg’on tumanida joylashgan O’zbekistondagi ilk suv ombori hisoblanadi. Ushbu suv inshooti 1940-1951 yillar davomida qurilgan. Suv omborining dengiz sathidan balandligi 509 metr. 79,5 km.kv maydonni egallaydi. Eng chuqur joyi 25 metr.

Zarafshon daryosining chap qirg’og’ida joylashgan. Uzunligi 15 km, maksimal kengligi 10 km.



2.2.14-rasm. Kattaqo’rg’on suv ombori

Kattaqo’rg’on shahar tarixi o’lkashunoslik muzeyi. Kattaqo’rg’on shahar tarixi o’lkashunoslik muzeyi 1974 yilda jamoatchilik asosida tashkil etilgan. Avvaliga muzey uchun 1804 yilda ma’rifatparvar Muhammad Aminxo’ja Naqibbek tomonidan qurilgan madrasa binosi ajratiladi.

Ayni paytda esa muzey Kattaqo’rg’on shahridagi O’zbekiston ko’chasi 105-uyda joylashgan tarixiy binoda faoliyat yuritib kelmoqda. 1982 yilda muzey viloyat davlat muzey-qo’riqxonasi tarkibiga kiritilgan. Muzeyda noyob ashyolar va artefaktlar saqlanmoqda hamda ekspozisiyalarda namoyish etilmoqda. Ko’rgazmalardan etnografiyaga oid bo’lgan, o’lkada keng qo’llanilgan, yuksak darajada tayyorlangan an’anaviy kiyim-kechaklar va taqinchoqlar o’rin olgan. Tashrif buyuruvchilar diqqatini XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida turli mohir chevarlar tomonidan tayyorlangan milliy-dekorativ kiyimlar namunalari o’ziga jalb etadi. Bular joynamozlar, so’zanalar, oyna xaltachalari va boshqalardan iboratdir. Bu ashyolar o’zlarining tikilish uslubi, ornamenti, kompozisiyasi va ranglar uyg’unligi bilan ajralib turadi.



2.2.15-rasm. Kattaqo’rg’on shahar tarixi o’lkashunoslik muzeyining tashqi ko’rinishi

Muzeyda ko’plab arxeologik ashyolar mavjud bo’lib, ular o’lkaning tarixi, odamlarning turli davrlardagi turmushi to’g’risida ma’lumot beradi. Muzeyda ushbu o’lka musavvirlarining ko’plab asarlari to’plangan. O’lka tabiatini ifodalovchi tabiat bo’limi nihoyatda qiziqarlidir.

Ishtixon tumanining turistik resurslari va diqqatga sazovor joylari: Qoradaryo sohillari, Shayxlar qo’rg’oni, Ishtixon tuman tarixi muzeyi.

Hududdan marshrut tarkibiga kiritilgan turistik resurs: Ishtixon tuman tarixi muzeyi.

Ishtixon tuman tarixi muzeyi. Ishtixon haqidagi ilk ma’lumotlarni biz V-VIII asrlarga oid Xitoy manbalarida o’qishimiz mumkin. Aytilishicha, Xitoy tilida Ishtixon «Sao» deb yuritilgan. Ishtixon arablar istilosigacha va undan keyingi bir necha asrlar davomida sug’dlarning «ixshid» deb ataluvchi qabilalari yashagan xonlikning markazi bo’lgan. «Ishtixon» so’zi ham aslida shu xonlikning nomi «Ixshidxon» so’zidan kelib chiqqan va talaffuzda o’zgara borib, keyinchalik «Ishtixon» deb nomlangan.



2.2.16-rasm. Ishtixon tuman tarixi muzeyining tashqi ko’rinishi

Muzeyning ekspozisiya zallarida uning o’tmishi, tarixi, tabiati, o’simlik dunyosi haqida so’zlovchi eksponatlardan tashqari, tumanning bugungi kuni, ya’ni, mustaqillik yillarida iqtisodiyot, sport, madaniyat va shaharsozlik sohalarida erishilgan muvaffaqiyatlarini ko’rish mumkin. Ishtixon tuman tarixi muzeyida 2014 yilda katta ta’mirlash ishlari amalga oshirildi.

Qo’shrobot tumanining turistik resurslari va diqqatga sazovor joylari: Qo’chqorli ota bulog’i, tog’ oldi dam olish maskanlari, Qaynar avliyo bulog’i, Ergash Jumanbulbul o’g’li dostonchilik maktabi va boshqalar.

Hududdan marshrut tarkibiga kiritilgan turistik resurs: Qo’chqorli ota bulog’i va undagi baliqlar.

Qo’chqorli ota bulog’i. Qo’shrabot tumanidagi Bozorjo’y qishlog’idagi Qo’chqor ota bulog’idan chiqayotgan tiniq, shifobaxsh suv tarkibida inson sog’ligi uchun foydali bo’lgan magniy, kaliy, sulfat kabi o’nlab mikroelementlar mavjud. Buloq suvi XI asrda yashagan deb taxmin qilinadigan Qo’chqor ota qabri atrofidan sizib chiqadi. Buloq suvini toza saqlash va chelaklarga olishda qulay bo’lishi uchun usti ayvon qilingan.



2.2.17-rasm. Qo’chqorli ota buloq suvidagi baliqlar

Buloq suvi ayvon tagidan o’tgach, quvur bilan hovuzga borib tushadi. Hovuz ancha katta bo’lib, unda 100 ming litrdan ko’p suv yig’iladi. Bu yerda juda ko’p, og’irligi bir kilogramm atrofidagi baliqlar suzib yuradi.

Betonlangan bu hovuzda ozuqa yo’q, ularni hyech kim parvarish qilmasa-da, baliqlar och qolmaydi. Asrlar osha yashab kelayotgan Qo’chqor ota baliqlari suvdagi foydali elementlar bilan ozuqlanar ekan. Rivoyatlarda keltirilishicha, bu baliqlar Nurota chashmasidagi baliqlar bilan almashinib turar ekan. Qo’chqor ota bulog’idagi suv Nurota chashmasidagi obihayot mazzasi bilan o’xshashligini inobatga olsak, bu fikrda haqiqat borday. Har ikki buloq o’rtasidagi masofa 25-30 kilometrni tashkil etadi. Baliqlarning suvdan chiqmasligini hisobga olganda, balki, ularni yer ostidagi suv yo’li bir-biri bilan bog’lab turadi.

Payariq tumanining turistik resurslari va diqqatga sazovor joylari: Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuasi, Navro’ztepa, G’ilmonsoytepa, Oqtepa tabiiy tepaliklari.

Hududdan marshrut tarkibiga kiritilgan turistik resurs: Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuasip.

Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuasi mustaqillik yillarida yaratilgan inshootining eng asosiy binosi usta Mirumar Asatov tomonidan yaratilgan marabba’ shaklida (ya’ni, to’rtburchak shakldagi usti gumbazsimon) qurilgan, o’lchamlari 9,0x9,0 metr bo’lgan to’g’ri to’rtburchakdan iborat maqbara. Umumiy balandligi gumbaz bilan birgalikda 17,6 metrni tashkil qiladi. Maqbara tashqi

qismi asosan Eron Islom Respublikasining Isfohon shahridan keltirilgan «Oniks» qimmatbaho toshi bilan bezatilgan. «Oniks» – bu o'zidan yorug'lik nurini o'tkazuvchi va quyosh nurida jilolanib turli ranglarni hosil qiluvchi noyob, qimmatbaho tog' jinsi hisoblanadi. Maqbara tashqi qismi turli milliy uslubdagi koshinlar va yuqori gumbazi chinni koshinlar bilan bezatilgan. Maqbara pastki qismi ham xuddi uning ustunsimon devorlar kabi qimmatbaho tog' jinsi hisoblangan tosh bilan ya'ni, qora granit «Gabra» toshi bilan bezatilgan. Ushbu qora granit toshi Ukraina davlatidan keltirilgan. Maqbaraning o'rta qismida ya'ni, uning markazida Imom Buxoriy qabriga ramziy qabr toshi o'rnatilgan. Ushbu ramziy qabr toshi ham «Oniks» dan iborat bo'lib unga quyidagi bitiklar bitilgan: Maqbaraning asosiy qismi ya'ni, Imom Buxoriyning haqiqiy qabri maqbaraning yerto'la qismida bo'lib, unga pastga qarab eltuvchi zinapoya orqali kiriladi. Yerto'laga kirish eshigi bo'lib, u yog'och eshikdan tashkil topgan, unga yog'och o'ymakorligi bilan ishlov berilgan hamda arab imlosida quyidagi so'zlar yozilgan: Maqbara yerto'lasi 4x4 metrdan iborat, uning markazida Imom Buxoriyning qabri va qabr toshidan iborat. Qabr toshi G'azg'on marmaridan (Navoiy viloyati Nurota tumanidagi kon) iborat bo'lib, unda Imom Buxoriy hayotiga bag'ishlangan matn bitilgan.

Oqdaryo tumanining turistik resurslari va diqqatga sazovor joylari: Mahdumi A'zam Dahbediy ziyoratgohi, Oqdaryo daryosi sohillari dam olish maskanlari, Miyonqol oroli ekolandshafti.

Hududdan marshrut tarkibiga kiritilgan turistik resurs: Mahdumi A'zam Dahbediy ziyoratgohi.

Maxdumi A'zam Dahbediy ziyoratgohi. Samarqandning shimoli-g'arb tarafida, Oqdaryo va Qoradaryo oralig'ida joylashgan Dahbed qishlog'ida XVI asrda yashab, ijod etgan alloma Maxdumi A'zam qabri bor. Mazkur qabr atrofida barpo etilgan ziyoratgohning janubida masjid, sharqiy tomonida darvozaxona, chillaxona, hujralar joylashgan. Masjid yonida g'ishtin imorat va hovuz mavjud. Samarqand hukmdori bo'lgan Yalangto'sh Bahodir va uning yaqinlarining

dahmalari ham shu manzilda joylashgan. Movarounnahrlik buyuk diniy arbob, naqshbandiya tariqatining rahnamosi va nazariyotchilaridan biri Maxdumi A’zamning to’liq ismi – Said Ahmad Xojagiy ibn Said Jaloliddin Kosoniy Dahbediydir. U Farg’ona vodiysining Koson shahrida tavallud topgan.

Maxdumi A’zam ilk ta’limni Koson maktablaridan birida olib, so’ng Axsikatda Xoja Muborak madrasasida o’qishni davom ettirgan. Madrasani bitirgan Ahmad Kosoniy Shayx Mirsaid Aliga shogird tushgan. 1491–1492 yillarda ustozi bilan Hirotga safar qilib, u yerda taniqli alloma va shoir Abdurahmon Jomiy bilan uchrashgan. Maxdumi A’zamning tasavvuf ta’limotiga oid fikrlari naqshbandiya nazariyasiga asoslangan.

Jomboy tumanining turistik resurslari va diqqatga sazovor joylari: Xolvoyi qishlog’idagi qadimiy chinorlar, Zarafshon daryosi va uning Oqdaryo va Qoradaryoga ajralishi, Zarafshon qo’riqxonasi.

Hududdan marshrut tarkibiga kiritilgan turistik resurs: Zarafshon qo’riqxonasi.

Zarafshon qo’riqxonasi. Bugungi kunda O’zbekistonning to’qayzorlari hududlarida jami 5 ta qo’riqxona tashkil etilgan bo’lib, Zarafshon qo’riqxonasi shulardan biri hisoblanadi. Qo’riqxonaga 1975 yilda asos solingan. Uning hududi Cho’pon ota tog’ining balandliklaridan boshlanib, o’ng qirg’oqi bo’ylab 47 kilometr uzoqlikda davom etadi. Qo’riqxona hududi 2352 gektar himoya qilinadigan hudud hisoblanadi. Ulardan 680 gektarini o’rmon tashkil etadi. Bu yerda 17 turdagi sut emizuvchilar, 170 dan ortiq qush turlari hamda bir necha o’nlab turdagi sudralib yuruvchilar yashaydi.

Natijada Buxoro bug’ulari Zarafshon qo’riqxonasi hududiga qaytarilgan edi. Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2006 yilda Markaziy Osiyoda ularning soni 1000 tani tashkil etdi.



2.2.18-rasm. Buxoro bug’usi

Zarafshon qo’riqxonasining g’ururi bu Buxoro bug’usidir. O’rg’ochi bug’uning vazni 300 kilogrammgacha bo’ladi. Shoxlari har yil o’zgarib boradi. Tana rangi och kulrang, malla rang bo’lib, uning rangi qishga nisbatan yozda erkinlashadi. Oyoqlari tana rangiga nisbatan ochroq. Yangi tug’ilgan bug’ular ochroq rangda bo’lib, ularning tana qismi yon tomonlarida oq dog’lari bo’ladi. Kichik bug’uchalarning bo’yi 60 santimetrni tashkil etadi. Tanasining og’irligi esa 9 kilogrammni tashkil etadi.

Bulung’ur tumanining turistik resurslari va diqqatga sazovor joylari: Qadimiy Tuyatortar kanali, Fozil Yo’ldosh o’g’li uy muzeyi, “Sheroz” qal’asi yodgorligi, Xo’ja Hofiz Merosiy va Xo’ja Mazgil ota ziyoratgohlari.

Hududdan marshrut tarkibiga kiritilgan turistik resurs: “Sheroz” qal’asi yodgorligi.

“Sheroz” qal’asi xarobalari. Bulung’ur tumaning Bolg’ali qishlog’i hududida joylashgan, XV asrda Amir Temur tomonidan qurilgan “Sheroz” qal’asi o’z davrida strategik ahamiyat kasb etgan qal’alardan biri hisoblanadi. Qal’a haqidagi ma’lumotlar “Boburnomada”, tarixchi Ibn Arabshoh, rus tarixchilari V.Vyatkin va Yu.Buryakov asarlarida uchraydi.



2.2.19-rasm. “Sheroz” qal’asi xarobalari

Qal’aning umumiy maydoni 2 gektorni tashkil etgan. Mazkur qal’a geografik jihatdan nihoyatda qulay joylashgan bo’lib, 3 ta tomondan Bulung’ur kanali bilan o’ralgan. Qolgan bir tomondan qal’aga kirish ko’prigi mavjud bo’lgan va uning qoldiqlari hozirgacha saqlanib qolgan. Qal’ada pishiq g’ishtdan ishlangan yashirin yer osti yo’li ham mavjud bo’lgan. Qal’aning asosiy kirish qismida asosiy ma’muriy markaz bo’lib, 8 ta ulkan ustunlar mavjud bo’lgan. Arxeologiya instituti olimlari tomonidan olib borilgan qazishmalar natijasida qal’a hududidan temuriylar davriga oid tangalar, qurol-aslahalar, uy-ro’zg’or va kulolchilik buyumlari, XVI – XVII asrlarga oid idishlar topilgan.

“New adventure: Cycle tourism around Samarkand” veloturizm marshruti davomida turist (mamlakat hududiga o’zining shaxsiy velosipedida va palatkasida kirgan bo’lsa) 1 kun uchun ovqatlanishga o’rta hisobda 100 ming so’m sarflasa, marshrutning davomiyligi 9 kecha 10 kunni tashkil etishini hisobga olgan holda jami turist ovqatlanish uchun o’rtacha 1 000 000 so’m, turistik resurslarni tomosha qilish uchun jami 100 ming so’m va boshqa xarajatlar uchun 500 ming so’m (dam olish, rekreasiya, velosipedlarni ta’mirlash, kiyim-kechak va h.k.larga) sarflasa, uning jami xarajatlari 1 500 000 so’mni tashkil etadi. Agarda veloturist

velosipedlarni ijaraga olish xizmatidan foydalansa uning xarajatlari ustiga quyidagi xarajatlar ham qo’shiladi: velosipedlarni 1 sutkaga ijaraga berish xizmati xorijiy turist uchun o’rtacha 80 ming so’mni (marshrut xaritasi bilan birgalikda), turistik chodirlarni (palatkalar) 1 sutkalik ijara narxi 50 ming so’mni tashkil etsa, marshrut davomiyligi 10 kun bo’lganligi sababli turist 80 000x10 kun=800 000 so’m velosiped ijarasi hamda 50 000x10 kun =500 000 so’m, jami 1 300 000 so’mni turist velosiped va chodir ijarasi uchun to’laydi. Natijada xorijiy turist velosipedni ijaraga olgan holda Samarqand viloyatini aylanib chiqish uchun taxminan 3 000 000 so’m xarajat qiladi.

3-BOB. O’ZBEKISTON TURISTIK GEOPORTAL TIZIMINI ISHLAB CHIQISH VA MARSHRUTLARNI TIZIMGA JOYLASHTIRISh TEXNOLOGIYASI

3.1. Mobil ilova ko’rinishidagi O’zbekiston turistik geoportal tizimini yaratish texnologiyasi

Noyob turistik resurslarga ega mamlakatlarning mutloq ustunligi bu davlatning va mintaqaviy tashkilotlarning puxta o’ylangan hamda maqsadga muvofiq innovasion siyosati bilan kuchaytiriladi. Bu esa davlatga xalqaro turizmda raqobatbardosh ustunlikni ta’minlaydigan noyob, jozibali turistik mahsulotlarni yaratishga imkon beradi. Shu tufayli, mazkur natijaga erishishda barcha turistik obyektlar, turistik infratuzilma, mamlakatning butun turistik imkoniyatlarini o’zida jamlagan geoaxborot tizimidagi ma’lumotlar bazasini shakllantirish hamda mazkur baza asosida turistik marshrutlarni ishlab chiqish davr talabi bo’lmoqda.

Zamonaviy sharoitda axborot texnologiyalaridan foydalanish alohida ahamiyatga ega bo’lib, ularsiz turistlarga ommaviy xizmat ko’rsatib bo’lmaydi. Ular ijtimoiy va madaniy xizmatlarni, xususan, turizm xizmatlarini ko’rsatish uchun butun texnologik tizimning asosidir. Geoaxborot tizimlari xarita yoki rejaning areal, chiziqli va nuqta obyektlari to’plamining grafik ko’rinishini ushbu obyektlarning xususiyatlari va munosabatlarini tavsiflovchi ma’lumotlar bazalarida atribut ma’lumotlarini saqlash bilan birlashtirishga mo’ljallangan.

Yildan yilga mamlakatimizning turistik salohiyati faol rivojlanib va kengayib bormoqda. Bugungi kunda turizm mamlakat iqtisodiyotining eng yirik va daromadli sohalaridan biridir. Bugungi kunda, turizm sohasini rivojlantirishda butun dunyoda geoaxborot tizimlari va texnalogiyalari, uch o’lchovli modellashtirish va Internet xizmatlari jadal rivojlanmoqda va obyektlar hamda hodisalarni xaritalash uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanilmoqda.

GAT va veb-xizmatlardan foydalanish katta hajmdagi geoaxborotlarni uzatish bilan bog’liq ko’plab masalalarni hal qilishga imkon beradi. Bugungi kunda zamonaviy turizm biznesida GATdan foydalanish sezilarli darajada o’sdi, geoaxborot texnologiyalar hamma joyda qo’llaniladi va turizm, kartografik va ijtimoiy loyihalarni birlashtirishning ajralmas qismi hisoblanadi.

Bugungi kunda avtomatlashtirilgan marshrutlarni rejalashtirish va navigasiya tizimlari ko’plab sohalarda qo’llaniladi. Ammo so’nggi yillarda turistik jarayonlarini avtomatlashtirish juda yuqori darajaga yetdi: ko’plab axborot tizimlari turistik sayohatlarni eng kichik detallarga qadar rejalashtirishga imkon beradigan bir qator vositalarni taqdim etmoqda.



3.1-rasm. Mobil ilova ko’rinishidagi O’zbekiston turistik geoportal tizimining umumiy ko’rinishi

Agar GAT xaritasi turistik korxonalar hamkorlik qiladigan kurortlar, ularning hududlari rejalari, xizmat ko’rsatish sifati to’g’risidagi ma’lumotlar, ulardagi mehmonxonalar va xonalarning fotosuratlari, plyajlari, mahalliy oshxonalarning asl taomlari nomlari va boshqa narsalar bilan tuzilgan bo’lsa, GAT turistik korxonalarning mehnat umumdorligining oshishiga hamda yuqori sifat va daromad olishlariga katta yordam berishi mumkin. Bularning barchasi turistik firma va tashkilotlarga turistik mahsulotlarining boshqa sotuvchilariga nisbatan katta ustunligini yaratadi.

Ko’pincha, turoperator orqali marshrutlarni tanlash turistlarni har doim ham qoniqtirmaydi. Buning sabablari quyidagicha bo’lishi mumkin:

-marshrut kerakli aholi punktlaridan o’tmaydi;

- ba’zi diqqatga sazovor joylarni ko’ra olmaydi;

- mahalliy aholi hayotiga kirib, ularning urf-odatlari bilan tanishish imkoniyati cheklangan yoki mumkin emas.

Ko’plab turistlar tobora ko’proq o’zlari rejalashtirgan sayohatlarga boradilar. Bunda asosiy narsa - muhim yo’nalishni to’g’ri rejalashtirish va barcha mumkin bo’lgan nyuanslarni hisobga olish hisoblanadi.

Bugungi kunda hayotni mobil ilovalarsiz tassavur qilish qiyin bo’lib qoldi. Zamonaviy mobil qurilmalarning faoliyat doiralari kundan kunga kengayib, insonlarning bunday qurilmalarga bo’lgan ehtiyoji ham keskin oshib bormoqda.

Mobil ilovalar mustaqil sayohatni keyingi bosqichga olib chiqdi. Turistik firmalar va agentliklarning barcha imkoniyatlarini endi cho’ntagingizga bemalol sig’ishi mumkin. GPS va xaritalar, valyuta kalkulyatori va shahar ko’rsatmasi, lug’at va tarjimon dasturlari, qulay mehmonxonalarni qidirish kabi dasturlar to’plami sayohatlarni rejalashtirishda vaqt va pulning tejalishiga, asablarni asrashga yordam beradi.

Turizm sohasining hozirgi rivojlanish bosqichida axborot texnologiyalari va dasturiy ta’minot muhim o’rin tutadi. Evolyusiya va texnika taraqqiyoti turizmga va ekskursiya xizmatlarini tashkil etishga kirib bordi. Bu bo’yicha, noyob

multimediya qo’llanmalari ishlab chiqilgan va GPS-navigasiya yordamida mobil telefonlar uchun sayyohlarga taklif etilmoqda.

Ta’kidlash joyizki, xoziri kunda IT-ishlab chiquvchilar va turizm bozorining eng ilg’or ishtirokchilari orasida, shu jumladan turizm biznesini optimallashtirish va turistlarga xizmat ko’rsatish sifatini oshirish uchun mobil texnologiyalarni joriy etish va moslashtirish bo’yicha faol ishlar olib borilmoqda. Zamonaviy operasion tizimga ega uyali telefon hamda sayohatchilar uchun foydali dasturlar to’plami vaqt va pulni tejashga, diqqatga sazovor joylarni topishga va sayohat paytida ajralmas yordamchiga aylanishga yordam beradi.



3.2-rasm. Manzillarni kiritish uchun Administrator oynasi

Ye-mail Address: *Tizim administra-tori uchun ro’yhatdan o’tgan elektron pochta manzilini kiritish maydoni.*

Password: *Tizimga kirish uchun qo’yilgan parolni kiritish maydoni.*

Mobil texnologiyalar nafaqat sayohatchilarga, balki sayohat menejerlariga ham sezilarli darajada yordam berishi mumkin va bu ularga mijozlar uchun xizmat turlarini kengaytirish imkoniyatini beradi. Shunday qilib, ko’plab kompaniyalar, shu jumladan turizm bozoridagi kompaniyalar, parvozlar jadvalidagi o’zgarishlar, bronlash tafsilotlari va holati to’g’risida SMS xabar berishadi. Bu jarayon esa mobil texnologiyalar sotishda juda muhim rol o’ynay boshlaydi. Bugungi kunda

turistlarga mobil telefondan havo transporti uchun haq to’lash va ro’yxatdan o’tish va o’tirish uchun zarur shtrix-kodni olishi mumkin.



3.3- rasm. Kiritilgan obyektlarningmanzili haqida ma’lumot

1.*Yangi obyektning manzilini kiritish*

2.*Kiritilgan obyektlar ro’yhati*

3.*Kiritilgan obyektni taxrirlash*

4.*Kiritilgan obyektni uchirish*

Bugungi kunda planshetlar va smartfonlar uchun yaratilgan mobil ilovalar ichki turizmni rag’batlantirish va investisiya loyihalarni ilgari surishning innovasion vositasi hisoblanadi. Mobil ilovalarning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat: tovar va foydalanuvchi o’rtasidagi soddalashtirilgan aloqa, iqtisodiy foyda va qulaylik. Turistik korxonalarning o’ziga xos xususiyatlari va biznesning dolzarb ustuvor yo’nalishlariga qarab, mobil ilovalar yangi mijozlarni jalb qilishning samarali marketing vositasi yoki mavjud mijozlar bazasi bilan ishlash uchun qulay xizmatga aylanishi mumkin.



3.4- rasm. Yangi obyektning manzilini kiritish

1.*Yangi obyektning nomini kiritish*

2.*Yangi obyektning manzilini kiritish*

3.*Yangi obyektning xarita bo'yicha koortinatasini kiritish*

4.*Yangi obyektning xarita bo'yicha koortinatasini kiritish*

5.*Yangi obyekt haqida ma'lumot kiritish*

6.*Yangi obyektning rasmlarini kiritish*

7.*Kiritilgan ma'lumotlarni saqlash*

Interfaol mobil ilovalari marshrutlarni geolokasiya qilish va qurish, ijtimoiy tarmoqlar, virtual galereyalar bilan integrasiya qilish, tarmoqqa doimiy ulanmasdan dasturdan foydalanish, interaktiv, shu jumladan video, animasion grafikalar, 3D, audio sharhlar, panoramalardan foydalnish imkoniyatini yaratadi.

Mobil ilovaning foydalanuvchi oynasi yordamida marshrutlarni yaratish uchun avvalo rasmda ko'rsatilganidek "Lokasii" tugmasini bosamiz. Lokasiya tugmasi ostida geolokasiyasi kiritilgan diqqatga sazovor joylar, turistik manzillar, mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari, ovqatlantirish korxonalari va shu kabi turistlarga xizmat ko'rsatuvchi manzillar joylashtiriladi.



3.5- rasm. Foydalanuvchi oynasi



3.6- rasm. Manzillar haqida ma’lumot olish oynasi

Natijada bizga manzillar haqida ma’lumot olish oynasi hosil bo’ladi. Mavjud manzillar haqida ma’lumot olish uchun har bir manzilning ustiga bir marta bosilsa, ekranimizda matnli va rasmli ma’lumot chiqadi.



3.7-rasm. Manzillarning matnli va rasmli ma’lumotlar oynasi

Bu bo’limda manzillar bo’yicha fotolavhalar va manzil haqida matnli ma’lumotlar jamlangan. Turistlar ushbu manzillar ya’ni diqqatga savor joylar, mehmonxona va shunga o’xshash joylashtirish vositalari, ovqatlantirish korxonalari va ular tomonidan ko’rsatiladigan xizmatlar bo’yicha birlamchi ma’lumotlarga ega bo’lishadi. Bu esa turistlarning ushbu manzilga tashrif buyurish ishtiyoqini yanada oshiradi. Shu tufayli mobil ilovaning ushbu qismida turistik manzillarning jozibadorlik darajasini oshirishga alohida e’tibor berilgan.



3.8-rasm. Marshrut yaratish tartibi va marshrut sxemasi

1. *Manzillarni belgilash*

2.*Marshrut yatarish oynasiga o'tish tugmasi*

3.*Yangi marshrut yaratish tugmasi*

Mobil ilovaning lokasiya bo'limiga kirib u yerdagi turistik manzillar (turistlar o'zlari hohlagan) belgilab faol holatga o'tkaziladi va "Prolojit marshrut" tugmasi orqali marshrut sxemasi chiziladi. Yuqorida keltirilganidek, ushbu mobil ilova ko'rinishidagi O'zbekiston turistik geoportal tizimi turistlarning o'zlari hohlaganidek turistik marshrutlarni yaratishiga yordam beradi. Shu bilan birgalikda ushbu ilova mamlkatimizning turistik salohiyatini targ'ib qilish, turistik mintaqalarimizning jozibadorldik darajasini yanada oshirishga xizmat qiladi. Bu esa mamalkatimizga tashrif buyuruvchi turistik oqimning oshishiga yordam beradi.

Ta'kidlash joyizki, ayni paytda yangi dasturlarni ishlab chiqish vazifasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Chunki bu axborot bozorining eng talab qilinadigan segmentidir. Bu shubhasiz, mobil qurulmalarning insonlarning kundalik hayotiga kirib borishi bilan bog'liq. Mobil qurilmalar va mobil ilovalar yordamida odamlar ma'lumot olishga va uni boshqalar bilan bo'lishishga, xaridlarni amalga oshirishga, muloqot qilish va tanishishga odatlangan. Bundan tashqari, ularning

ishbilarmonlik muhitidagi amaliy foydalari ham ravshan. Bu foyda va biznes holatini nazorat qilish, muhim xabarlarni kuzatish va katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash qobiliyati, to’lov xizmatlaridan foydalanish va analitik hisobotlarni o’qish imkoniyatlarini yanada oshiradi.

3.2. “New adventure: Cycle tourism around Samarkand”nomli veloturizm marshrutini turizm geoaxborot tizimiga joylashtirish

Zamonaviy axborot texnologiyalari jadal sur’atlarda rivojlanayotgan bugungi zamonda turizm sohasi uchun ulardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bizga ma’lumki, har qaysi turist o’z sayohatini boshlashdan oldin tashrif buyurishni maqsad qilgan destinasiya haqida ko’proq ma’lumotlarni olishga harakat qiladi. Bunda ular eng oson va maqbul variant hisoblangan internetdan foydalanadilar. Shuning uchun ham jahon turizm bozoriga kirib borishda mavjud turistik salohiyat namoyishining onlayn versiyalarini shakllantirish, turistlarga qulay bo’lgan mobil ilovalar ishlab chiqish bugungi kunning talabidir. Shu nuqtai nazardan, ushbu amaliy grant doirasida“New adventure: Cycle tourism around Samarkand” nomli veloturizm marshrutining onlayn xaritasini ishlab chiqish va uni yaxlit mobil ilovaga aylantirish maqsad qilib qo’yildi.

Ushbu veloturizm marshrutining onlayn xaritasini tuzish quyidagi ketma-ketlikda bajarildi:

1. Onlayn marshrutni ishlab chiqishda **Google Maps** dan foydalanildi. Google Maps oynasi ochilgandan keyin undagi **Мои места** bo’limiga o’tildi. Undan so’ng esa **Карты** bo’limiga kirildi. Ushbu bo’limning quyi qismida joylashgan **Создать карту** buyrug’i tanlandi.



2. **Создать карту** buyrug'i tanlanganda oynada quyidagi ko'rinish paydo bo'ladi. Ushbu oynada yaratayotgan xaritamizga nom berishimiz mumkin bo'ladi. Buning uchun **Карта без названия** bo'limiga sichqonchaning chap tugmasi bosiladi.



3. Shunda oynada quyidagi ko'rinish paydo bo'ladi. Bunda biz xaritamizga nom berishimiz mumkin bo'ladi. Misol uchun, yaratayotgan xaritamizga biz veloturizm deb nom beramiz. Shuningdek, xaritaning qisqacha mazmunini ham

kiritishimiz mumkin. Ma’lumotlar kiritilgandan so’ng esa **Сохранить** belgisi bosiladi.



4. Yaratilayotgan xaritaga nom berilgandan so’ng **Добавить маркер** buyrug’i tanlanadi va quyidagi oyna paydo bo’ladi.



5. Bunda biz marshrut tarkibiga kiritilgan obyektlarni belgilab chiqishimiz mumkin bo’ladi. Suratda **Точка 1** yozuvi o’rniga obyekt nomi, uning quyi qismida obyekt haqida qisqacha ma’lumot, o’ng tomonning pastki burchagidagi belgiga bosib obyektning suratini joylashtirishimiz mumkin bo’ladi. Ma’lumotlar kiritilgandan so’ng **Сохранить** belgisi bosiladi. Shundan so’ng kiritilgan ma’lumotlar saqlanadi. Biz obyektlarni bir-biridan farqlash uchun ularni ularni

turli xil ranglarda, turli xil belgilar bilan belgilab chiqishimiz mumkin bo’ladi. Buning uchun biz **Стиль** bo’limiga murojaat qilishimiz kerak bo’ladi. Bizning marshrutimizdagi birinchi obyekt “Meros” qog’oz fabrikasi bo’lganliga sabab, obyekt haqidagi ma’lumotlar xaritaga joylashtirilgan.



Ma’lumot o’rnida shuni aytish joizki, obyektning bir nechta suratlari joylashtirilishi mumkin.

Shu tarzda tashrif buyurishi ko’zda tutilgan obyektlarning barchasi onlayn xaritada ketma-ket joylashtirib chiqiladi. Obyektning xususiyati, uning turistik resurslarning qaysi turiga mansubligini inobatga olgan holda maxsus belgichalar qo’yib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bizning onlayn haritamiz misolida buni ko’rib chiqishimiz mumkin.



Yuqoridagi rasmdan ko’rinib turibdiki, onlayn xaritamizda diniy ziyoratgoh obyektlar yarim oy va yulduz, “Chor-chinor” ziyoratgohi daraxt, Kattaqo’rg’on suv ombori suvda cho’milayotgan odam piktogrammasi bilan belgilangan. Bu turistlarga obyektning nimaga ixtisoslashganligi va qanday obyekt ekanligi haqida dastlabki asosiy ma’lumotni berishga xizmat qiladi. Bundan tashqari rasmda biz 30 ga yaqin turistik resurslarning belgilab chiqilganligini ko’rishimiz mumkin. Tayyor marshrut xaritasi ham aynan shunday ko’rinishga ega bo’ladi. Onlayn xaritamizdagi har bir obyekt ustiga sichqonchaning chap tugmasi bir marta bosilsa obyekt haqidagi ma’lumot va obyektning rasmi ekranda namoyon bo’ladi.



Ko’rinib turibdiki biz marshrutimiz tarkibiga kiritilgan Sheroz qal’a yodgorligi ustiga sichqonchaning chap tugmasi bir marta bosganimizda obyekt haqidagi ma’lumot va obyektning rasmi ekranda paydo bo’ldi.

Shuningdek, obyektlarning to’liq ro’yxati bilan ham tanishib chiqish imkoniyati mavjud bo’lib, bu ma’lumotlar ekranning chap qismida joylashgan bo’ladi (rasmda qizil to’rtburchak bilan belgilangan).



Shuningdek, marshrutning yana bir qulayligi, ushbu xaritada istalgan obyektlar o’rtasida onlayn harakatlanish marshrutini chizish imkoniyati bo’ladi. Misol uchun, biz Kattaqo’rg’on va Ishtixon tumanlari orasida harakatlanish uchun marshrut topmoqchi bo’lsak, **Добавить маршрут** belgisi bosiladi hamda tashrif ko’zda tutilgan obyektlar kiritiladi. Xaritada avtomatik tarzda marshrut shakllanadi.



Mazkur onlayn xarita bilan qiziquvchilar https://www.google.com/maps/d/yedit?hl=ru&hl=ru&mid=1pV9ixGjmR5tpMt7FKdd5YeoMQx4FyfoQ7&ll=40.11318648176055%2C65.98249363867194&z=9 internet manzili orqali tanishib chiqishlari mumkin bo’ladi.

Ushbu manzil uchun biz internet domen (**.com**, **.net**, **.info**, **.yedu**, **.org**, **.gov kabilar)** sotib olsak ushbu xarita saytga aylanadi va turistlar uchun yanada qulay

ko’rinishga kiradi. Shuningdek, ushbu xaritani mobil ilovaga aylantirsak, qulaylik darajasi oshadi va istalgan odam bemalol foydalanishi mumkin bo’ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi.–T.: O’zbekiston", 1993.

2. O’zbekiston Respublikasining «Turizm to’g’risida»gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.07.2019 y., 03/19/549/3446-son

3. O’zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to’g’risida”gi Qonuni. 2004 yil 29 aprelda qabul qilingan. 2015 yilda yangi tahriri qabul qilingan.

4. 2006 yil 17 apreldagi “O’zbekiston Respublikasida 2006-2010 yillarda xizmat ko’rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-325-sonli Qarori.

5. 2007 yil 21 maydagi “O’zbekiston Respublikasida 2010 yilgacha bo’lgan davrda xizmat ko’rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-640-sonli Qarori.

6. 2012 yil 10 maydagi “2012-2016 yillarda O’zbekiston Respublikasida xizmat ko’rsatish sohasini rivojlantirish dasturi to’g’risida”gi PQ-1754-sonli Qarori.

7. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral, “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi PF-4947-sonli Farmonining “2017 — 2021 yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi”ga bag’ishlangan 1-ilovasi. //O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

8. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrdagi “O’zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni.

9. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagi “O’zbekiston Respublikasi turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo’yicha qo’shimcha tashkiliy chora-tadbirlari to’g’risida”gi Farmoni.

10. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 fevraldagi “Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori,

11. .O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 fevraldagi “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori.

12. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi “O’zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi farmoni.

13. Amriddinova R.S., Aliyeva M.T, Raximov Z.O., Ibadullayev N.E., Abduxamidov S.A. Mehmonxonalarda xodimlar faoliyatini boshqarish. O’quv qo’llanma. T.: “Fan va texnologiyalar” 2018 y.

14. Axmedov O., Bahriddinov N. Hozirgi zamon geografiyasining dolzarb muammolari”. A.: 2007. 10 bet.

15. Boltabayev M.R., Tuxliyev I.S., Safarov B.Sh., Abduxamidov S.A. “Turizm: nazariya va amaliyot”. Darslik. T.: “Fan va texnologiya” 2018 y.

16. Hayitboyev R., Amriddinova R.S., Abduxamidov S.A. va b. Turizm marshrutlarini ishlab chiqish texnologiyasi/ O’quv qo’llanma. S.: SamISI 2016.-179 b.

17. Hayitboyev R., Amriddinova R.S., Turizmning maxsus turlari. Uslubiy qo’llanma. Samarqand, 2008y.

18. Hayitboyev R., Babayev F., Abduxamidov S.A. va b. O’lkashunoslik. O’quv qo’llanma. S.: 2019 y.

19. Ibadullayev N.E., Xamitov M.X., Abduxamidov S.A. va b. Mintaqaviy turizm. O’quv qo’llanma. S.: 2020 y.-341 b.

20. O’zbekistonda turizm bozorini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari. Monografiya. /I.S.Tuxliyev tahriri bilan. – T.: “Iqtisodiyot”, 2012. – 304 b.

21. Pardayev M.Q., Atabayev R. Turistik resurslarni tahlil qilish va baholash. Samarqand, SamISI, 2006.-140 b.

22. Tuxliyev I.S., Amriddinova R.S.,Tursunova G.R. Ekskursiya xizmatini tashkil qilish. O’quv qo’llanma. T.2018y.

23. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. “Turizm asoslari”. Darslik. T.: “Fan va texnologiya” 2014 y.-314 b.

24. Tuxliyev I.S., Qudratov G’.H., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2010. – 264 b.

25. Азар В.И., Туманов С.Ю. Економика турисцкого рынка. - М.: ИПКГ, 1998. – 239 с.

26. Александрова А. Ю. География туризма. Москва, КНОРус, 2010.- 592 с.

27. Александрова А. Ю. Международный туризм. Учебное пособие для вузов. - М.: Аспект Пресс, 2001.– 464 с.

28. Алешин Л.И. Информационные технологии. — Учебное пособие. М: Московская финансово-промышленная академия, 2008.

29. Баранов Ю.Б., Берлянт А.М., Капралов Е.Г. и др. Геоинформатика. Толковый словарь основных терминов. — М.: ГИС-Ассоциация, 1999. – 204 с.

30. Берлянт А.М. Геоиконика. — М.: 2002.- 208 с.

31. Берлянт А.М. Картография: Учебник для вузов. – М.: Аспект Пресс, 2001. – 336 с.

32. Берлянт А.М., Тикунов В.С. Картография. М.: Картгеоцентр. — Геоиздат, 2004. - 380 с.

33. Биржаков М.Б. Введение в туризм. – Издание 9-е переработанное и дополненное.– СПб.: «Издателский дом Герда», 2007. – 576 с.

34. Ватутин С., Дашкиев М. Прибылная турфирма. Советы владелсам и управляющим. – Спб.: Питер, 2012. – 208 с.

35. Введение в ГИС. Учебное пособие/Коновалова Н.П., Кондратов Е.Г. — Петрозаводск: 2003. - 148 с.

36. Власова М.В. Турист. – М.: “Ексмо”, 2007. – 224 с.

37. Геоинформатика. Под ред. В.С.Тикунова. — М.:Академия, 2005.

38. Глебова Н. ГИС для управления городами и территориями // ArcReview, 2006. - № 3(38).

39. Голенков В.В. Анализ геоинформационных данных. Компьютерный практикум: Голенкова В.В., Степанова М.Д., Гулякина Н.А., Самодумкин С.А., Крючков А.Н. — Минск, БГУИР, 2005 г.

40. Государственная программа информатизации Республики Беларусь на 2003 - 2005 годы и на перспективу до 2010 года «Электронная Беларусь» УТВЕРЖДЕНО Постановлением Совета Министров Республики Беларусь 27.12.2002.№ 1819

41. Дурович А.П. Организасия туризма. – СПб.: Питер, - 320 с.

42. Дьяченко Н.В. Использование ГИС-технологий в решении задач управления. - http: // www. nocnit. ru/2st/materials/Diachenko. html

43. Дьяченко Н.В. Опыт разработки информационно-аналитических систем поддержки принятия управленческих решений - http: // www. nocnit. ru/2st/materials/Diachenko. html

44. Енджейчик И. Современный турисцкий бизнес. М.: Финансы и статистика, 2003. – 320 с.

45. Еремченко Е. Новый подход к созданию ГИС для небольших муниципальных образований // ArcReview, 2005. - №2(32).

46. Журкин И. Г., Шайтура С. В. Геоинформационные системы. — М., «КУДИЦ-ПРЕСС», 2009.

47. Иконников В.Ф., Седун А.М., Токаревская Н.Г. Геоинформационные системы. — Мн.: БГЭУ (в печати).

48. Капралов Е.Г., Кошкарев А.В., Тикунов В.С. и др. Основы геоинформатики. Уч. пособие. – М.: Изд. центр «Академия», 2004. – 480 с.

49. Кварталнов В.А. Туризм: теория и практика: Избранные труды: В 5ти. т. –М.: “Финансы и статистика”, 1998,….с.

50. Красовская О., Скатерщиков С., Тясто С., Хмелефа Д. ГИС в системе территориального планирования и управления территорией // ArcReview, 2003. – №3 (38).

51. Крючков А.Н., Самодумкин С.А., Степанова М.Д., Гулякина Н.А. Под науч. ред. В.В. Голенкова Интеллектуальные технологии в геоинформационных системах: Учеб. пособие, с изм. — Мн.: БГУИР, 2006

52. Немоляева М.Е., Ходорков Л.Ф. Международный туризм: вчера, сегодня, завтра.М.: “Международное отношение”, 1985. – 175 с.-10,2 п.л.

53. Самардак А.С. Геоинформационные системы: Учебное пособие. — Владивосток: ТИДОТ ДВГУ, 2005.

54. Скатерщик С. ГИС в градостроительном проектировании и управлении территориями // ArcReview.

55. Томилин В.В., Нориевская Г.М. Использование ГИС в муниципальном управлении // Практика муниципального управления, 2007. - №7.

56. Турлапов В.Е. Геоинформационные системы в экономике: Учебно-методическое пособие. — Нижний Новгород: НФ ГУ-ВШЭ, 2007.

57. Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Националные модели развития туризма. - Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2006.- 424 с.

58. Usmanova Z. I. O’zbekistonda turistik-rekreasion xizmatlarni rivojlantirish xususiyatlari va tendensiyalari. Falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertasiyasi. Samarqand-2018 y 14-20 b.

59. Щербинин Ю.Б. Нетрадиционные подходы к созданию геоинформационных систем управления муниципальными образованиями. – СНИБ "Эльбрус".

Internet ma’lumotlari

1. http://press-servicye.uz.
2. www.stat.uz sayti.

3. www.samarqand.uz.
4. www.lex.uz.
5. https://ru.wikipedia.org.